



**BANK-MOLIYA
TERMINLARINING
O‘ZBEK TILIDAGI
IZOHLI LUG‘ATI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

S. Muhamedova, Y. Shirinova, G.Narimova

**BANK-MOLIYA
TERMINLARINING
O‘ZBEK TILIDAGI
IZOHLI LUG‘ATI**

*Bank muassasalari xodimlari, oliy o‘quv yurtlari talabalari,
tadqiqotchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari hamda
qiziquvchilar uchun lug‘at*

**Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2020**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasiga binoan O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan nashr etildi.

UDK: 811.512.133'374.26.35

BBK: 81.2-(5Uz) -4 68aA2

A 17

S. Muhamedova, Y. Shirinova, G.Narimova.

**Bank-moliya terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'ati
lug'at/. – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, 158 b.**

Lug'at hozirgi o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan 800dan ortiq bank-moliya terminlari, tushuncha va iboralarining izohidan iborat. Lug'atda berilgan terminlarning amalda qo'llanishi sohaga oid me'yoriy hujjatlar, o'quv adabiyotlari, matbuotdan olingan misollar bilan dalillangan. Lug'atdan bank muassasalari xodimlari, oliy o'quv yurtlari talabalari, tadqiqotchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari hamda barcha qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

D.O'rinboyeva

filologiya fanlari doktori, professor

N.Qodirova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'quv-uslubiy kengashining 2020-yil 18-dekabrda 5-sonli masofaviy o'tkazilgan yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7025 -1-6

© S. Muhamedova va boshq., 2020.


© "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

KIRISH

O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan ulkan o‘zgarishlar, amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ilm-fan taraqqiyoti, boshqa davlatlar bilan olib borilayotgan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tilimizda o‘z lisoniy ifodasini topmoqda. Jamiyat hayotini bank-moliya tizimisiz tasavvur qila olmaymiz. Shunga ko‘ra, respublikamizda milliy iqtisodiyot jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan bir vaqtda bank-moliya terminlarini o‘rganishga ehtiyoj katta. Zero, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonda: “...mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish”¹ muhim vazifalardan biri sifatida ta’kidlangan. Bugungi taraqqiyot va turmush tarzi bank tizimi faoliyatining nazariy va amaliy masalalariga, mazkur tizimning turli tarixiy bosqichlardagi rivojlanishini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora kuchayib borishiga sabab bo‘lmoqda. Banklar faoliyatining iqtisodiy masalalari, uni tartibga solish, bank menejmentining nazariy va amaliy masalalari, bank tizimini rivojlanish jarayonlari MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlaridan A.V.Anikin, G.N.Anulova, P.Y.Voronov, I.R.Gindin, G.M.Gamidov, E.F.Jukov, O.I.Lavrushin, U.Timotti, V.M.Usoskin, A.N.Sharov, Sh.X.Toshmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan, tahlil qilingan. Bank-moliya tizimining paydo bo‘lishi ancha munozarali, bahstlab masala sifatida e’tirof etiladi. Iqtisodiyotga doir aksariyat adabiyotlarda² dastlabki banklar XIV asrlarda Italiyaning Venetsiya, Genuya, Milan kabi savdo shaharlarida jamoat banklari mavjud bo‘lishiga qaramasdan, XVII asrdan Angliyada manufaktura ishlab chiqarishining paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan deb hisoblab kelinadi. Bank-moliya terminologiyasi mustahkam milliy-lisoniy ildizlariga ega va ayni vaqtda dunyo hamjamiyati ta’sirida xorijiy

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини tubдан ошириш chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги Фармони //<http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019>

²Қаранг: Лаврушин О.И. и др. Банковское дело (учебник). – Москва: КНОРУС, 2005. – С.14-15; Тошматов Ш.Х. Ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи: иқтисод.фан.док...дисс. – Тошкент, 2006. – Б.15.



tillardan soʻz oʻzlashtirish hisobiga taraqqiy etayotgan sistemadir. Mazkur sistema birliklarini oʻrganish, soha terminlarining izohini darslik va manbalardan topib, lugʻat shaklida nashr etish shu sohada faoliyat yurituvchi bank-moliya xodimlari, oliy taʼlim muassasalarida taʼlim olayotgan talabalar va barcha qizuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbek tilidagi bank-moliya terminlarini yigʻishda va izohlash jarayonida soha terminlarining izohi, boshqa tillarga tarjimalari berilgan bir qator lugʻatlar³ tahlilga tortildi. Shuningdek, sohaga doir darslik va qoʻllanmalar⁴ga murojaat qilindi. Mazkur lugʻatda 800ga yaqin bank-moliya terminlari, tushuncha va iboralarning izohi keltirildi.

Lugʻatdan bank muassasalari xodimlari, oliy oʻquv yurtlarining talabalari, tadqiqotchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari hamda barcha qizuvchilar foydalanishi mumkin.

Mazkur lugʻatni takomillashtirish yuzasidan bildiriluvchi barcha fikr-mulohazalar mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

³Бедельдзэ, Нийёматов Ш. Инглизча-ўзбекча-русча тижорат луғати. – Тошкент, 1977; Либман Г.И., Филатов О.К. Қисқача иқтисодий луғат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1988; Тўхлиев Н. Ишбилармонлар луғати. – Тошкент, 1993; Дўстмухаммедов Ж. Инглизча-русча-ўзбекча иқтисодиёт атамалари луғати. Тошкент, 1994; Ҳайдар М. Иқтисод-банк изоҳли луғат. – Тошкент, 1996.; Мусаев К.М. Иқтисодиёт. Молия. Банк. Тижорат: инглизча-ўзбекча луғат. Беш жыллик. Т.1. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998; Санджонов С.Й. Бозор иқтисодиётига доир баъзи атамаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000; Эргашев Т. Иқтисодий атамаларнинг ўзбекча-инглизча-русча луғати. – Тошкент: Шарқ, 2001; Мусаев К.М. Инглизча-русча-ўзбекча иқтисодий луғат. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 2001; Каримова И. Банк терминларининг французча-русча-ўзбекча луғати. – Тошкент: Маънавият, 2002; Полван М. Словарь современного бизнесмена: (русско-узбекский) = замонавий ишбилармон луғати. – Тошкент: Адолат, 2008. - 416 б.

⁴Маликов Т. Молиявий менежмент: монография. – Ташкент: Академия 1999; Ўзбекистон Республикаси банк тизими / Ф.М.Муллажонов тахрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001; Ҳайдаров Н. Молия. – Тошкент: Академия, 2001; Шодиев Ҳ. Молия статистикаси (дarsлик). – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2002; Рашидов О.Ю., Алимов И.И., Тоймухаммедов И.Р., Тожиёв Р.Р. Пул, кредит ва банклар (дarsлик). – Тошкент: ТДИУ, 2008.

ABANDON (*frans. abandon – rus. отказ; o'zb. voz kechish*)

1. Qarz majburiyatlaridan voz kechish;
2. Shaxsiy mulkka egalik qilishdan voz kechish;
3. Kelishuv, bitimdan jarimani to'lash yo'li bilan chiqib ketish.

Sug'urtada: sug'urtalanuvchi (o'z mol-mulkini sug'urta qilgan shaxs)ning mol-mulkka nisbatan o'z huquqlaridan voz kechishi va bu huquqlarni sug'urta pulini to'liq undirish maqsadida sug'urtalovchi (davlat yoki korxonalar...)ga berishi. Sug'urta summasini to'liq miqdorda undirish maqsadida mulkini sug'urta qilgan shaxsning o'zining mulkka egalik qilish huquqini sug'urtachiga taqdim qilishi. Qoidaga muvofiq, sug'urtalovchi mulkdor mulki yo'qolgan, ma'lum darajada shikastlangan, uni qayta tiklash maqsadga muvofiq bo'lmagan holatlarda abandonni qo'llaydi. Dengiz tashuv xizmatlarida tovar yoki dengiz transporti sug'urtachisi tomonidan qo'llaniladi.

AB OVO (*lot. ab ovo – eng boshidan boshlash, tuxumdan boshlash; Qadimgi Rimda ovqatlanishni tuxumdan boshlab olma bilan yakunlash odati bo'lgan*)

Avvalgi sessiya muvaffaqiyatsiz kechganda yangi birja faoliyatining boshlanishidan dalolat beruvchi tushuncha.

ABONEMENT

1. Belgilangan muddat davomida biror turdagi xizmatlardan foydalanishga doir oldindan qo'lga kiritilgan huquq.
2. Mazkur huquqni tasdiqlovchi hujjat.

ABONEMENT TO'LOVI

Tashkilotlar, korxonalar, fuqarolar tomonidan taqdim qilinuvchi xizmatlardan uzoq vaqt davomida, takroriy ravishda foydalanish, abonementga ega bo'lish uchun taqdim qilinuvchi to'lov.

ABONENT (*frans. abonner – rus. подписываться; o'zb. obunachi*)

Iste'molchi, keng tarqalgan ommaviy xizmatlar foydalanuvchisi; abonementga ega bo'lgan shaxs. Masalan, telefon tarmog'i abonent – telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi shaxs.

ABONENT QARZDORLIK

Abonentning ko'rsatilgan va to'lov muddati tugagan xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish majburiyati. Abonent qarzdorlikni

to'lamagan taqdirda, u xizmat ko'rsatishdan mahrum bo'lishi, qarzdorlik esa sud tartibiga ko'ra undirilishi mumkin.

ABEKOR

«Европа korporatsiyasining assotsiatsiyalangan banklari (Ассоциированные банки Европейской корпорации)» nomining qisqartmasi. ABEKOR xalqaro bank birlashmasini ifodalaydi va banklararo axborot almashinuvi va iqtisodiyot, moliya, bank ishi kabi sohalarida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. 1971-yilda tuzilgan.

ABSENTIZM (lot. absentia – rus. отсутствие; o'zb. yo'qlik)

1. Mulkdorning ishtirokisiz yerdan foydalanish shakli. Mazkur holatda yer renta ko'rinishida daromad oluvchi, biroq yerdan foydalanish va daromad olishda ishtirok etmaydigan mulkdordan ajratilgan bo'ladi.

2. Xodimning uzrli sabablarsiz ishda bo'lmasligi.

ABSOLYUT (MUTLOQ) MIQDORLAR

Kuzatilayotgan miqdor birliklarini qo'shish yoki ayirish, boshqacha aytganda hajm va miqdor ko'rsatkichi bo'lib, ular statistik to'planning miqdori va hajmini ifodalaydi. Absolyut ko'rsatkichlar natural, mehnat va pul o'lchamlariga bo'linadi.

ABSORBSIYA (lot. absorption – rus. поглощение; o'zb. qo'shilish)

Chet mamlakatlardan kelgan immigrantlarning mazkur mamlakatga doimiy ro'yxatdan o'tkazilib, mamlakat iqtisodiy hayotiga qo'shilishi.

ABSTRAKSIYA

(lot. abstractio – rus. отвлечение; o'zb. chetlashtirish)

Iqtisodiy tahlilni undan ayrim iqtisodiy va noiqtisodiy, mazkur tahlilda ahamiyatga ega bo'lmagan va yanada yaqqol manzarani gavdalandirish uchun istisno qilinishi mumkin bo'lgan omillarni chetlashtirish orqali amalga oshirish.

AGENT

Yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, firmaning hisobidan yoki uning nomidan, uning xizmatchisi bo'lmay turib, boshqa shaxsning topshirig'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs.

AGENT (lot. agens, agentis – rus. действующий)

Biror shaxs (prinsipal) nomidan uning topshirig'iga muvofiq hamda manfaatlariga mos ravishda ma'lum turdagi faoliyatni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan vositachi, ishonchli shaxs sifatida maydonga keluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, fuqaro yoki tashkilot. Iqtisodiy operatsiyalarda agent sifatida brokerlar, maklerlar, dilerlar, komissionerlar, dallollar faoliyat ko'rsatadi.

AGENTLIK

1. Nisbatan yirik tashkilot, korxonaning mazkur hududdagi ishlari bilan shug'ullanuvchi, ularning yo'riqnomasiga muvofiq ish yurituvchi vakil bo'limi. Masalan, firma o'zining mahsulotlarini sotish va tarqatish bilan shug'ullanuvchi agentligiga ega bo'lishi mumkin.

2. Ma'lum bir davlat, jamiyat va ijtimoiy funksiyani bajaruvchi muassasa. Misol tariqasida iste'molchilar huquqini himoya qilish agentligi, reklama agentligi, ijodiyot agentligi kabilarni keltirib o'tish mumkin.

AGENTLIK BITIMI

Agentni yollovchi shaxs va agent o'rtasida tuziladigan bitim bo'lib, unga muvofiq agent belgilangan sharoitlarda uni yollovchi shaxs manfaatlariga ko'ra uning nomidan ma'lum turdagi xizmatlar va faoliyatni amalga oshiradi. Bitim odatda yozma shaklda tuziladi va unda agent vazifalari, ularni bajarish tartibi, mukofotlash miqdori va shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari, amal qilish muddati, bitim shartlari buzilgandagi sanksiya, nizolarni bartaraf etish tartibi kabilar aks etadi.

AGENT MUKOFOTI

Bajargan agentlik xizmatlari uchun agentga uni yollagan firma, tashkilot, shaxs tomonidan beriladigan to'lov. Agent mukofotining miqdori u tomonidan bajarilgan agentlik xizmatlariga bog'liq. Odatda savdo agentlarining mukofoti sotilgan tovardan yoki xizmatdan tushgan daromadning foizi asosida belgilanadi.

AGENT OPERATSIYALARI

Agent tomonidan mijoz yo'riqnomasiga muvofiq agentlik xizmatlari, odatda tovar va xizmatlarni sotish va sotib olish bilan bog'liq faoliyatning amalga oshirilishi.

AGRESSIV PORTFEL

Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan qoʻlga kiritilgan, kursi keskin koʻtarilish ehtimoli boʻlgan qimmatbaho qogʻozlar yigʻindisi. Ushbu tushunchaga qarama-qarshi tushuncha – himoyalalanuvchi portfel.

AGRESSIV QIMMATBAHO QOGʻOZLAR

Aksiya, obligatsiya va h. koʻrinishidagi, kursi tendensiyalar, prognozlar, fond bozoringa kuzatilayotgan konyunkturasiga muvofiq sezilarli darajada koʻtarilishi mumkin boʻlgan qimmatbaho qogʻozlar. Odatda bunday qogʻozlar sezilarli miqdorda daromad olish maqsadida qoʻlga kiritiladi, ammo ularning sotib olinishi katta tavakkalchilik asosida amalga oshiriladi.

ADAPTATSIYA (lot. adaptatio — rus. приспособление; oʻzb. moslashish)

Iqtisodiy sistema va uning boshqa subyektlari, ishchilarning tashqi muhit, ishlab chiqarish, jamiyatning oʻzgaruvchan sharoitlariga moslashuvi. Masalan, markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga oʻtish jarayonida tashkilotlar va ularning ishchilari bozor muhiti va bozor munosabatlariga moslashishi muhim.

ADMINISTRATOR

Menedjer, boshqaruvchi terminlarining sinonimi.

ADMINISTRATSIYA (lot. administratio – rus. управление, руководство; oʻzb. boshqaruv)

Firma, tashkilot, korxonaning rahbariyati, boshqaruv apparati; operativ boshqaruvni amalga oshirishga masʼul boʻlgan, yuridik shaxs sifatida tashkilot, muassasaning rasmiy vakillari doirasi. Tashkilot, firma administratsiyasiga firma rahbari (prezident), uning oʻrinbosarlari (vitse-prezidentlar), bajaruvchi direktorlar, bosh buxgalter, yetakchi menedjerlar kiritiladi.

ADRESANT

Yuk uzatuvchi.

ADRESAT

Joʻnatilgan yuk, tovar, xatni qabul qiluvchi.

AJIO (lot. aggio soʻzidan olingan; ing. agio rus. превышение; oʻzb. koʻtarilish)

1. Valyutalar kursidagi farq.

2. Qogʻoz pullarni tanga pullarga yoki kuchsiz valyutani kuchli valyutaga ayirboshlaganlik uchun undirib olinadigan vositachilik haqi.

AJIO-KONTO

Foyda va zararni aks ettiruvchi hisob raqami.

AJLOTAJ (frans. agiotage – rus. возбуждение; o'zb. ta'sirlanish)

Kon'yuktura, talab va taklif, tovarlar narxi, valyuta kursi hamda qimmatbaho qog'ozlar kurslarining keskin o'zgarishi bilan shartlangan bozor isyoni. Tez va katta daromad olish imkoniyati, shuningdek, sezilarli yo'qotishlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

AYLANMA KASSA MABLAG'I ME'YORI

Moliya yilida reaspublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar hisobvaraqaalarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori.

AYLANMA MABLAG'LAR

Korxonada tomonidan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan hamda mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq xarajatiga sarflanadigan mablag'lar.

AKKREDITIV (lot. accreditivus – fr. akkreditif; nem. akkreditiv; rus. доверительный; o'zb. ishonchli)

1. Bank hisobining bir turi. Akkreditiv kelishuvchiga akkreditiv topshirig'ida ko'rsatilgan shartlarda tovar, ishlar va xizmatlar uchun majburiyat bajarilishi zahoti to'lov olish imkonini beradi.

2. Akkreditiv nomlangan qimmatli qog'oz bo'lib, unda nomi yozilgan shaxsga ko'rsatilgan miqdordagi pulni bankdan yoki omonat kassadan olish huquqini beradi.

3. Jamg'arma bankining aholiga ko'rsatiladigan xizmat turlaridan biri; bank bo'limining tegishli bir shaxsga ma'lum miqdordagi so'mlarga beradigan buyrug'i, maxsus blank vositasida amalga oshiriladi.

Bulardan tashqari, akkreditiv korxonalarining mulkiy munosabatlarida, xalqaro hisob-kitoblarida keng qo'llanadi.

AKKREDITASIYA TO'G'RISIDA GUVOHNOMA

Markaziy bankning vakolatxona akkreditasiyalangani va ro'yxatdan o'tganini tasdiqlovchi yozma hujjati.

AKSIONER (AKSIYADOR) BANK

Aksioner (aksiyador) jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aksioner (aksiyador) banklar bo'lishi mumkin.

Aksionerlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

AKSIZ

Soliqning bir turi bo'lib, sotuvchining daromadiga aloqador bo'lmagan, umumiste'mol mahsulotlarning muayyan turini sotishga nisbatan olinadigan qo'shimcha soliq. Aksiz tovar narxiga qo'shiladi va davlat hamda mahalliy budjetlarga undiriladi. Odatda aksiz solig'i spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, zeb-u ziynatlar, avtomobillarga qo'yiladi. Mahsulotni sotib oluvchi iste'molchilar aksiz to'lovchilari hisoblanib, ular aksiz yig'imgilariga jalb qilinadi.

AKSIYA

Qimmatli qog'oz turi. Fransuzcha «action» so'zidan olingan bo'lib, u aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo'shganlik haqida guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va odatda ushbu jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.

AKSIYADOR

Aksiya egasi; aksiyaga ega bo'lgan va shu orqali barcha huquqlardan foydalanuvchi shaxs. Aksiyador aksiyani o'z hisobidan, ya'ni mavjud bo'sh mablag'lariga sotib olib, jamiyatning nizom fondini tashkil etishda ishtirok etuvchi korxonalar, tashkilot, bank va boshqa moliya tashkilotlari yoki alohida fuqarolardir.

AKSIYADORLIK BANKLARI

Bu sarmoyasi aksiyalar chiqarish hisobidan shakllanadigan banklar bo'lib, ushbu aksiyalarning egalari sifatida kredit muassasalari ishtirok etadi. Masalan, an'anaviy tarzda aksiyadorlik banki sifatida Federal zahira tizimi (FZT) deb nomlanuvchi AQSh Markaziy banki ishtirok etib, unga 5470 ta turli xildagi bank a'zo hisoblanadi. FZTning asosini 12 ta Federal bank (AQShning 12 okrugi) tashkil qiladi. Mazkur 12 ta bankning direktorlari FZT direktorlarining kengashiga a'zo hisoblanadi. FZT raisi kongress tomonidan 5 yil muddatga tayinlanadi. Italiya Markaziy banki ham aksiyadorlik banki hisoblanadi.

AKSIYADORLIK JAMIYATI

1. Bir nechta fuqaro, korxonalar va tashkilotlarning uyushmasi bo'lib, o'z kapitalini aksiyalarni ishlab chiqarish va sotish orqali shakllantiradi.

2. Aksiyadorlik kapitalini jalb qiluvchi korxonalar va kompaniyalarning mavjud bo'lish va faoliyat ko'rsatishining tashkiliy-huquqiy shakli.

Aksiyadorlik jamiyati ko'rsatilgan nominal qiymatga teng aksiyalarning muayyan miqdoriga bo'lingan nizom fondiga ega bo'lgan hamda majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mol-mulki bilan javobgar bo'ladigan jamiyat.

Yopiq aksiyadorlik jamiyatlari o'z aksiyalarini ta'sis etuvchilarning qaroriga binoan yopiq obuna shaklida tarqatadi. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlari esa o'z aksiyalarini ochiq savdo orqali tarqatadi.

AKSIYADORLIK KAPITALI

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarni ishlab chiqarish va sotish orqali shakllantiradigan asosiy pul mablag'i (kapitali).

AKSIYADORLIK SERTIFIKATI

Aksiyaga nisbatan mulkdorlik yuridik huquqini tasdiqlovchi hujjat. Agar aksiya sertifikat shaklida ro'yxatga olingan bo'lsa, aksiya sohibiga dividendlar pochta orqali jo'natiladi. Aksiya qayta sotilganidan keyin firmaning transfer-agenti mulk huquqini xaridorga o'tkazadi va yangi sertifikatni taqdim qiladi.

AKSIYALAR

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan amal qilish muddati belgilanmagan holda chiqariladigan qimmatli qog'ozlar. Aksiya aksiyadorning jamiyat aksiyadorlik kapitali (ustav fondi)ga hissa qo'shganligidan dalolat beradi. Aksiya quyidagi huquqlarni beradi: dividendlar ko'rinishida daromaddan ulush olish; bozorda qimmatli qog'ozlarni sotish; aksiyadorlik jamiyati boshqaruvida ishtirok etish; mulk huquqi.

AKSIYALAR LIKVIDLIGI

Aksiya egasining ularni pulga aylantira olish imkoniyati.

AKSIYALARNING BONUSLI EMISSIYASI

Aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida bepul tarqatish maqsadida muomalaga chiqarish.

AKSEPT (lot. acceptus – rus. принятый, o'zb. qabul qilingan) To'lovchining jo'natma veksel (tratta), to'lovga chiqarilgan hisobni belgilangan muddatda to'lash hamda to'lovga doir boshqa talablarni qondirish majburiyati (rozilikni tasdiqlash). Aksept to'lov talabnomasida "akseptlangan" yozuvi hamda imzo shaklida

rasmiylashtiriladi. Hujjat akseptlangan deganda to'lovni amalga oshirish yuzasidan to'lovchi (bank)ning to'lovga roziligi mavjudligi tushuniladi. Shuningdek, bir tomonning shartnomani tuzishga doir taklifi (oferta)ga kelishuvchi ikkinchi tomonning roziligi ham aksept deb yuritiladi.

Aksept – pul, hisob-kitob, tovar hujjatlarini yoki tovar haqini to'lashga rozilik berish yoki to'lashga kafillik; taklif etilgan shartlarda shartnoma tuzishga rozilik. Aksept yetkazib berilgan tovarlar ichki va xalqaro tovar-pul muomalasida ko'rsatiladigan xizmat uchun haq to'lash shakllaridan biri sifatida keng qo'llanadi; veksel, chek va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, shuningdek, tovar hujjatlari bo'yicha hisob-kitob qilish shakli.

AKSEPTLANGAN VEKSEL

Qayd qilingan muddati yetganda va ko'rsatilganda to'lov majburiyatiga ega bo'lgan yoki ko'rsatilgan mablag'ni to'lovni kafolatlovchi bank roziligi mavjud bo'lgan veksel. Akseptlangan veksel odatda “akseptlangan”, “qabul qilingan”, “to'lov majburiyatini olaman” tarzidagi yozuvlar yoki to'lovchining to'lovga rozilik imzosi bilan rasmiylashtiriladi. To'lovchi belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirilishiga akseptant – asosiy veksel qarzdoriga aylanadi. To'lov amalga oshirilmaganda veksel egasi akseptantga nisbatan arz qilish (da'vo) huquqiga ega. Oldi-sotdi shartnomasiga asoslangan akseptlangan veksel (tijorat veksel)lari tijorat banklari tomonidan havola qilinuvchi kreditlarni ta'minlashda hisobga qabul qilinadi (sotib olinadi). Qisqa muddatli veksellar markaziy banklar tomonidan qayta hisobga olinadi.

AKSEPTLANGAN TRATTA

To'loviga rozilik berilgan o'tkazma veksel.

AKSEPTLANMAGAN TRATTA

To'loviga rozilik berilmagan o'tkazma veksel.

AKSEPTLANGAN CHEK

Ko'rsatilgan summani bank tomonidan to'lash kafolatiga ega chek.

AKSEPTLASH

To'lovga rozilik berish.

AKSEPTLI KREDIT

Bank tomonidan bankka eksportchilar yetkazib beruvchi trattalar aksepti shaklida taqdim qilinuvchi kredit. Aksept kreditining tijorat

kreditidan farqi shundaki, tratta akseptanti sifatida kreditni ajratmaydigan, aksept operatsiyasiga o'z mablag'larini jalb qilmaydigan, ammo to'lov muddati yetganda trattani to'lash majburiyatini olgan nufuzli bank ishtirok etadi, ya'ni mantiqan kredit eksportchi tomonidan beriladi.

AKSEPT UYI

Tashqi oldi-sotdini kreditlashga yo'naltirilgan bank muassasasi. Asosiy faoliyati: depozit-ssuda operatsiyalari, tijorat veksellari yoki eksportchilar trattalari aksepti, maslahat (konsultatsiya) xizmatlari, kompaniyalarning qayta tuzish (qo'shilish, bo'linish) bilan bog'liq operatsiyalarida vositachilik. Aksept uyi odatda aksiyadorlik yoki xususiy kompaniya huquqida amal qiladi.

AKSEPTCHI

Veksel, hisobni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

AKT (lot. actus – rus. действие; o'zb. harakat) dalolatnoma.

AKTIV (lotin tilidagi "activus" so'zidan olingan – ing. asset, assets; fr. actif; rus. актив (действительный); o'zb. aktiv (harakatchan, faol))

1. Korxonalar, firma, kompaniyaga qarashli mulk va pul vositalari yig'indisi (bino, inshootlar, mashinalar, jihozlar, moddiy zahiralari, bank omonatlari, qimmatli qog'ozlardagi mablag'lar, patentlar, mualliflik huquqlari va boshq.). Aktivlar moddiy va nomoddiy aktivlarga bo'linadi. Nomoddiy aktivlarga intellektual mahsulot, patentlar, boshqa tashkilotlarning qarz majburiyatlari, resurslardan foydalanishga doir asosiy huquqlar kabilir kiradi.

2. Balans aktivi – hisobiyot (buxgalteriya) balansining bir qismi bo'lib, mazkur korxonalar yoki muassasaga qarashli moddiy boyliklar va nomoddiy boyliklar (pul mablag'lari, boshqa tashkilotlarga qarz talabnomalari va h.k.)ni ularning tarkibi va joylashuvi nuqtayi nazaridan pul ko'rinishida ifodalaydi. Tersisi: passiv. M.: Bank aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o'zgarib turishi mumkin (bank-moliya termini).

3. Daromadning xarajatdan yuqori bo'lishi.

aktiv² – (ot, kishi(shaxs) oti) biror kollektivning ilg'or, yetakchi, faol qismi. M: Mahalla aktivlari (ijtimoiy termin).

aktiv³ – (sifat) serharakat, serg'ayrat, faol. M: Muzokarada faol ishtirok etmoq (ijtimoiy termin).

AKTIV BALANS

Pul tushumi pul chiqimidan oshib ketishi, ya'ni musbat qoldiq kuzatiluvchi balans.

AKTIV OPERATSIYALARI (BANKLARNING)

Bank tomonidan mavjud moliyaviy resurslarni oborotga kiritish va foyda olish maqsadida taqsimlanishi. Bunday operatsiyalarning nisbatan keng ommalashgan shakllari: pul vositalarini foiz ostida kreditga berish, qimmatbaho qog'oz sifatidagi jamg'armalar, ishlab chiqarishga investitsiyalar ajratish.

AKTURIAT

Moliyaviy operatsiyalar hamda sug'urtada statistika va ehtimollar nazariyasidan foydalanish metodlari. Mazkur metodlar dastlab hayot sug'urtasida foydalanilgan, keyinchalik ulardan yillik tushumlar taqsimoti masalasini hal qilishda barcha turdagi sug'urtada keng foydalanila boshlandi. Aktuariat usullari moliyaviy matematika asosini tashkil etib, obligatsiya zaymlari nazariyasi va amaliyotida o'z aksini topadi. Bundan tashqari, aktuariat daromadlarni aktuallashtirishga asoslanganda tanlov ehtimollar nazariyasida amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar: birja siyosatini shakllantirishda, likvid vositalaridan foydalanish usullarini joriy qilishda, investitsiya (sarmoyalar)ni tanlashda ham ishlatiladi.

AKT QOG'OZI

Alohida sifatga ega bo'lgan, akt, hujjatlar, shartnomalar, bitimlar, veksellarni yozish hamda ularni qalbakilashtirishning oldini olish uchun mo'ljallangan maxsus qog'oz. Tamg'ali belgilar rasmi tushirilgan bo'ladi.

ALGORITM

Harakat qoidasi, hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazish ketma-ketligi, izlanayotgan natijani topish usuli. Matematik metod va usullardan foydalangan holda bajariladigan iqtisodiy masalalarda algoritm izlanayotgan kattalikni topish usulini anglatadi.

ALENDI

Shartnomaga nisbatan olganda muddatsiz, amal qilish muddati ko'rsatilmagan ma'nolarini anglatadi.

ALIENATSIYA

1. Mulknı tasarrufdan chiqarish.
2. Biror shaxsga tegishli aksiya, kapital, boylıknı, ya'ni mulknı boshqa bir shaxs tasarrufıga o'tkazish operatsiyasi.

ALLEGRI

Sotib olinishi bilan natijasi aniq bo'ladigan lotereya. Nomi yutuqsiz biletlardagi allegri, ya'ni "shodon bo'ling"dan kelib chiqqan.

ALLONJ

Vekselga qistirilgan qo'shimcha varaq. Unda vekselning orqa tomoniga sig'may qolgan o'tkazish yozuvlari (indossament) qayd etiladi. Allonjdagi birinchi o'tkazish yozuvini vekselda boshlanadigan qilib yozish kerak. Shuningdek, undan avval ham amalga oshirilishi mumkin.

ALMENDA

G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi jamoaviy foydalaniladigan yer.

ALPARI (MUVOZANAT) (ital. al pari, alla pari – rus. наравне, поровну; o'zb. teng)

Valyuta, obligatsiya, qimmatli qog'ozlar, veksellarning bozordagi (birja) kursining ularning belgilangan qiymati (tannarxi) bilan mutloq tengligi.

ALTERNAT (lot. alternare – rus. чередоваться, o'zb. almashinish)

Xalqaro shartnoma matniga tomonlarning imzo qo'yish ketma-ketligi (diplomatik protokol).

ALTERNATIVLIK (MUQOBILLIK) (frans. alternative – lot. alter; rus. один из двух; o'zb. ikkitasidan biri)

1. Harakatning eng maqbul usulini tanlash maqsadida boshqalari bilan teng keladigan iqtisodiy faoliyat variantlaridan birining tanlovi.

2. Biror bir qarorga qarama-qarshi qo'yiluvchi va uni istisno qiluvchi boshqaruv qarori.

ALTERNATIV (MUQOBIL) BAHO

Xuddi shunday resurslar xarajatlarini sarflash orqali ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovar yoki xizmatni yo'qotishni inobatga olgan tovar yoki xizmatga qo'yiladigan baho; bir foyda bilan boshqasini qoplash bahosi.

Iste'molchi qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan ikki narsadan birini tanlash vaqtida ulardan birini afzal bilgan holda, ikkinchisidan voz kechadi.

Mazkur holatda ikkinchisi birinchisining alternativ bahosidir. Narsaning alternativ bahosi deganda iste'molchi o'zi istagan mahsulotni sotib olish uchun voz kechishga tayyor narxdir.

ALTERNATIV NARX (qarang: alternativ baho)

ALYANS (Ittifoq) (fran. alliance – rus. союз; o‘zb. ittifoq)

Bir nechta tashkilot, korxonalar, shaxslarning kelishuv asosida birlashishi.

AMALGAMATSIYA (lot. amalgama – rus. сплав; o‘zb. qorishish)

Jamiyatlar, korporatsiyalar, ittifoq va hokazolarning kapitalni markazlashtirish maqsadida qo‘shilishi. Mazkur termin AQSh va Angliyada shu ma‘noda qo‘llanadi (mantiqan oltin va kumushning simobda erish xususiyatini anglatadi).

Kompaniyalar qo‘shilishining ikki xil metodi ma‘lum:

1. Bir yirik kompaniyaning boshqa kichik kompaniyalar mulklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shib olishi. Bunday vaqtda qo‘shiluvchi kompaniyalar tarkibi to‘liq o‘zgaradi.

2. Yangi kompaniyaning tashkil etilishi va unga boshqa kompaniyalar aktivlarining o‘tkazilishi. Bunda barcha qo‘shiluvchi kompaniyalarning tarkibi mutloq o‘zgaradi.

Ishlab chiqarish xarakteri nuqtayi nazaridan bir turdagi bir nechta korxonaning qo‘shilishi haqida gap ketganda ba‘zan *fuziya* termini qo‘llanadi.

AMANKO

Birja termini – tanqislik, qarzdorlik, kamomad.

AMBALLAJ (fran. emballage – rus. упаковка; o‘zb. qadoqlash)

1. Mahsulotni qadoqlashga doir xarajatlar;

2. Qadoqlash uchun material.

AMERIKA DEPOZITAR TILXATI (ADR)

Bu AQSh bankida deponentlangan chet el aksiyalarga erkin ayirib olinadigan tilxatdir. Hozirgi vaqtda ushbu investitsiya yordamida AQShda chet el qimmatli qog‘ozlari bilan savdolar amalga oshiriladi.

AMORTIZATSIYA (lot. amortisatio – rus. погашение, o‘zb. uzish, to‘lash, qaytarish)

Asosiy vositalarning qo‘llash, ishlab chiqarishda foydalanish jarayonida eskirishining pul shaklida hisoblanishi. Amortizatsiya eskirgan mehnat vositalarining narxini ular yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot narxiga o‘tkazish vosita, usul, jarayonidir. Asosiy vositalar eskirishini qoplash quroli pul ko‘rinishidagi amortizatsiya chegirmalari bo‘lib, ular ta‘mirlash, qurilish va yangi

asosiy vositalarni ishlab chiqarishga yo'naltiriladi. Amortizatsiya chegirmalari ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi va shu yo'l bilan narxga ko'chadi. Ishlab chiqaruvchi sotilgan mahsulotlardan tushgan mablag' ichidan ushlab qolgan holda amortizatsiya chegirmalarini jamg'arishi kerak. Jamg'arilgan amortizatsiya chegirmalari pul vositalari ko'rinishidagi amortizatsiya fondini shakllantiradi va u yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalarni ta'mirlash, qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

AMORTIZATSIYA FONDI (JAMG'ARMASI)

Amortizatsiya chegirmalarini jamg'arish hisobiga shakllangan pul vositalari ko'rinishidagi fond. Yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalarni ta'mirlash, qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Amortizatsiya jamg'armasi – eskirgan asosiy fondlarning o'rnini keyinchalik qoplash maqsadida pul mablag'larini to'plab borishga mo'ljallangan jamg'armasi.

AMORTIZASIYALANADIGAN QIYMAT

Bu aktivning moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan boshlang'ich qiymatidan uning taxminiy tugatish qiymatini ayirgan holdagi summasidir.

AMORTIZATSIYA CHEGIRMALARI

Qurilish, ta'mirlash yoki yangi asosiy resurslarni ishlab chiqarishga yo'naltiriluvchi pul ko'rinishidagi vositalar.

Amortizatsiya chegirmalari ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi va shu yo'l bilan narxga ko'chadi.

Ishlab chiqaruvchi sotilgan mahsulotlardan tushgan mablag' ichidan ushlab qolgan holda amortizatsiya chegirmalarini jamg'arishi kerak.

AMPLIATSIYA

Pul olinganligi haqidagi tilxatning nusxasi.

AMPLIFIKATSIYA (lot. amplificatio – rus. распространение, увеличение, o'zb. kengaytirish, oshirish, kuchaytirish)

Ko'p omilli iqtisodiy sistemada parametr va omillarning ta'sirini kuchaytirish.

AMVOL

Arabcha so'zdan olingan bo'lib, xususiy shaxsga qarashli mulk, mol-dunyo, kapital degan ma'noni anglatadi.

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
17 AXBOROT RESURS MARKAZI

№ _____

ANALIZ (TAHLIL) (yunon. analysis – rus. разложение, o‘zb. qismlarga ajratish)

Hodisa va jarayonlarni o‘rganilayotgan sistema elementlari, tarkibiy qismlarini o‘rganish asosida ilmiy tadqiq qilish usuli. Iqtisodiyotda analiz (tahlil) iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar, xo‘jalik faoliyatining barcha pog‘onalari (mamlakatda, tarmoqda, hududda, korxonada, xususiy tadbirkorlikda, oilada) va iqtisodiyotning turli sohalaridagi (ishlab chiqarish, ijtimoiy) mohiyati, qonuniyatlari va tendensiyalarini aniqlash maqsadida qo‘llanadi. Analiz iqtisodiy obyektlar va ularda kechuvchi jarayonlarni bashorat qilish, rejalashtirish, boshqarishning bosh nuqtasidir. Iqtisodiy tahlil iqtisodiyotdagi qaror va harakatlarni, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ilmiy nuqtayi nazardan asoslash va eng maqbul harakatni tanlashni ta‘minlashga qaratilgan. Makroiqtisodiy tahlil butun mamlakat iqtisodiyoti, barcha xo‘jalik tarmoqlarini va ijtimoiy sohani qamrab olishi mumkin.

ANALITIK SCHYOTLAR

Sintetik schyotlardagi ma‘lumotlarni tavsilotlab, aniqlashtirib ko‘rsatuvchi schyotlarga aytiladi.

ANALITIK HISOB -KITOB

Analitik schyotlar yordamida amalga oshiriladigan hisob.

ANARXIYA (BOSH-BOSHDOQLIK) – ANARXIZM (yunon. anarchia – rus. безначалие, безвластие, o‘zb. hukmronsizlik, bosh-boshdoqlik)

Insonlarning cheksiz erkinligi va tengligi to‘g‘risidagi nazariya. Garchi u J.J.Russo tomonidan taklif qilingan bo‘lsa-da, P.J.Prudonni mazkur nazariyaning otasi deb atashadi. Rossiyada M.A. Bakunin va P.A. Kropotkin har qanday majburlov va intizomga qarshi chiqish qilganlar. Bunday nazariyaning asosiy tamoyillari sinf (tabaqa)larning yo‘qotilishi, barcha insonlarning huquqlarini tenglashtirish, hukumatning yo‘q bo‘lishi, xususiy mulkni shaxsiy mulkka aylantirish (bunda har kim hech kimga o‘tkazilmaydigan va berilmaydigan muayyan mulkka egalik qiladi). Amaliyotda anarxiya o‘zini oqlamadi va uning asosidagi tamoyillar amalga oshmadi.

ANDERLAING

Opsion asosida yotuvchi va opsion shartnomasi shartlariga asosan oldi-sotdi qilish mumkin bo‘lgan qiymatbaho qog‘oz.

ANDERRAYTER (ingl. underwriter – rus. подписчик; o‘zb. obunachi)

1. Qimmatli qog‘oz operatsiyalari bo‘yicha makler.

2. Bank faoliyatida, qimmatbaho qog‘ozlar bozorida kelishilgan shartlarda maxsus mukofot evaziga emitentga aksiya yoki boshqa qimmatbaho qog‘ozlarning bozorda joylashtirilishini kafolatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

3. Sug‘urtada sug‘urta (qayta sug‘urta) shartnomalarini tuzish va sug‘urta majburiyatlari portfelini shakllantirish bo‘yicha mas‘ul yuridik shaxs bo‘lib, sug‘urta polisini imzolaydi yoki sug‘urta javobgarligini o‘z zimmasiga oladi.

ANDERRAYTING (ingl. underwriting – rus. подписание; o‘zb. yozilish, obuna bo‘lish)

Yangi chiqqan qimmatbaho qog‘ozlarning ilk bozorda sarmoyador kompaniyalar, banklar, yirik brokerlik firmalari tomonidan sotish va sotib olinishi, qimmatbaho qog‘ozlar joylashtirilishining keng tarqalgan usuli; qimmatbaho qog‘ozlarni joylashtirish bo‘yicha garant va emitent o‘rtasidagi shartnomaning nomi. Anderrayingda qator shartlar amal qilishi mumkin: sarmoyador kompaniya emitentdan qimmatbaho qog‘ozlarning butun nashrini belgilangan narxda sotib oladi va uni boshqa investorlarga qayta sotadi; sarmoyador (investitsion) kompaniya emitentdan qimmatbaho qog‘ozlarning joylashtirilmagan qismini sotib olish majburiyatiga ega; investitsion kompaniya joylashtirilmay qolgan qismini sotib olish majburiyatini qabul qilmagan holda qimmatbaho qog‘ozlarni joylashtirishda maksimum sa’y-harakatlarni bajarish majburiyatiga ega.

ANKETA (SO‘ROVNOMA)

Tadqiqotchilar, tahlilchilar tomonidan tuziluvchi, iqtisodiy, ijtimoiy tekshiruv o‘tkazish, jamoa fikrini o‘rganish imkonini beruvchi savollardan iborat so‘rovnoma.

ANKLAV

Mamlakatning boshqa bir mamlakat hududi bilan hamma tomondan o‘ralgan hududi yoki hududining bir qismi.

ANNUITET (lot. annuitas – rus. ежегодный платёж; o‘zb. har yillik to‘lov)

1. Muddatli davlat qarzlarning bir turi bo‘lib, unga ko‘ra har yil foizlar to‘lab boriladi va umumiy qarzning bir qismi yopiladi.

2. Olingan kredit, qarzni va u bo'yicha foizlarni to'lash uchun muayyan vaqt oralig'ida amalga oshiriluvchi, o'zaro teng pul to'lovlari.

ANNULYATSIYA (bekor qilish)

Aksiya yoki boshqa qimmatbaho qog'oz yo'qotilganda uning bekor qilinishi. E'lonning maxsus nashrda chop etilishi orqali amalga oshirilishi mumkin.

ANOMAL O'TISH (ingl. switch – rus. переход, переключение; o'zb. o'tish, ko'chish)

Bozor kon'yukturasiidagi anomal o'zgarishlardan foyda olish maqsadida sarmoyaning bir qimmatli qog'ozlardan boshqasiga ko'chirilishi.

ANONS

E'lon, xabar.

ANTIDATALASH (ANTISANALASH)

Hujjatni (vekselni) avvalgi sana bilan berish.

ANTIDEMPING BOJI

Tamojniya bojining turi bo'lib, mamlakat ichki bozoriga mahsulotlarning demping narxida olib kirilishidan himoyalaydi. O'z tannarxida import qilinuvchi yoki eksportni subsidiyalovchi davlatlardan olib kiriladigan tovarlardan undiriladi. Demping mamlakat milliy ishlab chiqarishiga moddiy zarar yetkazgan holatlarda qo'llanadi. Bojni hisoblash metodikasi tariflar va savdo to'g'risidagi umumiy bitimda ifodalangan.

ANTIMONOPOL (MONOPOLIYAGA QARSHI) QONUNCHILIK

Raqobatni rivojlantiruvchi, monopoliyani taqiqlovchi va cheklovchi, monopoliya tuzilma va birlashmalarining yaratilishiga, monopolistik harakatlarga to'sqinlik qiluvchi qonunlar va boshqa hukumat aktlari. Antimonopol faoliyatni tashkil etish maqsadida antimonopol qo'mitalar yaratiladi.

ANTIMONOPOL QO'MITALAR

Antimonopol faoliyat bilan shug'ullanuvchi qo'mitalar (tashkilotlar).

ANTIPATIYA (TAVAKKALGA QARSHI), ya'ni TAVAKKALCHILIKNI YOQTIRMASLIK

Muayyan, avvaldan natijasi ma'lum bo'lgan, natijalari hisob-kitob qilingan operatsiya va bitimlarni afzal ko'rish; yaxshiroq, ammo

tavakkalchilikka asoslangan iqtisodiy loyihalardan ko'ra matematik hisob-kitoblarga asoslangan va deyarli yo'qotishlarsiz deb sanaluvchi iqtisodiy loyihaning amalga oshirilishini tanlash.

ANTITREST QONUNCHILIGI

Raqobatni rivojlantiruvchi, monopoliyani taqiqlovchi va cheklovchi, monopoliya tuzilma va birlashmalarining yaratilishiga, monopolistik harakatlarga to'sqinlik qiluvchi qonunlar va boshqa hukumat aktlari. Antimonopol faoliyatni tashkil etish maqsadida antimonopol (antitrest) qo'mitalar yaratiladi.

ANTITSIPATSIYA

1. Voqealar rivojini oldindan taxmin qilish, bashorat qilish, ulardan zavq olish.

2. Keyinroq sodir bo'lishi kerak bo'lgan biror hodisaning muddatidan oldin yuz berishi, masalan qarzdorlik majburiyati bo'yicha to'lovni belgilangan muddatdan oldin amalga oshirish, tasdiqlanmasdan oldin huquqlardan foydalanish.

ANTREPRENERLIK (TADBIRKORLIK)

Bosh maqsadi daromad olish va o'z ishini rivojlantirishdan iborat bo'lgan, o'z hisobi yoki qarzga olingan vositalar hisobiga, javobgarlik va tavakkalni o'z zimmasiga olgan holda amalga oshiriluvchi tashabbusli iqtisodiy faoliyat.

AN'ANAVIY DEPOZIT INSTITUTLARI

Tijorat banklari, jamg'arma institutlari va kredit ittifoqlari.

APARSERIYA (ijara) (isp. aparseria – lot. partarius; o'zb. ishtirokchi)

Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida saqlanib qolgan chorakor ijaraning bir turi. Ijarachi ma'lum muddatga yer maydoni yoki chorvani oladi va mulk egasiga hosil yoki chorvachilik mahsulotlarining bir qismini (odatda yarmini) to'lashga majbur.

APELLATSIYA (lot. appellatio, – rus. обращение, – o'zb. murojaat)

Shaxslarning qabul qilingan farmon va qarorlarga nisbatan noroziligi bo'lib, asosan mazkur shaxslar ulardan aziyat chekishi yoki ularni noqonuniy, adolatsiz deb hisoblashi mumkin. Apellatsiya qarorni qabul qilgan tashkilotga nisbatan yuqoriroq turuvchi instansiyaga beriladi.

APORTLAR

Aksiyadorlik jamiyatiga korxonada aksiyalariga to'lov sifatida beriluvchi va pul shaklidagi to'lovga teng bo'lgan mulk.

APROBATSIIYA (tajriba-sinov)

Iqtisodiy jarayonlarga doir nazariy metodlar, hisob-kitoblar, sxema va modullarning real sharoitlarda, tajribada tekshirilishi.

ARALASH TADBIRKORLIK

Bitta yuridik shaxs va bir necha jismoniy shaxs mulkini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadigan faoliyat.

ARBITR

Ikki tomonning bahsini hal qilishga jalb qilingan, biror manfaatga ega bo'lmagan (xolis) vositachi.

ARBITRAJ (fr. arbitrage)

1. Chet el valyutasi, qimmatli qog'oz yoki mollarni bir bozorda bir vaqtning o'zida xarid qilish va boshqa bozorda (yuqoriroq narxda) sotish.

2. Narxning, foiz stavkalarining va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarning turli darajasidan turli birja markazlarida foydalanish bilan bo'ladigan manfaatli birja bitimi.

3. Munozaralarni hal etish usuli bo'lib, unga ko'ra bahslashayotgan tomonlarning boshqa, vaziyatga aloqador bo'lmagan, mustaqil arbitrlarga murojaat qiladilar va ular ekspert-sudya vazifasini bajaradilar.

4. Tashkilot, korxonada va muassasalararo mol-mulk masalasidagi munozaralarni hamda bitimdagi shartlar bajarilmasligi kabi munozarali holatlarni hal qiluvchi davlat organi.

5. Moliya bozorlarida amalga oshiriladigan oldi-sotdi operatsiyalarining xilma-xilligi.

ARBITRAJLASH

Foyda olishga qaratilgan hamda tovar, mol va resurslarni bir bozorda arzonroq narxda sotib olib, boshqa bozorlarda qimmatroq narxda sotish orqali amalga oshiriluvchi faoliyat.

Arbitrajlash bir tovarning turli bozorlardagi narxi turlichaligi hisobiga mavjud bo'ladi.

Agar tovarning bozorlardagi narxi tenglashsa arbitrajlash imkoniyatlari nolgacha pasayadi.

Odatda sof arbitrajlash qishloq xo'jaligi mahsulotlari, rangli metallar va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida uchraydi.

Savdolashuvchi mamlakatlar o'rtasida nisbiy ustunliklar mavjud bo'lgan holatlardagi xalqaro tovar savdosi arbitrajlashga misol bo'la oladi.

ARBITRAJ KOMISSIYALARI (HAY'ATLARI)

Birja qoshida ta'sis etilgan va kelishuvlar birjasida ro'yxatga olingan ishtirokchilar o'rtasida yuzaga keluvchi munozaralarni hal qilish bilan shug'ullanuvchi muassasa.

ASOSIY VOSITALAR

Moddiy ishlab chiqarish sohasida va ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan sohada uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) harakatda bo'ladigan hamda ijaraga topshirilib ham foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI

Asosiy vosita obyektlarining dastlabki imkoniyatlarini yo'qotganliklarini tasniflovchi jarayondir (jismoniy va ma'naviy).

AUDIT

Xo'jalik faoliyatini tekshirish, taftish va tahlil qilish.

AUDITNING MAQSADI

Taqdim qilinayotgan hisobotlar to'g'riligi, mavjud holatni aks ettirishi, uning qonuniyligi hamda moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi talablariga mos kelishini aniqlashdan iborat.

AUDITOR

Auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Agar auditor auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo'lsa yoki auditorlik tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnoma tuzgan bo'lsa, u auditorlik tekshiruvini o'tkazishga jalb etilishi mumkin.

AUDITORLIK FAOLIYATI

Auditorlik tashkilotlarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmat ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

AUDITORLIK TASHKILOTI

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.

AUDITORLIK TASHKILOTLARI

O'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir.

Auditorlik tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Adliya vazirligi auditorlik tashkilotlarining davlat reestrini yuritadi.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini o'zining fuqarolik javobgarligi xususidagi sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda auditorlik xizmati ko'rsatish to'g'risida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiradilar.

AUDITORLIK TEKSHIRUVI

Moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligini, qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda o'tkaziladi.

AUDITORLIK FAOLIYATI

Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish taqiqilanadi.

AUDITORLIK XULOSASI

Moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat.

Auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida tuziladi.

AUDITORLIK HISOBOTI

Auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy kengashiga yo'llangan hujjat. Auditorlik hisobotida aniqlangan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va takliflar mavjud bo'lishi kerak.

AUKSION

Dastlabki minimal o'rnatilishi va mazkur bazis narxning savdo vaqtida oshirilishiga asoslanuvchi kimoshdi savdo. Yakuniy narx savdo vaqtida xaridorlar tomonidan taklif qilingan oxirgi maksimal narx sifatida shakllanadi.

AUTSAYDER (ing. outsider – rus. чужой; o'zb. begona)

1. Monopolistik birlashmalarga kirmaydigan kichik va o'rtacha korxonalar.

2. Birja a'zosi bo'lmagan vositachi.

AVAL

Vekselning kafolati haqidagi belgi bo'lib, avalist oddiy yoki o'tkazilgan veksel bo'yicha ushbu veksel summasini to'liq yoki qisman to'lashga kafolat beradi. Aval vekselning ishonchliligini oshirishga mo'ljallangan.

AVALIST

Vekselni imzolagan yoki aval yozgan shaxslardan biri. Avalist vazifasini bank ham bajarishi mumkin.

AVANS

Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilishi rejalashtirilgan xizmatlar uchun umumiy to'lov summasidan ajratgan holda amalga oshiriluvchi dastlabki to'lov. Odatda avans shaklida umumiy to'lovning 10-40% hajmi taqdim etiladi. Avans xizmat ko'rsatuvchilarni ishga jalb etishga qaratilgan bo'lib, xizmat haqining to'lanishini kafolatlaydi, xizmat ko'rsatuvchining dastlabki xarajatlarini qoplaydi. Shartnoma buzilgan taqdirda avans to'liq yoki qisman qaytariladi.

AVANSLANGAN VOSITALAR

Ma'lum bir maqsadga erishish, oldindan ko'zlangan vazifalarni bajarish uchun ajratilgan yoki berilgan pul vositalari.

AVANSLANGAN KAPITAL

Biznesdan daromad kelib boshlashidan oldin ishga sarmoya qilingan moddiy boyliklar yoki pul ko'rinishidagi kapital. Bunday kapital odatda biror loyiha uchun uning keyinchalik amalga oshirilishi uchun ishlatiladi.

AVANSLASH

Kutilayotgan xarajatlar hisobidan vositalarni topshirish, avansni taqdim qilish.

AVANS TO'LOVI

Tovarlar, xizmatlar, ish uchun ularni qo'lga kiritish yoki bajarilishidan oldin to'lovni amalga oshirish, pul vositalarini kiritish.

Bu ishga hissadorlik qilishning shakllaridan biri bo'lib, avansni kiritgan firmaning aktivlariga qo'shiladi.

AVANS HISOBOTI

Avansning sarflanishini tasdiqlovchi hujjat. Unda qabul qilingan summa, aniq sarflangan xarajatlar, qoldiq mablag' yoki ortiqcha xarajat ko'rsatiladi.

Avans hisobotining yoniga amalga oshirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Avans hisoboti buxgalteriya tomonidan tekshiriladi, rahbar tomonidan tasdiqlanadi va berilgan avansni hisobdan chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

AVANTAJ (frans. *avantage* – rus. *передавать*; o'zb. *bermoq*)
Mablag', foyda.

AVERAJ (ingl. *averaging* – rus. *усреднение*)

Ma'lum bir muddatlarda kursning o'zgarish darajasiga qarab konkret ishlab chiqarish sanalaridagi aksiyalarni sotib olish yoki sotishdan iborat bo'lgan birja o'yini strategiyasi. Mazkur holatda mijoz (klient)ga ma'lum imtiyozlar taqdim etiladi.

AVERAJ MUDDATI

Kreditlarni bosqichma-bosqich to'lashning o'rtacha davrlari (oy, yarim yillik, yillik).

AVERS (frans. *avers*, lot. *adverms* – rus. *обращённый лицом*)
Tanga yoki medalning yuza qismi.

AVIAIPOTEKA

Kredit uchun kafolat sifatida samolyot yoki boshqa uchish moslamasi qo'yiladigan ipoteka kafolati (zalogi).

AVIZO (ital. *aviso*)

Bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob harakatlarining bajarilganligi to'g'risida rasmiy xabarnoma. Bir konragent tomonidan ikkinchisiga jo'natiladi.

Avizo yordamida banklar o'z mijozlarini hisob varaqalari bo'yicha kirim va kredit qaydlari, hisob varaqasidagi qoldiq mablag'lar, pul o'tkazmalarini to'lash, chek talabnomasi akkreditiv ochish va boshqa harakatlar to'g'risida xabardor qiladi.

Tovar jo'natuvchi tomonidan tovarni qabul qiluvchiga tovar jo'natilgani haqidagi xat ham avizo deb ataladi.

Pul vositalarining harakati yuzasidan rasmiy pochta yoki telegraf xabarnomasi, ogohlantirishi.

Masalan, agar bank sarmoyachining buyurtmasiga binoan pul vositalarini bir hisobdan boshqa hisobga o'tkazgan bo'lsa, u buyurtmachini avizo yordamida xabardor qiladi.

AVISTA (ital. a vista – rus. по предъявлении)

1. To'lov muddati ko'rsatilmagan va istalgan vaqtda to'lovni amalga oshirish uchun taqdim qilinishi mumkin bo'lgan veksel.

2. Istalgan muddatda to'lov amalga oshirilishi mumkinligi to'g'risida veksel yoki boshqa biror qimmatli qog'ozdagi belgi.

AVTARKIYA (yunon. autarkeia – rus. самоудовлетворение; o'zb. ichki mamnuniyat).

Mamlakat yoki hudud tomonidan amalga oshiriladigan o'z-o'zini iqtisodiy boshqarish siyosati. Avtarkiya yopiq, mustaqil, o'z-o'zini ta'minlashga qodir iqtisodiyotni shakllantirishga yo'naltirilgan. Avtarkiya natural xo'jalikka yaqin turadi.

AVTOKRATIYA (yunon. autokrateia – rus. самодержавие, самовластие; o'zb. mustaqil boshqaruv)

Bir shaxsning hukmronligiga asoslangan tashkilot, iqtisodiyotni boshqarish usuli.

AVTOMATLASHTIRISH

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson mehnatini yengillashtirish maqsadida qo'l mehnatining siqib chiqarilib, ishlab chiqarishga texnika va texnologiyalarning tatbiq etilishi. Boshqaruvni avtomatlashtirish ishlab chiqarish va iqtisodiyotni boshqarishda axborot almashinishda kompyuter va boshqa texnika vositalaridan foydalanishga yo'naltirilgan.

AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV SISTEMASI

Insonning aqliy faoliyati hamda hisoblash texnikalari, zamonaviy axborot vositalari yordamida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar, mantiqiy operatsiyalari o'zaro muvofiq ke'luvchi kibernetik sistemalar. Avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemasi ishlab chiqarish, transport, qurilish va boshqa iqtisodiy obyekt va jarayonlarni boshqarishda ishlatiladi.

AVTOMATLASHTIRILGAN INFORMATSION SISTEMALAR

Hisoblash texnikalari, kompyuter axborot tarmoqlari va aloqa kanallaridan foydalangan holda axborotni qidirish, saralash, jo'natish, saqlash sistemasi.

AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O'RNII (AIO')

AIO' deb, texnik jihatdan kompyuter va boshqa zaruriy texnik vositalar bilan jihozlangan va xodimning bajaradigan ish faoliyatining bir qismini avtomatlashtirishga imkon beradigan ish o'rniga aytiladi.

AVTOMATIK STABILIZATORLAR

Ishlab chiqarilgan milliy mahsulot darajasining talabning o'zgarishiga bo'lgan reaksiyasini avtomatik tarzda yumshatuvchi iqtisodiy mexanizmlar.

AVTOMOBIL SOLIG'I

Avtotransport vositalari egalaridan mahalliy soliqlar ko'rinishida undiriladigan va yo'llarning holatini yaxshilashga safarbar qilinadigan yig'im.

AVTOMOBIL TARIFI

Avtomobil transporti vositasida tashish xizmatlari to'lovi tarifi.

AVTONOM BUDJETLAR

Yirik hududiy va xo'jalik tashkilotlari, markaziy budjetlarga qaraganda nisbiy erkinlik va mustaqillikka ega bo'lgan hududlar, xo'jaliklar, fondlarning mustaqil budjetlari (daromad va xarajatlar smetasi).

AVTONOMIYA (yunon. autos, cam nomos – rus. закон, o'zb. qonun)

O'z-o'zini boshqaruv, boshqaruvchilar ma'lum huquq va mustaqil boshqaruv imkoniyatlariga ega bo'lgan hududlar, tashkilotlarda boshqaruvni tashkil etish shakli.

AVTONOM KAPITAL SARMOYALAR

Umumiy kapital sarmoyalarning mikroiqtsodiy omillar bilan emas, balki makroiqtisodiy omillar bilan belgilanuvchi qismi. Bunday sarmoyalar iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini stabillashtiruvchi davlat sarmoyalari sirasiga kiritiladi.

AVTONOM TARIF

Mamlakat hukumati tomonidan qonunchilikka muvofiq o'rnatilgan tamojnya tarifining bir turi; unga kelushuv tarifiga qaraganda yuqoriroq stavkalar xosdir.

AVTORITAR KAPITALIZM

Asosiy resurslar xususiy mulk tasarrufida bo'luvchi iqtisodiy sistema, hukumat esa keng masshtablarda iqtisodiy jarayonlarni yo'naltiradi va boshqaradi.

AVUARLAR

Bankning o'z hisobidagi va uning topshirig'iga muvofiq moliyaviy operatsiyalarni bajaruvchi chet el korrespondent-banklari hisobidagi, chet el valyutasi shaklidagi pul vositalari; mamlakat, davlatning chet eldagi vositalari, mablag'lari xorijiy avuarlar deb ataladi. Avuarlar hisobiga chet elda istalgan turdagi to'lov majburiyatlarini amalga oshirish mumkin.

AXBOROTLAR BAZASI

Shaxsiy kompyuter ichidagi axborot ta'minotining asosi bo'lib, to'planishi, saqlanishi, izlanishi, o'zgartirilishi, belgilangan tartibda taqdim qilinishi va undan foydalanuvchi insonning shaxsiy kompyuter bilan muloqot qilishi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar to'plami.

AXBOROTLAR MASSIVI

Axborot tizimi, tashkilot hamda undagi jarayonlar haqidagi ma'lumotlar yig'indisiga aytilib, u biron-bir masalaga (quyi tizimga) tegishli bo'lgan axborotlar to'plamining tuzilmaviy birligini bildiradi.

AXBOROT TA'MINOTI

Axborot tizimi tarkibidagi tasniflash va kodlashning yagona tizimi bo'lib, hujjatlarni unifikatsiya qilish tizimi, tashkilotdagi mavjud axborot oqimlarining sxemasi va ma'lumotlar bazasini yaratish metodologiyasidan iborat bo'lgan majmuadir.

AHOLI PUL JAMG'ARMALARI

Bu aholining iste'mol maqsadlariga vaqtincha ishlatilmay bo'sh turgan, kredit muassasalarining birida yoki aholining o'z qo'lida yig'ilgan daromadlarining bir qismidir.

B

BADAL

1. Biror narsa evaziga to'lanadigan haq.
2. Biror tashkilot, jamiyat kabilarga a'zo bo'lgan shaxsning o'z jamiyatini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida unga to'lab turadigan puli, a'zolik haqqi.

BAHO

1. Narsaning, mol-mulkning pul bilan ifodalangan qiymati.
2. Ahamiyat, qadr-qiymat.

3. Hozirgi vaqtda o'quv yurtlarida o'zlashtirish darajasiga qarab qo'yiladigan ball.

4. Tovarlarni pulga ayirboshlash me'yorida.

BAHOLASH

Bank farmoyishida bo'lgan mulkni va har bir xo'jalik operatsiyani pul shaklida baholash.

BALANS

Bank mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari holatini pul shaklida guruhlash va aks ettirish usulidir.

Davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-moliyaviy jihatlariga tatbiqan olganda: respublika budjeti, mahalliy budget daromadlari va xarajatlarining rejalashtiriladigan yoki yakuniy o'zaro nisbatini; tegishli hududdagi tarmoqlar va umuman xalq xo'jaligi ishining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zaro nisbatini; mol-mulkning tegishli organlar tasarrufida (mulkida) turishini (balansda bo'lish iborasi shundan kelib chiqqan) anglatishi mumkin.

BALANS AKTIVLARI

Tashkilot buxgalterlik balansining bir qismi bo'lib, unda tashkilotga taalluqli bo'lgan moddiy va nomoddiy boyliklarni pulda ifodalaydi.

BANK

Bank – pul mablag'larini (omonatlarni) to'plovchi, kreditlar (qarzarlar, ssudalar) beruvchi, pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi, pullar va qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi (emissiya qiluvchi), davlatlar, korxonalar, muassasalar va alohida shaxslar o'rtasidagi o'zaro to'lovlar va hisob-kitoblarda vositachilik qiluvchi alohida iqtisodiy institutdir. Bank – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxs. Yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish, to'lovlarni amalga oshirish shunday faoliyat turlari jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi. Bank tizimi va banklar faoliyatining asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Banklar

O'zbekiston Respublikasida o'z filiallarini, chet el banklari esa o'z vakolatlarini Markaziy bankning ruxsati bilan ochishlari mumkin.

BANKNOT

Bank biletlari, markaziy emissiya banklari tomonidan chiqariladigan pul belgilari. Hozirda ular qog'oz pullarning asosiy turi hisoblanadi.

BANKNOTA

Bankning qarz majburiyatidir. Hozirgi vaqtda banknota markaziy bank tomonidan veksellarni qayta hisoblash, turli kredit tashkilotlari va davlatni kreditlash yo'li bilan chiqariladi.

Banknotalar, ya'ni kredit pullarning shunday turini muomalaga chiqarilishini odatda banklar turli xo'jalik jarayonlari munosabati bilan amalga oshirilayotgan kredit operatsiyalarini bajarishda o'tkazishadi.

Kredit pullarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning muomalaga chiqarilishi muomalaning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, kredit operatsiyalari ishlab chiqarishning real jarayonlari va mahsulotlarning sotilishi munosabati bilan bajariladi.

BANK AKSIYADORI

Bank aksiyalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxs.

BANK AKKREDITIVI

Bankning mijoz topshirig'iga ko'ra uning hisobidan topshiriqnomada ko'rsatilgan shartlarda va summa doirasida jismoniy va huquqiy shaxslarga to'lovlar o'tkazish majburiyati.

BANK AKSEPTI

Bankning to'lov hujjatlarini to'lashga rozilik bildirishi, ularning to'lanishini kafolatlash shakli.

BANK AMALIYOTI

Bank amaliyoti – bu joriy yoki boshqa hisobvaraqqa pul qabul qilish, foizi bilan yoki foizsiz kreditlar berish, birja topshiriqlarini bajarish, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar sotib olish, mijozlarning topshiriqlarini bajarish, tovarlar yoki tovar hujjatlari garovi hisobiga ssudalar berish, shuningdek boshqa har qanday pulli va naqd pulsiz hisob-kitoblarni bo'yicha amalga oshiriladigan jarayonlar yig'indisidir. U asosan passiv (kreditlash uchun resurslar hosil qilish) va aktiv (foyda olish maqsadlarida bu resurslarni ishlatish) turlarga bo'linadi.

BANK BINEFISIAR

To'lov operatsiyasini yakunlovchi bank.

BANK BOSHQARUVI

Bank faoliyatini tashkil etadi va unga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi, markaziy bank litsenziyasi asosida bankning ustavdagi maqsadlari va vazifalari bajarilishini ta'minlaydi; bank mijozlariga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha foiz stavkalari va vositachilik haqi miqdorlarini ishlab chiqadi va bank Kengashi bilan kelishib oladi.

BANK DEPOZITI

Xususiy shaxs, korporatsiya, davlat tashkiloti nomidan bankka saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari.

BANK DISKONTI

Bankning veksellarni hisobga olish operatsiyalari uchun belgilangan hisob foizi.

BANK FAOLIYATINING SUBYEKTLARI

O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan hamma banklar bank faoliyatining subyektlaridir.

BANK FILIALI

Uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo'linmadir.

Filiallarning rahbarlarini ularni tashkil etgan bankning rahbari Markaziy bank bilan kelishib tayinlaydi.

BANK HISOBVARAG'I

Bu bank hisobvarag'i shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisobvara q egasi) hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini qabul qilish, mijozning hisobvarag'idagi tegishli mablag'larni o'tkazib berish va hisobvarag'i bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risidagi farmoyishlarni bajarish vazifalarni o'z zimmasiga olishi natijasida bank bilan mijoz o'rtasida vujudga keladigan munosabatlardir.

BANK INITSIATOR (TASHABBUSKOR BANK)

To'lov operatsiyasini boshlovchi bank.

BANK ISHTIROKIDAGI QIMMATLI QOG'OZLAR KOMISSIYASI

Qimmatli qog'ozlarni mijozdan o'z mablag'lari hisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotish nazarda tutiladi.

BANKLARARO HISOB-KITOBLAR

Moliya tizimida asosiy o'rin tutadigan, ko'pchilik moliya operatsiyalarini amalga oshirish va iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi hisob-kitoblarning barcha shakllarini o'tkazishga imkon beruvchi yopiq tizimdir.

Chunki ularga mustaqil tashkilotlar sifatidagi banklarning tijorat siriga rioya qilish zarurati yuklanadi. Hozirgi kunda SWIFT banklararo hisob-kitob tizimi amal qiladi

BANKLARARO OBOROTLAR

Bir bank xizmatidan foydalanuvchi korxonaning talab qiluvchiga saqlanadigan hisobvarag'idan boshqa hisobvarag'iga hujjatda ko'rsatilgan summa buxgalteriya yozuvlari orqali o'tkaziladi.

BANKLARARO OPERATSIYALAR

Banklar shartnoma asosida mablag'larni depozitlar, kreditlar shaklida bir-birlaridan jalb etishi va bir-biriga joylashtirishi, tashkil etiladigan hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda litsenziyada nazarda tutilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni bajarishi mumkin.

BANKLARNI NAZORAT QILISH

Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib boradi.

Markaziy bank tijorat banklaridan axborot berishni talab qilishga va ushbu qonunga rioya qilish maqsadida boshqa ishlarni amalga oshirishga haqlidir.

Banklar faoliyatini tekshirish Markaziy bank tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

BANKLARNI RO'YXATGA OLISH VA ULAR FAOLIYATINI LITSENZIYALASH

Banklar Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar.

Ro'yxatga olish tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Ro'yxatga olish bilan bir vaqtda banklarga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya topshiriladi.

Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish haq evaziga amalga oshiriladi.

Banklarning filiallari Markaziy bankda ro'yxatga olinadi va o'z faoliyatlarini ularni tashkil etgan bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

BANKLARNING ITTIFOQLARI VA UYUSHMALARI

Banklar, basharti, qonun hujjatlarining talablariga zid kelmasa, o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, o'z a'zolari manfaatlarini himoya qilish va birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish uchun ittifoqlar, uyushmalar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin.

Bunday birlashmalar mustaqil ravishda tijorat faoliyati, shu jumladan, bank faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, ular tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar uchun belgilab qo'yilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

BANKLARNING MUSTAQILLIGI

O'zbekiston Respublikasida banklar bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildirlar.

Bank xizmatchisi bank boshqaruvining roziligi bilan o'rindoshlik asosida boshqa joyda ishlashi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari bank muassasalarida o'rindoshlik asosida ishlashga haqli emaslar.

BANKLARNING FONDLARI

Banklar o'z foydalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda turli fondlar tashkil etishlari mumkin.

BANKLARNING CHET ELLARDAGI FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

Banklar Markaziy bankning ruxsati bilan chet ellarda o'z sho'ba banklarini, filiallari va vakolatxonalarini ochishlari, banklar tashkil etishda qatnashishlari mumkin.

BANKLAR AUDITI

Banklarning faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlar tomonidan har yili tekshirib turilishi lozim.

Audit, xususan, kapitalning yetarliligini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, tavakkalchilikni va likvidlikni o'lchashni o'z ichiga oladi.

Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ichki auditorlik dasturlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari ham shart.

BANKLAR FAOLIYATINI LITSENZIYALASH

Bank, shu jumladan, chet el banki, O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro'yxati ko'rsatiladi.

Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat budjetiga olib qo'yilishi lozim.

BANKLAR INSPEKSIYASI

Bank nazoratining bevosita joylarda banklarning haqiqiy moliyaviy ahvolini va bank faoliyatiga o'ziga xos bo'lgan xavf-xatarlarini aniqlash maqsadida bank faoliyatini nazorat tartibida tekshirishni ko'zda tutuvchi turi(uslubi)dir.

BANKNING BOSHQARUV ORGANLARI

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruv organlari hisoblanadi.

Bank kengashining burchlari quyidagilardan iborat:

omonatchilar va aksiyadorlarni himoya qilish maqsadida bank faoliyatini, shu jumladan, kreditlash va mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligini nazorat qilish;

bank rahbarlarini ishga tayinlash va ishdan bo'shatish;

bank kapitalining bir tekis o'sib borishini ta'minlab turish;

bank siyosatini ishlab chiqish;

qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash.

Bank kengashi a'zolari kamida besh kishidan iborat bo'lishi lozim. Aksiyadorlardan tashqari bank sohasi olimlari va mutaxassislari ham bank kengashi a'zosi bo'lishlari mumkin.

Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordir.

BANKNING FOIZ STAVKASI

Kreditning "narxi"dir. Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga, shu jumladan, resurslarni ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'larda foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan xarajatlarni qoplaydi.

BANKNING USTAV KAPITALI

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi.

Kreditga va garovga olingan mablag'lardan hamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun budjet mablag'laridan foydalanilishi mumkin.

Eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro'yxatga olish paytigacha to'lanishi kerak. Ustav kapitali uchun to'lanadigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankida yoki boshqa banklarida ochilgan jamg'arish hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanish mumkin.

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

BANKNI TUGATISH

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy vorislik tartibida va majburiyatlar o'tmagan holda bank faoliyatini tugatish tushuniladi.

BANKOMATLAR

Bu ko'p vazifalarni bajaruvchi avtomatlar yoki magnitli plastik kartalarni boshqaruvchi avtobankdir.

BANK KAPITALI

Banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig'indisi, banklarning muomalaga tushirgan pul kapitallari majmuyi (o'ziniki bo'lgan va jalb etilgan vositalar). Bank ishiga qo'yilgan bank kapital bank foydasini yaratadi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda banklar kapitali sanoat kapitali bilan birlashib ketishi natijasida moliya kapitali paydo bo'lgan.

BANK KAFOLATI

Kafil banklar (garant banklar)ning o'z mijozlari majburiyatlarini zimmasiga olishi. Mijozlar qarzlarini o'z hisobidan va o'z muddatida to'lay olmagan hollarda banklar ularning topshirig'iga ko'ra va ularning hisobidan majburiyatlarni zimmasiga oladi. Qarz tegishli ta'minot (garov) asosida bank tomonidan to'lanadi. Kafil banklarning kreditor yoki importyorning kontrakt bo'yicha to'lov majburiyatlari ijrosini pul shaklida ta'minlashi (avansni qaytarish, savdo kelishuvi, yoki kontrakt shartlarini bajarish va boshqalar) keng tarqalgan to'lov kafolatlariga kiradi.

BANK KLIRINGI

Banklarning o'zaro talabnoma va majburiyatlarni hisobga olish asosida mollar, qimmatli qog'ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimi.

BANK KREDITI

Kreditning asosiy shakli bo'lib, bunda pul mablag'lari vaqtincha ishlatilish uchun banklar tomonidan taqdim etiladi. Hozirgi vaqtda bank tomonidan kreditlashning obyektlari va sohalari tubdan o'zgardi. Faqat davlat mulki hisoblangan banklar tomonidan amalga oshirilgan sobiq bank kreditlash tizimidan farqli ravishda, hozirgi vaqtda bunday kreditlash huquqi mulkchilikning turli shakllaridagi tijorat banklariga berilgan.

Bank krediti – pul egalari, banklar va boshqa kredit institutlari tomonidan ishlab chiqaruvchilarga hamda boshqa qarz oluvchilarga pul shaklida beriladigan ssudalardir.

Bank kreditining obyekti – pul kapitalidir.

Bank kreditida ishlab chiqaruvchi shaxslar (faoliyat ko'rsatuvchilar) faqat qarz oluvchi sifatida ishtirok etadilar, kreditorlar bo'lib esa ssuda kapitali egalari hisoblanadilar.

BANK MENEJMENTI

Bu bank faoliyati va uning xodimlari faoliyatiga maqsadli ta'sir etish jarayoni hisoblanadi.

BANK MONOPOLIYALARI

Konsentratsiyalashuv natijasidagi biror davlatdagi bank ishlarining bir necha yirik banklar qo'lida to'planishi. Moliya kapitali bozoridagi taklifda raqobatning bo'lmasligi bilan tavsiflanadi. Masalan; 1962-yil Angliyada bank kapitali umumiy miqdorining 90% besh bankka tegishli bo'lgan, 1968-yil AQShda rasman mustaqil hisoblanadigan 14 ming bank bo'lgan, lekin jami bank amaliyotlarining 25 % 10 ta yirik tijorat banki hissasiga to'g'ri kelgan, 1995-yilda esa AQShdagi eng yirik hisoblangan «Cheyz of Manxeggen» va «Kemikl» banklari o'zaro qo'shilib ketdi.

BANK MUASSISLARI

Banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari bo'lishi mumkin, basharti, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, davlat

hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari bundan mustasno. Har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ishtirokining eng ko'p ulushi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Banklarning aksiyalarini olish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar.

Bankning boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va sho'ba banklar tashkil etish hollari, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno.

BANK OPERATSIYALARI

Banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshiradilar:

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;

omonatlarni jalb etish;

kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatliligi sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

Banklar boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin, chunonchi:

mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;

chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;

pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;

uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;

uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish; jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish, moliyaviy lizing, xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Banklar bevosita ishlab chiqarish, savdo va sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emaslar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

BANK RESURSLARI

Banklarning ixtiyorida bo'lgan va ular tomonidan kredit, investitsiya va boshqa aktiv operatsiyalari uchun foydalaniladigan mablag'larning yig'indisi.

Banking o'z mablag'lari va qarzga olingan hamda jalb etilgan mablag'laridan hamda emitentlashgan mablag'laridan iborat bo'lgan mablag'lardir.

BANK SIRI

Banklar o'z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda jamg'armalariga doir ma'lumotlar sir saqlanishiga kafolat beradi. Bankning barcha xizmatchilari bank, uning mijozlari va vakillarining bank operatsiyalari, hisobvaraqlari va jamg'armalariga doir ma'lumotlarni sir saqlashlari shart.

Yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlarning operatsiyalari hamda hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar ana shu tashkilotlarning o'ziga, prokuror, sudlarga, jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotnomalar mijozlarning o'ziga va ularning qonuniy vakillariga; mijozlarning hisobvaraqlari va omonatlarida turgan pul mablag'lari hamda boshqa qimmatbaho narsalar xatlanishi, ularga undiruv qaratilishi yoki mol-mulk musodara etilishi mumkin bo'lgan hollarda yuritilayotgan ishlar bo'yicha sudlar, surishtiruv va tergov organlariga beriladi. Hisobvaraqlar va omonatning egalari vafot etganda ushbu hisobvaraqlar hamda omonatga doir ma'lumotnomalar mazkur hisobvaraq yoki omonat egasi bankka topshirgan vasiyatnomasida ko'rsatgan shaxslarga, vafot etgan omonatchilarning jamg'armalariga doir meros ishlarini yuritayotgan davlat notarial idoralarga, chet el fuqarolarining hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar esa chet el konsullik muassasalariga beriladi.

Banklar pul mablag'leri yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizمنى moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq bo'lgan axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

Xizmat burchi yuzasidan bank axborotidan xabardor bo'lgan shaxslar xizmat sirini oshkor qilganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Banklar o'z mijozlari bo'lgan korxonalarining operatsiyalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni soliq organlarining so'roviga binoan ular soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'liq va to'g'ri to'layotganliklarini nazorat qilish uchun taqdim etadi. Banklar kredit axborotini kredit byurolariga kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma asosida taqdim etadi.

BANK SSUDASI

Bankning foiz to'lovi sharti bilan kreditga berilgan pul mablag'i. Qisqa, o'rta va uzoq muddatli turlarga bo'linadi. Bank ssudasining to'lov ssudasi, veksellar hisobi, tovar hujjatlari va qimmatli qog'ozlar evaziga beriladigan investitsiya maqsadlaridagi turlari bor.

BANK STATISTIKASINING O'RGANISH OBYEKTI

Kredit muassasalarida bo'ladigan yalpi voqea va hodisalar hisoblanadi. Kredit muassasalariga yuklatilgan funktsiya ular bajaradigan jami operatsiyalari bilan bog'liqdir.

BANK TIZIMINING BOSH MAQSADI

Jahon talabiga mos keluvchi rivojlangan kredit tizimiga ega bo'lish, xo'jaliklar va aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talabini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat.

BANK USTAVI (NIZOMI)

Banklar o'z ustavleri asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Bank ustavi (nizomi)da:

bankning (to'la va qisqartirilgan) nomi va qayerda joylashganligi (pochta manzili);

bank operatsiyalarining ro'yxati;

ustav kapitalining miqdori, muassislar ro'yxati va ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimoti;

bankning boshqaruv organleri, ularni tashkil etish tartibi, ularning vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma'lumotlar;

bank auditi tartibi, shu jumladan, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Bank ustavida, ushbu moddada belgilangan talablardan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar ham bo'lishi kerak.

Bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirishlar belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

BANK VEKSELI

Biror korxonaning mazkur bankka vekselda ko'rsatilgan summada depozit qo'yganini tasdiqlaydigan qimmatli qog'ozidir.

BANK XATAR SIYOSATI

Bu banklarning maqsadga erishish yo'lida qilgan tadbirlari hisoblanadi. Har bir bank o'zining xavfsizligini ta'minlash maqsadida himoya tadbirlarini o'tkazadi.

BARTER BITIMI

Bitta shartnoma asosida turli xil tovarlarni pulsiz almashtirish.

BENEFITSIAR BANK

Bu to'lov operatsiyasini yakunlovchi bank.

BIZNESNI AVANSLASH

Biznesmen tomonidan biznes-loyihalar, biznes-operatsiyalar amalga oshirish, shartnomalarni bajarish uchun pul vositalarining olinishi. Avanslash loyiha (tovar) buyurtmachisi, potensial xaridor, importer, davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar, shuningdek mazkur biznesni amalga oshirish va yakuniy natijalarni qo'lga kiritishdan manfaatdor bo'lgan konkret shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Mohiyatan biznesni avanslash biznes rejani amalga oshirish, muayyan ish yoki topshiriqni bajarishga jalb qilingan tomon amalga oshiradigan oldindan to'lovni anglatadi.

BIRJA DILERI

Qimmatli qog'ozlar, mollar va valyuta birjasida oldi-sotdi savdo bitimlarida vositachilik qiluvchi shaxs yoki firma.

BIRIKTIRILGAN DAROMADLAR

Bu to'laligicha tegishli budjetlarga kelib tushadigan daromadlardir. Misol uchun, tashkilotlarning mulk solig'i mahalliy budjetga birlashtirilgan.

BIRLAMCHI DILER

Qimmatli qog'ozlar bitimlarni amalga oshiruvchi birlamchi taqsimot ishtirokchisi.

BIZNES

Daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo'jalik faoliyati yoki tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish.

Biznes mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

BIZNES-REJA

Aniq vaziyatda biznesning mohiyati, boshlanish imkoniyati, davomi va uning kengaytirilishi aks etadigan hujjat.

BOJ

O'lpon, soliq, to'lov. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlardan boshlab bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, ichki nizolar kuchaygan vaqtda bir viloyatdan o'tish uchun, shuningdek ichki bozorlarda savdogarlardan olingan maxsus to'lov, o'lpon.

BOJXONA XIZMATLARI

Davlat organlari tizimi bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topgan: Davlat bojxona qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi boshqarmalari, maxsus bojxona komplekslari, bojxona kompleksi va postlari.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi 1997-yil 30-iyulda tasdiqlangan Nizomga ko'ra, DBQ organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va belgilangan vakolatlar doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

- respublika boj siyosati ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida qatnashish;

- boj qonunlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ko'maklashish;

- xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash;

– boj poshlinalari, soliqlar va boshqa boj to‘lovlarini undirish;

– respublikaning boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, valyuta - moliyaviy munosabatlarini tartibga solish vositalarini ishlab chiqish va samarali qo‘llash;

– O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o‘tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona tekshiruvini ta‘minlash;

– respublikaning bojxona chegarasi orqali tovar o‘tishini jadallashtirishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlar yaratish;

– kontrabandaga, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish, respublikaning bojxona chegarasi orqali giyohvandlik moddalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog‘, valyuta boyliklari, milliy boylik hisoblangan badiiy, madaniy-tarixiy va arxeologik meros buyumlari, intellektual mulk obyektlari g‘ayriqonuniy olib o‘tilishining oldini olish va hokazo.

Davlat bojxona qo‘mitasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tayinlanadigan Rais boshchilik qiladi.

BOZOR

Sotuvchi bilan xaridor o‘rtasida mahsulotni ayirboshlash munosabati; mahsulotlar bilan oldi-sotdi munosabatlari, mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot ayirboshlash va pul muomalasi qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Bozorda ikki jarayon amalga oshadi: biri mahsulotlarni sotish, bunda mahsulot pulga almashadi. Ayirboshlash ixtiyoriy va erkin shakllangan narxlarda olib boriladi.

Ayirboshlash obyektining moddiy shakl jihatidan olganda, iste‘mol mahsulotlari va xizmatlar, ishlab chiqarish vositalari, investitsiya, qimmatbaho qog‘ozlar, ilmiy g‘oyalar, texnikaviy ishlanmalar va mehnat bozorlari mavjud.

Ayirboshlash miqyosi jihatidan mahalliy, hududiy, milliy va jahon bozori, ichki va tashqi bozorlarga ajratiladi.

BOZOR TAHLILI

O‘z mahsulotlarining bozordagi sotilishini yaxshilash maqsadida bozor kon’yukturasini, narx dinamikasini, iste‘molchilar xatti-

harakatlarini, talab va taklifni, mahsulot va xizmatlar bozorini o'rganish.

BOSHQARUV APPARATI

Mamlakat, hudud, korxonalar, firma, tashkilot singari masshtablarda boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi organlar, bo'linmalar, qismlar.

BOSHLANG'ICH BANK OBOROTLARI (Aylanmalari)

Operatsiyalarni boshlagan bankdagi oborotlar (aylanmalar).

BOSHLAG'ICH NARX

Sotib olingan asosiy vositalarning qiymati va obyektlarni ekspluatatsiyagacha topshirilgan xarajatlari hisoblanadi.

BOSHLANG'ICH QIYMAT

Bu asosiy vositani sotib olish uchun yoki uni qurish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, shu jumladan, to'plangan soliqlar bo'xona bojlari va yig'implari hamda yetkazib berish, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bevosita aktivdan belgilangan maqsadda foydalana olish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa barcha xarajatlarning summasidir.

BROKER

Qimmatli qog'oz, mol-mulk va valyuta birjalarida bitim tuzish paytida vositachilik bilan shug'ulanuvchi shaxs yoki firma.

BROKERLIK OPERATSIYALARI

O'z mijozlarining topshiriqlariga binoan banklar komissioner sifatida harakat qilib, komission operatsiyalarini amalga oshirishi, ya'ni o'z nomidan mijozning hisobidan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga oid bitimlarni tuzishi mumkin.

Bunda bank mijozning hamma ko'rsatmalarini, jumladan, bitim tuzish va uning o'rniga kursni cheklashga oid ko'rsatmalarini bajarishi lozim hamda komission haq olishga, mijozning topshirig'ini bajarishda qilingan qo'shimcha sarf-xarajatlarni kompensatsiyasiga haqlidir.

BROKERLIK JAMG'ARMALARI

Mijoz va broker o'rtasida shartnoma tuzish asosida vujudga kelgan jamg'armalar. Bunday shartnomalar asosan uzoq muddatli hisoblanadi.

BROKERLIK FIRMASI

Qimmatli qog'ozlar yoki mol-mulklar oldi-sotdisida vositachilik qiluvchi firma.

BUXGALTER

Buxgalter qonun-qoidalarga rioya qilgan holda savdo va hisobga olish daftarlarini yurituvchi shaxs.

BUXGALTERIYA BALANSI

Ma'lum bir muddatga xo'jalik mablag'lari holati haqida pul shaklida umumlashgan ma'lumotlar olish uchun xizmat qiladi. Balansda bank (korxon va tashkilot) mablag'larining joylanishi va tarkibi, mablag'lar manbalarining tashkil topishi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

BUXGALTERIYA HISOBI

Korxonaning xo'jalik yuritish hujjatlari asosida, uzluksiz va o'zaro bog'liq holda xo'jalik faoliyatini qiymat ifodasini aks ettirish. Buxgalterlik hisobining predmeti korxonaning pul shaklda ifodalangan xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va xo'jalik jarayonlari hisoblanadi.

BUXGALTERIYA HISOBINING OBYEKTALARI

Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, o'z kapitali, rezerv, daromad, xarajatlar.

BUXGALTERIYA HISOBINING SUBYEKTLARI

Davlat boshqaruv organlari, boshqarmalar, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

BUXGALTERIYA HISOBINING REGISTRALARI

Jurnallar, qaydnomalar, kitoblar, ikkiyoqlama yozuv orqali olib borish uchun tasdiqlangan blankalar.

BUXGALTERIYA JURNALI

Bankda operatsion kun davomida hamma operatsiyalarning debeti va krediti bo'yicha oborotlar (aylanmalar)ni qayd etish uchun mo'ljallangan jurnaldir. Operatsion kuni tugagandan so'ng bir balans hisobi bo'yicha oborotlar yig'indisi hisoblab chiqiladi. Bu yerda debet bo'yicha barcha hisoblar kredit aylanmalariga to'g'ri kelishi kerak.

BUXGALTERIYA NAZORATI

Aktivlarning saqlanishini va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashga yo'naltirilgan, muayyan tarzda shakllantirilgan hujjat hisoblanadi.

BUDJET

Davlat va mahalliy boshqaruv organlari vazifalarini bajarishlari uchun shakllanadigan pul-moliya mablag'larining turi; davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy

ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini to'lash va sarflash shaklidir.

BUDJETDAN MABLAG' AJRATISH

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budjetidan budjet tashkilotlariga hamda boshqa budjet mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari.

BUDJET DOTATSIYASI

O'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

BUDJET FEDERALIZMI

Markaz va hududlarning o'rtasidagi budjet munosabatlarini ifodalaydi. Bu budjet tuzilmasidagi nisbatan murakkabroq muammodir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, mahalliy budjetlar daromadlari birlashtirilgan va tartibga soluvchi daromadlar, dotatsiya, subvensiya va budjet ssudalaridan tashkil topishi lozim.

BUDJET HUQUQI

Moliya huquqining bir qismi, davlatning budjeti tuzilishini, turli darajalardagi budjetlarni, ularning daromad qismini shakllantirish va budjet mablag'larining sarflanishi, shuningdek umuman davlatning budjet-moliya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish tartibini belgilovchi huquqiy normalar majmui.

BUDJET IJROSI

Uning daromad qismida prognozlashtirilgan to'lovlarning har bir manba bo'yicha o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini ta'minlash, shuningdek, uning xarajat qismida rejalashtirilgan barcha tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirishdir.

BUDJET JARAYONI

Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish, ijrosi yuzasidan nazoratni olib borish, ijrosi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash jarayondir. Shuningdek, Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun bilan tartibga solingan jarayoni ("Budjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 3-moddasining 3-xatboshisi).

BUDJETLARARO MUNOSABATLAR

Davlat boshqaruv organlari va mahalliy boshqaruv organlari orasidagi budjet mablag'larini taqsimlash va qayta taqsimlash borasidagi barcha munosabatlar.

BUDJETNI REJALASHTIRISH

Bu muayyan davr uchun budjetga kelib tushadigan mablag'lar, ularning manbalari va qonunda belgilangan miqdorda turli budjetlararo taqsimlanishi va shu davrda budjetning xarajati bilan bog'liq aniq vaqti va maqsadlari belgilangan xarajatlarning yo'nalishlarini o'rnatilishidan iborat harakatlar majmuasidir.

BUDJET OLUVCHI

Budjet mablag'lari boshqaruvchisi, bevosita olingan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshiruvchi.

BUDJET PROFITSITI

Muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

BUDJET SSUDASI

Yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

BUDJET SUBVENSIYASI

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

BUDJET SO'ROVI

Budjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va budjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov;

BUDJET TASNIFI

Daromadlar, xarajatlar va budjet taqchilligini qoplash manbalarini o'xshashlik ko'rsatkichlariga ko'ra, budjetni tuzish ijro etish va nazoratini amalga oshirish uchun guruhlashning qonun bilan tasdiqlanadigan me'yorlari.

Budjet tasnifi davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdan iboratdir.

Budjet tasnifi Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida budjet ma'lumotlarini tizimga solish

uchun foydalaniladi va u budget ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi.

BUDJET TASHKILOTI

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budgetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

BUDJET TAQCHILLIGI

Muayyan davrda budget xarajatlarining budget daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

BUDJET TASNIFI

Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdir.

BUDJET TIZIMI

Turli darajadagi budgetlar va budget mablag'lari oluvchilar yig'indisi, budgetlarni tashkil etish va tuzish prinsiplarini, budget jarayonida ular o'rtasida, shuningdek budgetlar hamda budget mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni ifoda etadi. 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Budget tizimi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

BUDJET VAKOLATLARI

Turli vazirliklar, qo'mitalar, idora va muassasalarga ularning budget mablag'laridan xarajatlarni belgilangan miqdorda xarajat qilish huquqlari.

BUDJET YOYILMASI (ROSPIS)

Budget ijrosi jarayonida, daxldor budgetning daromadlar va xarajatlarning budget tasnifiga ko'ra choraklar bo'yicha taqsimlanishi.

BUDJET TIZIMINING ASOSIY PRINSIPLARI

Budget tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: budget tasnifi tizimi, hisob-budget hujjatlari va budget jarayoni tuzilishining

yagonaligi; budget tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi; turli darajadagi budgetlarning o'zaro bog'liqligi; Davlat budgeti balansliligi; davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlari (moddalari) bo'yicha rejalashtirish; Davlat budgeti xarajatlarini budgetdan ajratiladigan, tasdiqlangan mablag' doirasida sarflash; barcha darajadagi budgetlarning mustaqilligi.

BUDJET TRANSFERTI

Budgetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan, qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

BUDJET TUZILMASI

Davlat budgeti va mamlakat budget tizimini tashkil etish, budget tizimiga kiruvchi alohida budgetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, turli darajadagi budgetlarning faoliyat ko'rsatishini huquqiy jihatdan ta'minlash, budgetlarning tuzilishi va tarkibi, budgetlarning daromadlarini shakllantirish hamda budget mablag'larining sarflanish jarayonlarini o'zida aks ettiradi.

D

DAROMAD

Ishlab chiqarish omillarini ishlatishdan keladigan pul va natural tushumlar.

Xususiy daromad – alohida jismoniy shaxsning daromadi;

Milliy daromad – milliy ishlab chiqarishdan keladigan daromad; iqtisoddagi va barcha turdagi daromadlar jamg'armasi. U ish haqini, rent daromadini, korporatsiya daromatlari qiymatidan keladigan sof foiz va boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi. Yana yalpi milliy mahsulot bilan asosiy kapitalni iste'mol xarajatlari va qo'shimcha soliqlar tafovuti sifatida aniqlanadi.

Egalikdagi daromad – sektorlarning xarajatlari va jamg'armasi uchun egalik qiladigan daromadlari bevosita soliqlarning ayirmasi sifatida aniqlanadi.

Omil daromadi – ishlab chiqarish, ishchi kuchi, kapital va mulk omillarini ishlatishdan keladigan daromad.

DAVLAT BANKI

Qarang. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

DAVLAT BUDJETI

Davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

Davlat budjeti respublika budjetini; Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

Davlat budjeti daromadlari: 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'img'lar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar; 2) davlatning moliyaviy va boshqa aktivlari joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan, qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi: 1) budjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida; 2) joriy budjet transfertlari shaklida; 3) kapital xarajatlar shaklida: asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga; chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga; davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga; davlat zaxiralarini vujudga keltirishga; 4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari shaklida; 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga beriladigan budjet ssudalari shaklida; 6) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida; 7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida; 8) qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING TASNIFI

Qonun hujjatlariga muvofiq daromadlarni turlari va manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi.

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARI

Bir tomondan vakolatli davlat organlari va ikkinchi tomondan turli mulkchilik shaklida xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yig'indisi. Bir vaqtning o'zida davlat budjetining daromadlari – markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarining ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag'lari hisoblanadi.

DAVLAT BUDJETINING XARAJATLARI

Bir tomondan vakolatli davlat organlari va ikkinchi tomondan tashkilotlar, muassasalar hamda mamlakat aholisi o'rtasida mamlakatdagi markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarining ishlatilishi jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarning yig'indisi.

DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGINI MOLIYALASH-TIRISH

Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag'larni jalb qilish; respublika budjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari; qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Davlat budjeti mablag'lari turli darajadagi budjetlar o'rtasida quyidagi yo'llar bilan qayta taqsimlanadi: yuqori budjetlardan quyi budjetlarga budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalari berish; budjet ijrosi jarayonida paydo bo'lgan o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni yuqori budjetdan quyi budjetga, shuningdek, quyi budjetdan yuqori budjetga yo'naltirish; budjet ssudalari ajratish.

Davlat budjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi (tasdiqlanadi).

DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGINI MOLIYALASH-TIRISH MANBALARI TASNIFI

Taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi.

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING TASNIFI

Xarajatlarni funksional, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan tasniflashdan iborat.

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING VAZIFA JIHATIDAN TASNIFI

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa budjet tashkilotlari tomonidan ijro

etiladigan asosiy vazifalar bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING TASHKILYI TASNIFI

Budjetdan ajratiladigan mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING IQTISODIY TASNIFI

To'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

DAVLAT ICHKI QARZLARI

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

DAVLAT QISQA MUDDATLI OBLIGATSIYALARI

Foiz stavkasi bozoridagi talab va taklif bilan belgilanadigan, uch oylik muddatga qoplanadigan qimmatli qog'oz bo'lib, investorlarni o'ziga jalb qiladi, ya'ni pulning qadrsizlanishi va nisbatan uzoq muddatli kreditlar bilan bog'liq xavfdan xoli bo'lib, belgilangan daromadni olish imkoniyatini beradigan qimmatli qog'oz.

DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI

Davlat qarz majburiyatlari, obligatsiyalar va shu kabilar majmuidan iborat bo'lib, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning vaqtinchalik bo'lib turgan mablag'larini jalb qilish uchun hukumat tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

DAVLAT KREDITI

Markazlashgan moliyaning asosiy qismi. Har bir alohida olingan davlatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatning yo'qligi, budjet taqchilligi mavjudligi natijasida davlat katta miqdordagi pul mablag'lariga ehtiyoj sezadi. Yuzaga chiqqan salbiy holatning oldini olish maqsadida vakolatli davlat organlari pul emissiyasining oldini olish, inflyatsiyani zarur darajada ushlab turish maqsadida davlat kreditidan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasida mavjud *budget taqchilligini* qoplash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat kreditining shakli hisoblangan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) va davlat o'rta muddatli xazina majburiyatlari (DO'MXM)ni

muomalaga chiqarmoqda va ularning faqatgina yuridik shaxslar o'rtasida joylashtirilishini amalga oshirib kelmoqda.

Davlat krediti vaqtincha davlat tasarrufiga tushadigan va iqtisodiyotni rivojlantirish, budget taqchilligi va boshqa ehtiyojlarning ustuvor yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan qo'shimcha pul mablag'larining to'planishini ta'minlaydi.

Davlat kreditida davlat qarz oluvchi, yuridik va jismoniy shaxslar esa qarz beruvchi (kreditor)lar sifatida namoyon bo'ladi. Davlat krediti vositasida yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etish turli shakllarda, avvalambor, davlat zayomlari, pul majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorining yuzaga kelishi sharoitlarida davlat kreditining muhim shakli yuridik shaxslar orasida joylashtiriladigan davlat qisqa muddatli zayomlari hisoblanadi.

Davlat krediti mablag'lari takror ishlab chiqarishda ishtirok etmaydi, ya'ni ular moddiy qiymatliklar ishlab chiqarishda qatnashmaydi, faqat budget defitsitlarini qoplash maqsadida foydalaniladi.

DAVLAT MAQSADLI BUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARI

Davlat budgeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

DAVLAT MAQSADLI BUDJETDAN TASHQARI IJTIMOIIY JAMG'ARMALARI

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi; O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi.

DAVLAT MAQSADLI BUDJETDAN TASHQARI IQTISODIIY JAMG'ARMALARI

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasi; O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasining maxsus hisobvarag'i.

DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI

Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'laridan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

DAVLAT MOLIVAVIY SIYOSATI

Pul mablag'larining markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish, shuningdek jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydigan, moliyaviy nazorat bo'yicha tarmoqlararo xususiyatga ega bo'lgan davlat faoliyatining alohida turidir.

DAVLAT MOLIVAVIY FAOLIYATI TAMOYILLARI

Faoliyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini o'zida mavjud bo'lgan mezonlar vositasida aks ettiradigan g'oyalar va asosiy qonun-qoidalarning mantiqan tartibga solingan tizimi.

Bunda shuni nazarda tutish lozimki, moliyaviy faoliyatning bir necha tamoyillari mavjud bo'lib, ularning har biri mazkur faoliyat obyektiv qonuniyatlarining majmuyini emas, balki ulardan faqat ayrimlarinigina aks ettiradi. Ayni vaqtda barcha tamoyillar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir, chunki ular bir hodisa – davlat moliyaviy faoliyatining turli tomonlariga taalluqlidir. Shu sababli ulardan bir butun holda foydalanish kerak. Ayrim tamoyillarni e'tiborsiz qoldirish boshqa tamoyillarning buzilishiga olib keladi. Davlat moliyaviy faoliyati tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlab berilgan.

Moliya huquqiga oid adabiyotlarda davlat moliyaviy faoliyati tamoyillarining turlicha tasniflari mavjud. Ularda ko'pincha qonuniylik, rejalashtirish, oshkoralik va boshqa tamoyillar ajratiladi.

DAVLAT MONOPOLIYASI

Ma'lum tovarlar ishlab chiqarish, muayyan faoliyatni amalga oshirish bo'yicha davlatning yagona egalik qilish huquqi. Davlat monopoliyasi ko'pincha spirtli ichimliklar ishlab chiqarish, ularni sotish va olib kirish (import qilish)ga hamda umuman tashqi savdoga (har qanday mahsulotni import va eksport qilishga) joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasida «davlat monopoliyasi» tushunchasi qo'llanmagan. Ammo ma'lum faoliyat turlarini davlat mutlaq vakolatlariga kiritish orqali uning

tegishli sohalardagi (masalan, energetika tizimlari, yadro energetikasi, parchalanuvchi materiallar, kosmosdagi faoliyat, zaharli moddalar va giyohvandlik moddalari ishlab chiqarish va b.) monopoliyasi belgilab qo'yiladi.

Davlat o'z monopoliyasi bo'lgan faoliyat turlarini yashirin amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi. O'zbekiston Respublikasida davlat mulki hisoblanadigan va uning tasarrufida bo'lgan, xususiylashtirilishi va sotib olinishi mumkin bo'lmagan boyliklar, korxonalar, mol-mulk turlari hamda guruhlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan (1995-yil 31-avgust) belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi 1996-yil 27-dekabrda Qonuni monopolistlar tomonidan hukmronlik mavqeyini suiiste'mol qilishning oldini olish va monopoliyadan chiqarish, sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadlarini ko'zlaydi.

DAVLAT SOLIQLARI

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni o'z ichiga olgan soliqlar.

DAVLAT STATISTIKA TASHKILOTI

O'zbekiston Respublikasida joylashgan va faoliyat ko'rsatayotgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar olish ishlarini olib boradi.

DAVLAT TASHQI QARZI

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

DAVLAT TOMONIDAN ICHKI MABLAG'NI JALB QILISH

Aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlarining vujudga kelishi.

DAVLAT TOMONIDAN XORIJDAN MABLAG' JALB QILISH

Aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlarining yuzaga kelishi.

DAVLAT QARZI

Davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

DAVRIY MOLIYAVIY NAZORAT

Muayyan hisobot davri uchun tuzilgan rejalar, smetalar, me'yorlar va buxgalteriya hujjatlari, ishlab chiqarish, hisobotlarning ma'lumotlari, hisob registrlari, hisobotlar hamda boshqa manbalardagi ma'lumotlar asosidagi tekshirishdir.

DAROMADLAR KONTINGENTI

Ma'lum mintaqada (viloyat va tumanda) budjet daromadining aniq turi bo'yicha yig'implari.

DASTLABKI MOLIYAVIY NAZORAT

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining xo'jalik moliya faoliyatini boshlashdan oldin olib boriladigan nazorat shakli.

DASTURLI-MAQSADLI BUDJETLASHTIRISH

Budjetni rejalashtirish va ijro etishning shunday tizimiki, bunda amalga oshirilgan xarajatlar bu xarajatlardan kutilayotgan natijalar bilan bevosita bog'lanadi va ularning ijtimoiy, iqtisodiy samarasi oldindan baholanadi.

DEBET

Ikki tomonlama jadvalga ega bo'lgan buxgalteriya hisobi (schyoti)ning chap tomoni. Pul mablag'lari va mol zaxiralarini qayd qilish uchun ishlatiladigan schyotlarning debet tomonida hisobga olinayotgan boylikning haqiqiy summasi va har oy mobaynida kelib tushgan miqdori ko'rsatiladi. Mablag'larning manbalari, harakati va

holatini qayd qiluvchi schyotlarning debet tomonida esa o'sha manbalarning kamayishini aks ettiruvchi xo'jalik jarayonlari yoziladi.

DEBITOR

Korxonaga, tashkilot yoki muassasalardan qarzi bo'lgan huquqiy yoki jismoniy shaxs.

DEBITOR QARZ

Korxonaning o'zaro munosabatlar natijasida jismoniy yoki yuridik shaxsga qaytarishi zarur bo'lgan barcha qarzlari summasi.

DEFITSIT TURLARI

Tuzilmaviy, davriy, aktiv, passiv va birlamchi defitsitlar.

DEPO

Kredit muassasalarida saqlashga topshirilgan qimmatli qog'ozlar va boyliklar.

DEPONENT (lot. deponentus so'zidan olingan – rus. откладывать; o'zb. olib qo'yimoq, zaxiraga qo'yimoq)

1. Bankka omonatini qo'ygan jismoniy yoki yuridik shaxs.
2. Fuqarolarning nomiga yozilib, o'z vaqtida to'lanmagan pul miqdori (summa).

DEPOZIT

Bankda aniq muddat davomida, muayyan foiz bilan tutib turiladigan va ushbu hisobvaraqdagi mablag'lardan foydalanish yuzasidan cheklanishlar amal qiladigan hisobvaraqlar depozitlar deyiladi.

DEPOZIT BANKI

Pul mablag'larini, qimmatli qog'ozlarni va boshqa boyliklarni saqlash bilan shug'ullanuvchi bank.

DEPOZIT INDOSAMENTI

Depozitlarni boshqaga o'tkazish haqidagi o'tkazma.

DEPOZIT OPERATSIYALARI

Banklarning kredit institutlarning pul mablag'larini omonatga jalb qilish va joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar.

DEPOZIT MUASSASI

Pul mablag'larini, qimmatli qog'ozlar va boshqa boyliklarni saqlash bilan shug'ullanuvchi muassasa.

DEPOZIT MULTIPLIKATORI

Bankka qo'yilgan mablag'larning har bir pul birligidan umumiy daromad hajmining o'zgarishi.

DEPOZIT SERTIFIKATI

1. Bu inglizcha «syertificat of dyepozit» soʻzidan olingan boʻlib, u pul mablagʻlari omonatga qoʻyilganligi toʻgʻrisida, omonatchiga belgilangan muddat tugaganidan keyin depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasasining guvohnomasidir.

2. Kredit muassasasining pul mablagʻi saqlashga topshirilganligi haqida omonatchining depozitni olish huquqini tasdiqlovchi yozma guvohnomasi.

DEPOZITARIY

Depozitlarni saqlash ishonib topshirilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

DEPOZITARIY BANK

Depozitlarni saqlash ishonib topshirilgan bank.

DENOMINATSIYA

Valyutani barqarorlashtirish va hisob-kitoblarni osonlashtirish maqsadida pul belgilarining koʻrsatilgan qiymatini yiriklashtirish. Bunda eski pul belgilari yangilarga almashtirib boriladi, shunga muvofiq narx-navo va ish haqi qayta hisoblanadi.

DEFLYATSIYA

1. Ortiqcha qogʻoz pulni muomaladan chiqarib olish yoʻli bilan pul koʻlamini kamaytirish;

2. Pul-kredit bozoridagi narx-navoning asta-sekin pasayishi yoki koʻtarilishi.

DEHQON XOʻJALIGI

Oila aʼzolarining shaxsiy mehnati asosida, oila boshligʻiga meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishiga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotishni amalga oshiradigan oilaviy mayda tovar xoʻjalikdir.

DEVALVATSIYA

Mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan kamayishi.

DEVIZLAR

Chet el valyutasida ifodalangan xalqaro hisob-kitoblarda qoʻllaniladigan kredit hamda toʻlov hujjatlari (veksel, chek, oʻtkazmalar va h.).

DILER

Qimmatli qog'ozlar va valyuta oldi-sotdi savdo bitimlarida vositachilik qiluvchi shaxs yoki firma.

DILER BANK

Qimmatli qog'ozlar, mollar va valyuta oldi-sotdi savdo bitimlarida vositachilik qilish huquqiga ega bo'lgan bank.

DILERLIK KREDITI

Bank, diler vositachiligida uning hisobidan beriladigan kredit.

DILERLIK FIRMASI

Qimmatli qog'ozlar va valyuta oldi-sotdi savdo bitimlarida vositachilik qiluvchi firma.

DINOR

VII-X asrlarda Osiyoning musulmon davlatlarida, Shimoliy Afrika va Ispaniyada bo'lgan asosiy pul birligi.

DIRHAM, DIRAM

VII-XIV asrgacha Osiyoning musulmon mamlakatlarida, Shimoliy Afrika va Ispaniyada bo'lgan asosiy pul birligi – kumush tanga; misqol (4,8 gr.)ning o'ndan yetti qismi, 3,36 gr.ga teng kumush yoki miss pul. Dirham Hindistonda Boburiylar davrida XVI asrda ham zarb qilingan.

DISKONT

1. Qimmatli qog'ozning amaldagi narxi bilan qiymat qoplanishi paytidagi narxi yoki belgilangan qiymati o'rtasidagi farq.

2. Valyutaning kelgusi kursi bilan darhol yetkazib berilgan paytidagi kursi o'rtasidagi farq.

Diskont (ing. discount)

1. Veksellarni hisobga olish.

2. Qimmatli qog'ozning mazkur paytdagi narxi bilan puli qaytarib olingan paytdagi yoki nominal narxi o'rtasidagi farq;

3. Forvard kurs bilan valyutani shoshilinch yetkazib berish paytidagi kurs tafovuti;

4. Aynan bir tovarning turli muddatlarda yetkazib berilishi bilan bog'liq narxlar o'rtasidagi tafovut;

5. Birja bitimlarida tovar sifati shartnomada ko'rsatilganidan past bo'lganda uning narxiga qo'yilgan chegirma;

6. Valyuta bitimlarida valyuta kursining rasmiy kursdan pasayish tomonga og'ishi.

DISKONTLI KREDIT

Markaziy bank tijorat banklariga foiz evaziga ajratadigan kredit.

DISKONT (FOIZ) SIYOSATI

Veksellarni hisobga olish. Chegirma (narxini tushirish), foizli chegirmalarni hisobga olish stavkasi tushuniladi.

DQMO BOZORI

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozori – davlat budjetining taqchiligini noinflyatsion yo‘l bilan qoplash maqsadida chiqariladigan qisqa muddatli obligatsiyalar sotiladigan va sotib olinadigan bozor.

DIVIDENLAR

Aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlashga mo‘ljallangan daromadning bir qismi.

Dividendlarning oshirilishi aksiya narxining oshishini va, o‘z navbatida, qo‘shimcha aksiyalarni sotish hamda o‘z sarmoyasini ko‘paytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi.

DIREKTIV MOLIYA MEXANIZMI

Direktiv moliya mexanizmida asosan davlatning vakolatli organlari tomonidan moliya munosabatlari ishlab chiqiladi. Ushbu moliya munosabatlariga soliqlar, yig‘imlar, davlat krediti, budjet xarajatlari, budjetdan moliyalashtirish, budjet tuzilmasini tashkil etish, budjet jarayoni, budjetlararo munosabatlar hamda moliyaviy rejalashtirish kiradi.

Direktiv moliya mexanizmida davlatning vakolatli organlari jamiyatda moliya munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan tartib-qoidalar tizimini juda puxta va mukammal holda ishlab chiqadi. Ba‘zan mazkur mexanizm davlat bevosita ishtirok etmaydigan moliya munosabatlarini o‘z tarkibiga kiritishi mumkin. Bunga qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyatini misol qilib keltirish mumkin.

DOTATSIYA

O‘z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

DO‘STONA VEKSELLAR

Pulsiz, real tijorat bitimi bilan bog‘liq bo‘lmagan, kontragentlar tomonidan bunday veksellarni banklarda hisobga olish yo‘li bilan pullarni olish maqsadida bir-biriga yozib beradigan veksellardir.

EGASINING NOMI YOZILGAN QIMMATLI QOG'OZLAR

Mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi, o'z egasining ro'yxatdan o'tkazilishini talab etadigan qimmatli qog'ozlar.

ELEKTRON PULLAR

Banklarning kompyuteri xotirasidagi hisob varaqalaridagi pullar bo'lib, ularning tasarruf qilinishi maxsus elektron qurilma yordamida amalga oshiriladi. Elektron asosdagi to'lovlar tizimining ommalashuvi pul muomalasi evolyutsiyasining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini tasdiqladi.

“ELEKTRON HUKUMAT” TIZIMI

Davlat korxonalari, vazirlik va korxonalarining umumiy portallari va saytlarini o'z ichiga olgan, aholi va tashkilotlarning ehtiyojlarini qoplash va ularga qulaylik, samaradorlik keltirishi uchun ochiq holda yaratilgan majmuaviy tizim. Bunda aholi va tashkilotlar o'z uyida yoki o'z ish o'rnida kompyuter tarmog'i orqali davlat tashkilotlarining “Veb-sayt”laridagi axborotlaridan qulay va tez foydalanishi, kerakli ma'lumot, soliq to'langanligi to'g'risidagi ma'lumot yoki boshqa turdagi axborotlarni elektron pochta orqali olmog'i, aholining bu sohadagi axborotlarni izlab turli tashkilotlarga murojaat qilishga ketadigan vaqt va sarmoyalari xarajatini kamaytirishi ko'zda tutilgan. Bu “Veb-sayt”larda turli axborotlar, hukumat qarorlari, turli yo'riqnomalar, soliqlar stavkalari va hokazo kabi axborotlar joylanishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda turli vazirlik va korxonalarining bu kabi “Veb-sayt”lari aholiga katta tejamkorlik va qulaylik tug'dirmoqda.

EMISSIYAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR

Bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar.

EMISSIYAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQA- LISHLARINING YAGONA DAVLAT REESTRI

Ro'yxatdan o'tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining ro'yxati.

EMITENT

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs.

EMITENTNING OPSIONI

Emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini opsionda ko'rsatilgan muddatda qat'iy belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

F

FAKTORING

Banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning korxonalar qarzlarini (yetkazib berilgan va bajarilgan xizmatlarga haq to'lash bo'yicha majburiyatlarini) o'z zimmasiga olishidan iborat bo'lgan moliyaviy-tijorat xizmat turi.

FAKTORING KOMPANIYASI

Korxonalar va tashkilotlarning yetkazib berilgan mollar va bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash bo'yicha majburiyatlarini o'z zimmasiga oluvchi kompaniya.

FIRMA

Italyanча so'zdan olingan bo'lib, «imzo» degan ma'noni anglatadi. Yuridik shaxs huquqlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan xo'jalik, sanoat va savdo korxonalari yoki mustaqil faoliyat yuritadigan shahobcha.

FIRMA NOMI

«Bank» atamasi yoki mazkur atama qo'shib yasalgan so'z birikmalarini ushbu Qonunga muvofiq bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar o'z firma nomida yoki reklama maqsadlarida ishlatishlari mumkin.

Ushbu talabni buzish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

FOIZ

Hissa, ustama, qo'shimcha foyda.

FOIZ SVOPI

Bu ikki tomon o'rtasidagi shartnomaviy kelishuvdir, masalan, tijorat banki va uning mijozlari bilan oldindan kelishib qo'yilgan soxta summadagi foiz to'lovidir. Yoki bir tomon ikkinchi tomonga olingan

summaga soxta foiz to'laydi va boshqa tomondan suzib yuruvchi foiz stavkasi orqali pul oladi, odatda, bu Libor stavkasi (har kunlik o'rta foiz stavkasi) orqali olib boriladi.

FOND BIRJASI

Ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtda va belgilangan joyda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs.

FOYDA

Daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq.

FOIZLI MARJA

Aktiv va passiv operatsiyalar foiz stavkalari o'rtasidagi farq.

FORWARD SHARTNOMASI

Kelishilgan miqdordagi xorijiy valyutani bitim tuzilayotgan vaqtda kelishib olingan kursda muayyan muddatdan so'ng yetkazib berish haqidagi shartnoma.

FYUCHERS

Bitim tuzilganidan so'ng muayyan vaqt o'tgandan keyin, mol yoki aksiya uchun shartnomada belgilangan narxda pul to'lashni ko'zda tutuvchi muddatli bitim turi.

FYUCHERS SHARTNOMASI (BITIMI)

Xom-ashyo mollari, oltin, valyuta, moliya va kredit vositalarini bitim tuzilgan paytda belgilangan narxda xarid qilish va sotishdan iborat bo'lgan muayyan vaqtdan (2-3 yilga qadar) keyin ijro etiladigan muddatli bitim shartnomasi (bitimi).

FYUCHERS FOIZ STAVKALARI (foiz fyuchersi)

Bu moliyaviy fyuchers bo'lib, bu maxsus fyuchers bozorlari – fyuchers birjalarida savdo obyektini sifatida xizmat qiladi. Ular jahonning asosiy tijorat va moliyaviy markazlarida joylashgan.

G

GAROV

1. Aniq bir majburiyatni, shartni bajarish, qarzni belgilangan vaqtda qaytarishni kafolatlash maqsadida qimmatbaho buyum yoki boylukni qarz beruvchiga qoldirish.

2. Biror narsa yoki hodisa haqida bahslashuvchi ikki tomon o'rtasidagi shart.

GUMONLI KREDITLAR

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, ssudaning to'liq qaytishi gumonli. Ssuda muddatiga nisbatan haqiqiy qaytish darajasi hali aniq emas. Zarar ko'rish ehtimoli yuqori, lekin kelgusida bu aktivlarning sifatiga ijobiy ta'sir etadigan omillarning mavjudligi uchun ularni zarar keltiruvchi deb tasniflash holati aniqlashtirilgunicha kechiktiriladi.

GURUHLARGA AJRATISH

Guruh belgilariga qarab hodisalarni (ma'lumotlarni) ajratish demakdir. Guruhlarni amalga oshirishda guruhlar soni va intervali aniqlanadi. Masalan, guruh intervali bu belgining maksimal va minimal darajasi o'rtasidagi farqidir.

H

HAMKORLIKDAGI BANKLAR

Sarmoyasi aksiyadorlarga qarashli bo'lib, lekin aksiyalarning bir qismi davlatga ham tegishli bo'lgan banklardir. Bular jumlasiga Avstriya, Yaponiya va Shveysariya markaziy banklari kiradi.

HUDUDIIY MOLIIAVIY REJALAR

Mahalliy budjetlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, tumanlar budjetlari va boshqalar) kiradi. Barcha moliyaviy rejalar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Moliyaviy rejalar majmuyini yagona tizimga birlashtirish O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti orqali amalga oshirilib, u mamlakat moliyaviy rejasining asosi hisoblanadi

HUJJATLI NAZORAT

Bu buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishi, hisobot shakllarining to'g'ri tuzilishi va to'ldirilishi ustidan nazoratdir.

I

IJARA BERUVCHI

O'z mulkini ma'lum vaqtga beradigan mulkdor, shu jumladan, chet el jismoniy va yuridik shaxs ham bo'lishi mumkin.

IJTIMOIIY ZARURIIY VAQT

Tovarlarning aksariyat qismini yaratishga sarflangan vaqt bo'lib, o'rtacha texnik darajasi, o'rtacha mehnat malakasi va mahorati, o'rtacha mehnat shiddati (intensivligi) sharoitidagi sarfini bildiradi.

IKKIYOQLAMA YOZUV USULI

Bank operatsiyasi summasining ikki marta schyotlar (hisob raqamlari)da aks ettirilishi.

IMTIYOZLI AKSIYALAR

Oldindan belgilangan dividendlarni olish huquqini beruvchi, ammo boshqaruv huquqidan mahrum qiluvchi aksiyalar.

INDEKS

Solishtirishning nisbiy ko'rsatkichi yoki nisbiy ko'rsatkichlarning bir turi hisoblanadi.

INDEKSATSIYA

Majburiyatlar bo'yicha to'lovlarning narx-navo ko'rsatkichi bilan o'zaro nisbatini belgilash; pul talabnomalari va turli daromadlarining haqiqiy miqdorini inflyatsiya sharoitida saqlab qolish usuli.

INDEKSATSIYA QILINADIGAN DEPOZIT

Qiyamatiga inflyatsiya darajasini qo'shib hisoblash orqali belgilangan qiymati aniqlangan depozit.

INDEKSATSIYA QILINGAN QARZ

Qiyamatiga inflyatsiya darajasini qo'shib hisoblash orqali belgilangan qiymati aniqlangan qarz.

INDOSSAMENT

Vekselning orqa tomonida yoki qo'shimcha varaqda aks ettirilgan o'tkazma yozuv bo'lib, bu yozuv orqali veksel egasi boshqa bir shaxsga vekselni hamda veksel bo'yicha undan to'liq foydalanish huquqini topshiradi.

INDOSSANT

O'zining vekselga egalik huquqini boshqaga o'tkazgan shaxs.

INDOSSAT

Vekselga egalik huquqini qabul qilib oluvchi shaxs.

INFLYATSIYA

Lotin tilidan olingan bo'lib, «shishish, ko'pchish, ko'tarilish» degan ma'noni anglatadi.

Pulning qadrsizlanishi; pulni me'yordan ko'p ishlab chiqarilishi oqibatida pul harakati kanallarida mol bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

Mol va xizmatlar bahosining o'sishi, bozorda talabga javob bermaydigan mollarning ko'payishi, ortiqcha pul birliklarini muomalaga chiqarish inflyatsiyaga olib keladi.

INKASSO

1. Xalqaro savdodagi hisob-kitoblar shakllaridan biri.

Unga muvofiq bank o'z mijozining topshirig'iga ko'ra jo'natilgan mollar va xizmatlar uchun hisob-kitob hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larini haq to'lovchidan oladi hamda bu mablag'larini o'z mijozining bankdagi hisobraqamiga o'tkazadi.

2. Bankning mol yetkazib beruvchi tomonidan to'lovchining to'lovini olish majburiyatini bajarishi borasida bo'ladigan hisoblar tartibi.

INKASSO TOPSHIRIQNOMASI

Korxonalar va tashkilotlarning o'z hisobiga mablag' o'tkazishi lozim bo'lgan paytlarda tuziladigan hisob-kitob hujjati. Inkasso topshiriqnomasi bankka qo'yilayotganda o'sha hujjatdagi summani tasdiqlovchi kerakli hujjatlarining asli yoki nusxasi bo'lishi shart.

INTERVENSIYA

Markaziy bank va davlat xazinasining kredit, qimmatli qog'ozlar, milliy hamda xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish yo'li bilan moliya-kredit hamda valyuta sohasiga aralashuvi.

INVENTARIZATSIYA

Dalillar asosida tashkilotning boyliklari butligi ustidan o'tqazildigan nazorat usulidir.

Bunda haqiqatda qolgan asosiy vositalar, tovar-moddiy qiymatliklar, pul mablag'lari qoldiqlari va hisob-kitoblarning holati bilan muayyan sana bo'yicha buxgalteriya hisobi ma'lumotlari solishtiriladi va farqlar topiladi.

INVESTITSIYA

1. Lotincha so'zdan olingan bo'lib, «kiyintirmoq» degan ma'noni angalatadi. Biror ish, korxonaga sarmoya solish, mablag' sarflash.

2. Daromad olish maqsadida pul mablag'larini biror ishga qo'yishdir.

INVESTITSIYA AKTIVLARI

Qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e'tirof etiladigan boshqa mol-mulk.

INVESTITSIYA PORTFELI

Mablag'larni uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga sarflash.

INVESTITSIYA PULI

Investitsiyalar umumiy fondi.

INVESTISIYALARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH

Mablag'larni turli sohalarga sarflash. Bu mablag' sarflash tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida qo'llanadi.

INVESTOR

Qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

INDIVIDUAL MOLİYAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR

Normativ hujjatlarda belgilangan umumiy qoidalarni aniqlashtirish uchun mo'ljallangan. Ular yordamida normativ hujjatlarda berilgan huquqiy me'yorlar talablari hayotga tatbiq etiladi, moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi organlar tomonidan bunday faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan masalalarni tezkorlik bilan hal etish ta'minlanadi.

Har bir individual moliyaviy-huquqiy hujjatda biror aniq hodisa nazarda tutiladi, ular moliyaviy munosabatlarning muayyan qatnashchilari uchun mo'ljallangan bo'ladi, yuridik fakt hisoblanadi, huquq me'yorlari aniq moliyaviy huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgarishi va tugatilishini u bilan bog'laydi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normativ moliyaviy-huquqiy hujjatiga asosan soliq organlari yer solig'ini to'lovchi (jismoniy shaxs)larga ushbu majburiy to'lovni to'lash to'g'risida to'lov xabarnomasini jo'natadilar.

Ushbu soliqning normativ hujjatda belgilangan muddatlarda amalda to'lanishi to'lov xabarnomasi, ya'ni individual moliyaviy hujjat harakati va unga muvofiq ravishda aniq moliyaviy huquqiy munosabatning tugallanishiga olib keladi.

Shunday qilib, individual moliyaviy-huquqiy hujjatlar huquq me'yorlarini qo'llash hujjatlari hisoblanadi va ular normativ moliyaviy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan aniq vaziyatlar yuzaga kelgan holda bir marta foydalanish uchun mo'ljallangandir.

INKASSO BO'YICHA HISOB-KITOBLAR

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning eng ko'p qo'llanadigan shakllaridan biri inkasso bo'yicha hisob-kitoblardir.

Bunday shakl kamida uchta iqtisodiy kontragent: xaridor, sotuvchi va ushbu operatsiyani amalga oshiradigan tijorat bankning mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Agar xalqaro bitim (turli mamlakatlarga mansub kontragentlar qatnashuvchi bitim) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda hisob-kitobning ushbu uslubi tanlangan

bo'lsa, unda mazkur operatsiyani bajarish jarayonida, odatda, ikkita bank: eksportchi banki va importchiga xizmat ko'rsatuvchi bank ish olib boradi.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblar ikki turda: oddiy inkasso va hujjatli inkasso bo'ladi.

INSTITUTIONALLASHTIRISH

Banklarning investitsion faoliyati nuqtayi nazaridan institutsionallashtirish uchta aspektga ta'sir ko'rsatadi: dilerlar sifatida investitsiya banklarining qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishdagi operatsiyalari, bu bitimlar miqdorining kattaligi va ularning tez tuzilishi bilan bog'liq; bozorni tashkil etuvchilar sifatida investitsiya banklarining faoliyati; kompaniyalarning qo'shilishida investitsiya banklarining roli.

IPOTEKA

Garov xat, bankning zayomchiga, uning mol-mulki garoviga muayyan muddatga ssuda berishi. Qarzga pul olish maqsadida ko'chmas mulk, yer va qurilish binolarini garovga qo'yish. Bunda garovga qo'yilgan mulk qarz oluvchining tasarrufida qoladi.

IPOTEKA BANKI

Kredit muassasasi bo'lib, u ko'chmas mulkning garovi (yer, inshoot va boshqalar) hisobiga uzoq muddatli pul ssudalarini beradi, shuningdek garovga qo'yiladigan ko'chmas mulkdan ta'minlanadigan garov varaqalarini chiqaradi.

IPOTEKA KREDITI

Ko'chmas mulkni garovga olib, uzoq muddatga beriladigan kredit.

ISTE'MOL FONDLARI

Ijtimoiy rivojlantirish (kapital qo'yilmalardan tashqari), korxonada xodimlarini moddiy rag'batlantirish, shu kabi tadbir va ishlarni amalga oshirish, lekin yangi korxonada mulkini tashkil qilishga mo'ljallangan tadbir hamda ishlar uchun yo'naltirilgan foyda va boshq.

ISTE'MOL KREDITI

Tijorat va bank kreditining ba'zi bir jihatlari o'zida mujassamlashtirgan kredit bo'lib, asosan, tovarlarni sotish jarayonida ularning to'lovini kechiktirib to'lash huquqining berilishidir.

Shu bilan birga iste'mol krediti banklar va maxsus kredit institutlari tomonidan iste'mol tovarlarini sotib olish va xizmatlarni to'lash hollarida beriladi.

Uning obyekti – uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar va xizmatlar hisoblanadi.

Iste'mol krediti – bu aholining iste'mol talablarini qondirishga beriladigan kredit. Bu kredit uy-ro'zg'or buyumlarini: maishiy asbob-uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar joyni ta'mirlash bilan bog'liq tovarlarni xarid qilish uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan kredit.

IXTIYORIY TO'LOVLAR

Davlat qimmatli qog'ozlari (Respublikava mahalliy ichki zayom obligatsiyalari, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari)ni muomalaga chiqarish yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb etish uchun qo'llanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini faollashtirish, pul muomalasini mustahkamlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining bo'sh resuslaridan samarali foydalanish maqsadida 1996-yildan boshlab mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari chiqarilayotgani, ular yuridik shaxslar o'rtasida joylashtirilmoqda.

ISH HAQI

Moliyalash manbayidan qat'iy nazar, pul yoki mahsulot shaklida hisoblangan ish haqining barcha turlari, shuningdek, ish haqi fondiga kiradigan turli mukofot, qo'shimcha to'lovlar, ustama haq, ijtimoiy imtiyozlar va boshqa to'lovlar tushuniladi.

ICHKI AUDIT

Muayyan korxonaning rahbariyatiga korxonaning iqtisodiy ahvoli to'g'risida axborot tayyorlashdir. Ichki audit xizmati bankning tuzilishi, katta-kichikligi, joylashishi va bank muomalalarining miqdoriga qarab, bir-ikki kishidan iborat mustaqil bo'lim yoki ma'lum bir boshqarma shaklida tashkil qilinishi mumkin.

ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt doimiy ravishda amalga oshirib boradigan faoliyat .

JAMOAT MOLIYA NAZORATI

Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan alohida jismoniy shaxslar jamoat moliyaviy nazoratini olib boradi.

Ayrim boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlarida ushbu nazoratni ixtiyoriy ravishda mas'uliyatni olgan jismoniy shaxslar olib boradi.

Jamoat nazoratining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat aniq bir korxonaning xo'jalik-moliya faoliyatini nazorat qiladi.

JAMOA TADBIRKORLIGI

Fuqarolar guruhining jamlanma mulki asosida tashkil qilinadigan faoliyat.

JAMG'ARMA (FOND)

1. Ma'lum davlat vazifalarini amalga oshirish, tegishli sohani boshqarish, moliya resurslarini boshqarish hamda ulardan foydalanishni tashkil etish uchun tuziladigan davlat yoki davlat-jamoatchilik organi (masalan, Pensiya fondi).

2. Foydalanishni tashkil etish tegishli ijroiya organlarining vakolatlariga kiritilgan maqsadli yo'nalishdagi moliya mablag'lari majmuyi (masalan: Aholini ish bilan ta'minlash fondi, Yo'l fondlari va b.).

3. Maqsadi ixtiyoriy badallar, qonun bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlar negizida mol-mulkni tarkib toptirish va undan ijtimoiy foydali maqsadlarda foydalanishdan iborat bo'lgan fuqarolar jamoat birlashmalarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri.

JAMG'ARMA VOSITASI

Pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olishidir.

Pul qog'oz yoki tanga bo'lgani uchun boylik emas, balki o'zida mehnatni mujassamlashtirgani, unga hamma narsani xarid etish yoki uni jamlab saqlash mumkin bo'lgani uchun boylik hisoblanadi.

JAMG'ARMA DEPOZITLAR

Davriy badallar yordamida shakllantiradigan jamg'arma depozitlarini jismoniy va yuridik shaxslarga ular muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun aniq pul summasini depozit

hisobvarag'ida to'plash istagini bildirganda ochiladigan depozitning bir turi.

JAMG'ARMA DEPOZIT HISOBVARAG'I

Yuridik shaxslarning mablag'lari, ular muayyan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum pul summasini depozit hisob varag'ida to'plashni istaydilar

JIROBANK

Mijozlar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni oshiruvchi bank.

JIROBALANS

Naqd pulsiz hisob-kitoblar balansi.

JIROBANK DEPOZITI

Mijozlar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bankka saqlash uchun topshirilgan mablag'lar.

JIRO O'TKAZMA

Naqd pulsiz mablag' o'tkazmasi.

JIRO HISOB-KITOBLAR

Banklar hisobraqam egasi topshirig'iga ko'ra bir hisobraqamdan ikkinchisiga pul mablag'ini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradigan naqd pulsiz hisob-kitoblar.

JIRO HISOBRAQAM

Naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshiriladigan hisobraqam.

JORIY MOLIVAVIY NAZORAT

Xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik-moliya faoliyatida moliyaviy operatsiyalar va pullik bitimlar tuzilayotgan vaqtda amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazorat ushbu shakli ma'lum hisobot davri (har dekada, oy, kvartal) nazorat qilinadigan jarayon, muomala va xatti-harakat tugagandan so'ng uning miqdor va sifat tavsifiga muvofiq bajariladigan nazoratdan iborat.

Joriy moliyaviy nazorat uchun ma'lumot manbai rejadagi tezkor-texnik, statistika va buxgalteriya axboroti xizmat qiladi.

JORIY NAZORAT

Operatsiya o'tkazish jarayonida olib boradigan nazoratdir.

JOYLARGA BORIB TEKSHIRISH

Bu moliyaviy-iqtisodiy nazoratning bir turi bo'lib, unda tekshirilayotgan obyektlarni joylashish joyiga qarab bir vaqtning o'zida hujjatli va haqiqiy nazorat usullari qo'llanadi.

KAFIL

Muayyan vazifalarni bajarish uchun kafillik beradigan va uning bajarilishini nazorat qiladigan shaxs, idora, tashkilot, davlat yoki davlatlar guruhi.

KAFILLIK

Bir tomonlama majburiyat ko'rsatilgan shartnoma bo'lib, kafil ular vositasida kreditor oldida qarz oluvchining qarzini zarurat bo'lib qolganda to'lab yuborish majburiyatini oladi. Bank kafillik beruvchining moliyaviy holatini hamda uning qobiliyatini tahlil etishi lozim va ijobiy hol bo'lgandagina kafillik shartnomasini berayotgan kredit ta'minoti sifatida qabul qilishi mumkin.

KAFOLAT

Ma'lum muddat o'tgach ma'lum miqdordagi summani qarzdor tomonidan berilishni ta'minlaydigan kafolat beruvchining to'la majburiyatlari tushuniladi.

Kredit olishdan oldin xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kafolat xati bankka topshirilishi kerak. Kafolat xatini banklar yoki sug'urta idoralari berishi mumkin.

KAFOLAT XATI

Kafil bank orqali kreditchi foydasiga qarzdorning qarzlarini o'z vaqtida butunligicha to'lashni o'z zimmasiga olganligi to'g'risida kafolat beruvchi hujjat.

KAMERAL TEKSHIRISH

Moliya nazorati subyeksi (tekshiruvchi organ)ning joylashgan joyiga qarab tekshirilayotgan tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan hisobot va hujjatlarni tekshirish obyektlariga bormasdan hujjatli tekshirish turi hisoblanadi.

KAPITAL

Bank mijozning aksionerlik kapitali, uning strukturasi, aktiv va passivlar orasidagi munosabatlar tushuniladi.

KAPITAL QO'YILMALARNI MOLIYALASHTIRISH

Asosiy fondlarni yangilash, rekonstruksiya qilish va kengaytirish. Kapital qo'yilmalar, asosan, bank tomonidan amalga oshiriladi, bu qurilish kompleksi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda katta ahamiyatga ega.

KAPITAL QO'YILMALARNING MANBALARI

Hozirgi davrda, asosan, bu korxonalar, birlashmalarning o'z mablag'lari, budget mablag'lari va bank krediti hisoblanadi.

KASSA INTIZOMI

Korxonalar, tahkilot, muassasalar tomonidan naqd pulni bank muassasalariga topshirish va olish, sarflash, hisoblash hamda saqlash qoidalariga rioya qilish tushuniladi.

KASSA HUJJATLARI

Naqd pullarni qabul qilish va berish vaqtida tuziladigan hujjatlar.

KASSA JURNALI

Kassa bo'yicha kirim va chiqim hujjatlariga asoslanib yuritiladigan hujjat. Kassa jurnallarida mijozlarning shaxsiy hisobraqamlari, kassa rejasi, kassa prognozining kodi va summasi ko'rsatiladi.

KASSA OPERATSIYALARI

Naqd pullarni vaqtincha saqlash, qabul qilish va berish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar.

KASOD

1. Talab yoki xaridor yo'qligi bo'is, mollarning bozorda sotilmay qolishi natijasida zarar ko'rish. 2. Kasofat, zarar.

KELISHILGAN (SHARTNOMALI) BAHO

Tovar sotuvchi va tovar oluvchi o'rtasidagi kelishilgan narx.

KECHKI KASSA

Operatsiya kuni tugagandan keyin naqd pullarni qabul qilish uchun tashkil etilgan maxsus kassa.

KIRIM KASSASI

Operatsiya kuni mobaynida naqd pullarni qabul qilish uchun tashkil etilgan maxsus kassa.

KIRIM KASSA HUJJATLARI

Bank kassasiga naqd pullarni topshirish uchun e'lon, kirim kassa orderi, inkassator xaltalariga ilova qilingan qaydnomalar va kvitansiyalar.

KONSOLIDATSIYALASHGAN BUDJET

Respublika budjeti, mahalliy budjetlar va budjetdan tashqari maqsadli fondlar yig'indisi

KOMPLEKS (MAJMUAVIY) TEKSHIRISH

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini ma'lum bir davrda har tomonlama tekshirish. Bunday tekshirish

jarayonida tashkilotning iqtisodiy va davriy faoliyati tomonlarini bir-biri bilan bog'liqligini o'rganish tekshirishi o'tqaziladi. Qoidaga binoan, kompleksli tekshirishda malakali mutaxassislar qatnashadi.

KORPORATIV OBLIGATSIYALAR

Ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

KORPORATIV PLASTIK KARTA (KARTOCHKA)

Yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan kartochkadir. Korporativ kartochkadan ish haqi va ijtimoiy xarakterdagi boshqa to'lovlarni, shuningdek, naqd pul mablag'larini to'lash uchun foydalanish taqiqlanadi.

KORXONA

Mehnatkashlar jamoasi mulkidan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarib, uni iste'molchilarga sotadigan yoki sanoat xarakteridagi turli xizmat ishlarini bajaradigan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik subyektidir.

KREDIT

Lotincha «kredit» – «qarz» so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, tovar va xizmatlarini kelishilgan foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun pul yoki moddiy mablag'larni berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi (qarz, nasiya). Yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan mablag'larini kredit resurslariga jalb etish, ularni qaytarish va foizlar to'lash sharti bilan foydalanuvchilarga berish bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos moliyaviy munosabatlar majmuidir.

KREDIT BERUVCHI

Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha aktivlar bergan yoki aktivlar berish niyatida bo'lgan xorijiy davlat yoki norezident (xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari). Agar norezidentlar bir nechta bo'lsa, u holda kreditorlar guruhidagi vakolatli boshqaruvchi vazifasini bajaruvchi norezident kredit beruvchi hisoblanishi mumkin.

KREDITGA QOBILLILIK

Xo'jalik subyektlari tomonidan kreditlarni o'z vaqtida va to'laligicha qaytara olish qobiliyati hamda moliyaviy ahvoriga beriladigan baho.

KREDITGA LAYOQATLILIK

Mijozning o'z qarz majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida hisoblash qobiliyati tushuniladi.

KREDIT QIYMATI

Qarz oluvchi qarz beruvchiga kreditdan foydalanganligi uchun beradigan % summasi.

KREDITLASH

Qaytarish, muddatlilik va foizlar to'lash shartlari bilan mablag'lar berishdir.

KREDITLASHNING 5 “C”LAR QOIDASI

Mazkur qoida kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida g'arb mamlakatlari amaliyotida qo'llanmoqda. Unga asosan har bir “C” bo'yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqiladi va korxonaga faoliyati talabga javob bersa, korxonaga kredit beriladi. Qoidaga asosan “C” harflari korxonaning xo'jalik faoliyatini quyidagi jihatlarini belgilaydi.

Character – qarz oluvchining xarakterini baholash hamda bozordagi obro'si;

Capacity – qarz oluvchining boshlangan ishini oxiriga yetkaza olish, tegishli daromad olish, hamda bank kreditlarini qaytarib berish qobiliyati;

Capital – qarz oluvchi sarmoyasining yetarliligi;

Conditions – shartlar;

Collateral – garov (kafolat, kafillik, sug'urta polisi, tovar moddiy boyliklari) va boshqalar.

KREDIT MUASSASALARI STATISTIKASI

Kredit – pul munosabatlaridagi muammolarni ma'lum bir vaqtda, ma'lum joyda hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davridagi holatini izlanish orqali xarakterlaydigan muassasa.

KREDIT PULLAR

Xo'jalik yuritish amaliyotida tovar munosabatlari umumiy tus olgan sharoitda tijorat va bank krediti qo'llanishining kengayishi shunga olib keldiki, o'z funksiyalari, muomala sohasi (chegaralari), kafolatlari va shu kabilarga oddiy pullardan farq qiladigan, mutlaqo yangicha qoidalar bilan boshqariladigan kredit pullar umumiy tovar bo'lib qoldi. Kredit pullar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning birmuncha rivojlangan, oliy sohasiga xosdir.

Kredit pullar evolyutsiyasi: veksel, banknota, elektron pullar, kredit kartalari (kartochkalari).

KREDIT KARTALARI (KARTOCHKALARI)

Bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasasi tomonidan biror kishi nomiga berilgan pul hujjati, unda pul egasi joriy hisobidagi summa ko'rsatiladi.

KREDIT OBYEKTI

Har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlardir.

KREDIT SIYOSATI

Banklarning kredit faoliyati bo'lib, ssuda kapitalini joylashtirish bilan amalga oshiriladi.

Kredit siyosatining elementlariga qo'yidagilar kiradi: kredit siyosatining maqsad va vazifalari, kredit yo'nalishini tashlash, kredit operatsiyalarining amalga oshirish texnologiyasi, kreditlash tartibining nazorati.

KREDIT SIYOSATINING ICHKI OMILLARI

Kredit siyosatiga ta'sir etuvchi ichki manba omillarga: bank resurslarning baza va strukturasi tuzilmasi, kredit tashkilotlarning likvidligi, banklarning ixtisoslashganligi, maxsus o'qimishli xodimlar miqdori.

KREDIT SIYOSATINING MAQSADI

Mijozlar ehtiyojini qondirish va qo'shimcha foyda olish.

KREDIT SIYOSATINING TASHQI OMILLARI

Siyosiy va iqtisodiy sharoit: bank qonunlarning rivojlanish darajasi, banklararo raqobat, bank infratuzilmasining rivojlanish darajasi kiritiladi.

KREDIT SIYOSATINING VAZIFASI

Banklarning kredit tarkibini yaxshilash, ularning aylanishini tezlashtirish, ssudalar hajmini kengaytirish.

KREDIT SUBYEKTLARI

Korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

KREDIT SUMMASI

Qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

KREDIT TAMOYILLARI

Qaytarib berishlilik, muddatlilik, ta'minlanganlik, maqsadlilik, to'lovlilik, samaradorlik.

KREDIT SHAKLLARI

Sudxo'rluk krediti, tijorat krediti, bank krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, xususiy kredit, xalqaro kredit, xalqaro xususiy va firma kreditlari, xalqaro bank krediti.

KUNLIK BALANS

Yig'ma varaqalarga asoslanib tuziladigan hujjat. Balansning to'g'ri tuzilgani aktiv va passiv tomonlardagi summalarning tengligi bilan tasdiqlanadi.

L

LEFFER EGRISI

Soliq stavkalari yuqoriligi va davlat budjetiga ular orqali kelib tushadigan soliqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aks etuvchi chizma.

LIKVID AKTIVLAR

1. Foizli daromad keltirmaydigan, shu bilan birga o'z sohiblariga joriy va kredit majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni muntazam amalga oshirishga imkon beruvchi, oson sotiladigan mablag'lar (qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari, yirik kompaniyalarning doimo xaridorgir aksiyalari, obligatsiyalari, naqd pul).

2. Banklarning qisqa muddatli qo'yilmasi: ssuda, qimmatbaho qog'ozlar, faktoring operatsiyasi va boshqalar kiradi.

LIKVID AKTIVLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH

Sarflangan mablag'lar tavakkalchiligini eng kam darajaga yetkazish maqsadida tijorat banklari mablag'larini olishga qaratilgan kredit siyosati qoidalaridan biri.

LIKVIDLAR

Firma kassasidagi naqd pullar, shuningdek boshqa naqdlklar.

LIKVIDLIK

1. Firma aktivlarini, boyliklarni naqd pulga aylantira olish imkoniyati, aktivlar mobilligi.

2. Qarz oluvchining qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlay olishi, to'lov qobiliyati.

3. Keng ma'noda samaradorlik, faol harakat.

LIMIT

Chegara, cheklash.

LITSENZIYA

Davlat tomonidan berilgan ruxsatnoma.

LIZING

Mashina, asbob-uskunalar, transport vositalarini, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini uzoq muddatli ijaraga berish. U ijaraning bir turi bo'lib, muayyan davrdan keyin, ijara to'lovlarining hammasi amalga oshirilgandan keyin ijaraga olingan narsa ijarachi mulkiga aylanadi.

LIZING OBYEKTI

Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanadigan, iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar.

Shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing ob'yektlari bo'lishi mumkin.

Yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari lizing obyektlari bo'la olmaydi.

LOMBARD SSUDASI

Oson sotiladigan, ko'char mulkni garovga olib, qisqa muddatga beriladigan qarz.

LOT (nem. lot – o'zb. to'p)

1. Ma'lum sifat andazasi va miqdoriga ega bir guruh mollar to'plami.

2. Birjadagi bitta kontrakt.

3. Har qanday molning yaxlit deb savdoga qo'yilishi.

M

MAJBURIY TO'LOVLAR

Qonunchilik bilan nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hamda bojxona bojlari.

Ayni mana shu majburiy to'lovlar hisobidan davlat markazlashtirilgan pul jamg'armalarining asosiy qismi hosil bo'ladi.

Davlat budjeti daromadlarining qolgan qismi boshqa majburiy to'lovlar hisobidan shakllanib, ularga davlat boji, davlat majburiy mulkiy sug'urtasi, shaxsiy sug'urta va h.k. kiradi.

MAHAK TOSHI

Kumush va oltinning tozaligini aniqlab beradigan qora tusli bir tosh.

MAHALLIY BUDJET

Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

MAJBURIYAT

Fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash yoxud muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

MAJBURIY ZAXIRALAR SIYOSATI

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining depozit bazasiga foiz darajasida o'rnatiladigan majburiy zaxiralar yaratish talabi. Majburiy zaxiralar siyosati birinchi navbatda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini susaytirib, muomaladagi pul massasini tartibga solishga xizmat qiladi.

MARJA

1. Bankda, birja savdosida va sug'urtalash jarayonida foiz stavkalari, qimmatbaho qog'oz kurslari bahosi o'rtasidagi farqlar va boshqa ko'rsatkichlarni anglatish uchun qo'llanadigan ibora.

Bank terminologiyasida marja jalb qilinayotgan va berilayotgan qarzlar summasini turli xil toifadagi qarz oluvchilarga berilayotgan kredit stavkasi kabilarni bildiradi.

2. Depozit, garov ta'minoti yoki valyutalar kursining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tebranishlar bo'yicha qo'shimcha ulushi.

3. Narxlar, kurslar, stavkalar o'rtasidagi farq.

4. Qarz oluvchi kredit qiymatiga qo'shib to'laydigan ustama.

MARJALI SSUDALAR

Qarz oluvchiga kredit qiymatiga ustama qo'shish evaziga beriladigan ssuda.

MARKAZIY BANK

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki. Uning huquqiy maqomi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati prinsiplari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston

Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun (1995-yil 2-dekabrda qabul qilingan) hamda boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat. Asosiy vazifalari: monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash; banklar faoliyatini tartibga solish va banklarni nazorat qilish; O'zbekistonning rasmiy oltin-valyuta rezervlarini, shu jumladan, kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish; davlat budjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va fiskal agenti (xazina vakili) sifatida ish ko'radi; hukumatga o'z vazifalariga hamda vakolatlariga daxldor barcha masalalar bo'yicha maslahat beradi; har yili hukumatga iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha, davlat budjetini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan ma'ruzani taqdim etadi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasidagi pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlarining ahvoliga asoslanib, muomaladagi pul massasining bitta yoki bir qancha ko'rsatkichlari o'zgarishining aniq maqsadli mo'ljallarini belgilashi mumkin. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega. Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. Markaziy bank bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi.

Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir. Markaziy bank o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar ijro etishi majburiy bo'lgan normativ hujjatlar chiqaradi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisob beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish Senatning mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradi.

MARKAZIY BANK MIJOZLARI

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning muassasalari va tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, shuningdek Markaziy bankka qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

MARKAZIY BANKNING OLIY ORGANI

Markaziy bankning boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi. Boshqaruv o'n bir kishidan iborat bo'ladi. Uning tarkibiga Markaziy bank raisi, uning o'rinbosarlari, shuningdek bankning asosiy bo'linmalari rahbarlari kiradi. Markaziy bank raisi Boshqaruvning raisi hisoblanadi.

Boshqaruv quyidagi vakolatlarga ega: monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarini, shu jumladan Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari ko'lamini, Markaziy bankning hisob va ssuda berishdagi foiz stavkalari hamda banklarning Markaziy bankdagi majburiy rezervlari normasini belgilaydi; Markaziy bankning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki masalasini hal qiladi; banknotlar va tangalarning nominal qiymati va namunalarini, shuningdek pul belgilarini muomaladan chiqarish shartlarini belgilaydi; O'zbekiston Respublikasi hukumatiga beriladigan ssudalar miqdori va shartlarini tasdiqlaydi; banklar uchun iqtisodiy normativlarni tasdiqlaydi va ularga rioya etilishini kuzatib boradi; bank faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar berish va ularni qaytarib olish to'g'risida qarorlar qabul qiladi; Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi; Markaziy bank muassasalari hamda korxonalarini tashkil etadi, qayta tuzadi va tugatadi; Markaziy bank xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi; Markaziy bankning yillik va moliya hisobotlarini ko'rib chiqadi; Markaziy bankning tarkibiy bo'linmalari, muassasalari va korxonalarini rahbarlarini tasdiqlaydi; Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari, uning muassasalari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari hamda ma'ruzalarini tinglaydi; Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, ishdan bo'shatish, ularning mehnatiga haq to'lash shartlarini, shuningdek ularning kreditlar olishi va aksiyalar sotib olishi tartibini qonun hujjatlariga muvofiq belgilaydi; Markaziy bank vakolati doirasidagi boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

MARKAZIY BANKNING OCHIQ BOZORDAGI SIYOSATI

Markaziy bank tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish yoki sotishdan iborat bo'lgan pul-kredit siyosati usuli. Tijorat banklarining zaxiralarini oshirish yoki kamaytirish, bozor foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatish, davlat qimmatli qog'ozlarining kursini tartibga solish uchun qo'llanadi.

MARKAZIY BANK RAISI

Markaziy bank va uning boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun javobgar bo'ladi; Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi, Qonunga binoan Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno; Boshqaruv qarorlarini imzolaydi, buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi; Markaziy bank faoliyati va joriy operatsiyalarini operativ tarzda boshqarish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi; Oliy Majlisda, hukumatda, vazirliklar va idoralarda, sudlarda, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida bank faoliyatiga doir barcha masalalar bo'yicha Markaziy bank nomidan ish ko'radi; ayrim masalalarni hal qilishni o'zining o'rinbosarlariga, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalarining rahbarlariga, hududiy muassasalarning rahbarlariga topshiradi. Markaziy bank Raisining vakolat muddati – besh yil. Markaziy bank Raisi bo'lmagan paytda uning vazifalarini o'rinbosarlaridan biri bajaradi. Markaziy bank Raisi quyidagi asoslar bo'yicha: vakolat muddati tugaganida; iste'foga chiqishni so'rab, sabablarini ko'rsatgan holda yozgan shaxsiy arizasiga ko'ra; jinoyat sodir qilishda qonunda belgilangan tartibda aybdor deb topilganda; o'zining xizmat vazifalarini salomatligiga ko'ra bajara olmaganda, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida; egallab turgan lavozimiga munosib bo'lmagan xatti-harakatlar qilganida, shu jumladan, Qonunni qo'pol ravishda buzganida va Markaziy bank manfaatlariga katta zarar yetkazganida egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Markaziy bank Raisi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham egallab turgan lavozimidan ozod qilinishini mumkin.

MARKAZLASHGAN MOLIYA

Moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bunda moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy

daromadni taqsimlash hamda qayta taqsimlash natijasida markazlashgan pul mablag'lari resurslari shakllantiriladi.

MARKAZLASHGAN PUL MABLAG'LARI RESURS-LARINING SHAKLLARI

Budjet, budjetdan tashqari har xil jamg'armalar hamda davlat krediti hisoblanadi.

MARKAZLASHGAN PUL FONDLARI

O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risi"gi qonuniga (2000-yil 14-dekabr) asosan mamlakatimizda quyidagi markazlashgan pul fondlari tashkil etildi: Davlat budjeti, Respublika yo'l jamg'armasi, davlat bandlik jamg'armasi, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi davlat mulk qo'mitasining maxsus fondi. Mazkur markazlashgan fondlardagi pullarning sarflanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ixtiyorida bo'ladi.

MARKAZLASHMAGAN PUL FONDLARI

Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ish bajarish faoliyatini amalga oshirayotgan xo'jalik subyektlarining ixtiyorida shakllantiriladi hamda faqatgina ana shu xo'jalik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Markazlashmagan pul fondlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ish haqi fondi, amortizatsiya fondi, fan-texnikani rivojlantirish fondi, moddiy rag'batlantirish fondi, zaxira fondi va boshqalar.

MARKETING

1. Ishlab chiqarish va mahsulot sotishning muayyan iste'molchilar talablarini imkon qadar to'laroq qondirish hamda shu asosda yuqori foyda olishga qaratilgan majmuaviy tizim.

2. Bozor talabiga asoslangan va foyda olishni maqsad qilgan korxonalarining maishiy va savdo faoliyatini boshqarish tizimi. Banklarda asosiy tovar sifatida pul mablag'lari va bank xizmatlari tushuniladi.

MAVZULI (MAQSADLI) TEKSHIRISH

Bu nazorat obyektining xo'jalik faoliyati turlari yoki belgilangan yo'nalish (mavzuli), moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tomonlari va oldindan aniqlangan ba'zi bir masalalar doirasida aniqlash usuli bilan amalga oshiriladi. Tanlov tekshirish natijasidek mavzuli tekshirish natijalari ham mustaqil yoki umumiy hujjatda aks ettirilishi rasmiylashtiriladi.

MAXSUS (OLTIN) AKSIYA

Sohibi davlat tashkiloti bo'lgan aksiya.

Bunday aksiya muayyan muddat davomida davlat tashkilotiga aksiyalarning nazorat paketiga egalik qiluvchining huquqlariga yaqin bo'lgan keng huquqlarni beradi. Xususiylashtiriluvchi davlat aksiyadorlik korxonalari ustidan davlat nazoratini saqlash uchun foydalaniladi.

MAXSUS KASSA

Kassalar yirik korxonalarda har kuni tushum kelib tushish hollarida ochiladi.

MAXSUS SSUDA HISOBVARAG'I

Ssuda hisobvaraqlar savdo bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga ochiladi.

MA'LUMOTLAR BAZASI

Avtomatlashtirilgan tizimning masalalarini yechish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni tashkil qiluvchi boshqariluvchan ma'lumotlar to'plamini tashkil qiladi.

Ma'lumotlar bazasi o'z ichiga avtomatlashtirilgan tizimning masalalarini yoki masalalar guruhlarini yechish uchun zarur bo'ladigan barcha axborotlarni ham qamrab olishi mumkin.

MA'LUMOTLAR BANKI

Bu ma'lumotlar bazasi va uni boshqarish tizimi, uning arxivi va uni boshqarish tizimi, undagi dasturlar kutubxonasi.

MAQSAD VA YOKI YAKUNIY NATIJALAR

Davlatning budjet mablag'laridan foydalangan holda erishish istaklaridir.

Yakuniy natijalar bu iqtisodiy, jismoniy, ijtimoiy yoki madaniy sharoitlarning davlatning moddiy va ma'naviy xizmatlar ko'rsatuvchi budjet muassasalari (DBM) faoliyati natijasidagi o'zgarishlardir.

Masalan, kambag'allik darajasining kamayishi, o'lim koeffitsientlarining pasayishi, jinoyatchilikning kamayishi va hokazolar. Imkoniyat boricha, yakuniy natijalar aniq ko'rsatkichlar bilan baholanishi shart, masalan, jigar kasalliklaridan o'limlar sonining 2020-yilga qadar 15 foizga kamayishi.

MEMORIAL ORDER

Bu hujjat bank ichidagi operatsiyalarda ishlatiladi. Masalan, mijoz ssuda foizlarini so'ndirishida memorial order to'ldiriladi.

MEMORIAL HUJJATLAR

Naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan hujjatlar.

MIJUZ

Yuridik va jismoniy shaxslar, ular bank xizmatidan foydalanadilar.

MIJOZNING MASTER FAYLI

Bu asosiy fayl, xizmat ko'rsatuvchi bankda mijoz haqida kerakli ma'lumotlar yig'indisi.

MIKROFIRMA

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ishlab chiqarish sohasida 10 kishigacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida 5 kishigacha bo'lgan korxonalar.

MILLIY VALYUTA TIZIMI

Bir mamlakatda valyutaning amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va qonuniy munosabatlar yig'indisi.

MILLIY DAROMAD

Mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilab beruvchi umumlashgan muhim ko'rsatkich. Yalpi ichki mahsulotning bir qismidan iborat. Yalpi ichki mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish xarajatlarining chegirib tashlangan qismi. Mamlakatda yil davomida vujudga kelgan barcha daromadlar yig'indisi.

MOLIYA

Moliya pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyadir.

Moliya turli bo'g'inlardan tarkib topgan. Moliya – umumdavlat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Har biri davlat pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha yuzaga keladigan muayyan ijtimoiy munosabatlar doirasini aks ettiradi va shu boisdan ular bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga ular muayyan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularni alohida, nisbatan ajratilgan guruhlarga – moliya institutlariga birlashtirish uchun imkon beradi. Turli moliyaviy

bo'g'inlar majmuyi O'zbekiston Respublikasi moliya tizimini tashkil etadi.

MOLIYA APPARATI

Mamlakatimizda moliyani boshqarishni joylarda ijro etuvchi barcha tashkiliy tuzilmalarning jamlanmasi.

MOLIYA BOZORI

Bu jamiyatdagi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, xususan, kreditlar berishdan iborat bo'lgan munosabatlardir. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o'tkaziladi.

MOLIYA FUNKSIYALARI

Mazkur masala bo'yicha turli qarashlar mavjud.

1. Taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi.
2. Nazorat funksiyasi.
3. Tartibga solib turish funksiyasi.

MOLIYAVIY HISOB

O'zida shunday ma'lumotlarni mujassam etadiki, ushbu ma'lumotlardan nafaqat bank (firma, korxonona) faoliyatiga ichki rahbarlik qilishda foydalaniladi, balki chetdan foydalanuvchilarga ham tegishli ma'lumotlar ma'lum qilinadi.

MOLIYAVIY-IQTISODIY NAZORAT

Korxonona, tashkilot va muassasalarning xo'jalik-moliyaviy faoliyati ustidan olib boriladigan nazorat tizimi bo'lib, uni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyati iqtisodiy samaradorligi, qonuniyligi, maqsadliligi, xususiy mulk va ichki xo'jalik zaxiralarining butligi, ishlab chiqarish va daromad o'sish sur'atiga xolis baho berishdan iboratdir.

MOLIYAVIY LIZING

Ijaraga oluvchi shaxsning ijaraga olingan asbob-uskunalarini ishlatishdan ko'rilgan foyda ulushini hamda amortizatsiyaning to'la qiymatiga teng summani lizing kompaniyasiga shartnomaning amal qilish davri mobaynida to'lanishini ko'zda tutuvchi ijara shartnomasi. Bunda ijaraga oluvchi shaxs shartnomaning amal qilish muddati tugagandan keyin asbob-uskunalarini qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish huquqini qo'lga kiritadi.

MOLIYAVIY NATIJA

Banklarda ma'lum hisobot davrida, ma'lum bir operatsiya jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishi tushuniladi.

MOLIYAVIY NAZORAT

Maxsus vakolatga ega tekshiruv tashkilotlari va tekshiruvchilarning (auditorlar) iqtisodiyotdagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini amaldagi moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya etilishi yuzasidan turli shakl va usullarni qo'llash orqali olib boriladigan faoliyati hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat o'tkazilish reglamentiga asosan ichki va tashqi (majburiy) nazorat mavjud.

Moliyaviy nazorat o'tkazilish muddatiga asosan dastlabki, joriy va davriy nazoratlarga bo'linadi.

MOLIYAVIY NAZORATNING ANGLOSAKSON MODELI

Xalqaro amaliyotda moliyaviy nazorat orqali qo'llanadigan jazo-choralar darajasi modellaridan biri. Mazkur model qo'llanadigan mamlakatlardagi nazorat organining faoliyatida o'zi olib borgan moliyaviy nazoratning yakunlari hamda unda aniqlangan qonunbuzarlik to'g'risida hisobot tayyorlash bilan cheklanilgan. Yo'l qo'yilgan qonunbuzarlikka nisbatan qanday jazo qo'llanilishi sud organlari tomonidan belgilab beriladi.

MOLIYAVIY NAZORATNING FRANSUZ MODELI

Xalqaro amaliyotda moliyaviy nazorat orqali qo'llanadigan jazo-choralar darajasi modellaridan biri. Mazkur modelni qo'llayotgan mamlakatlardagi nazorat organiga moliyaviy faoliyatda yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni aniqlash va yo'l qo'yilgan zararni qoplash yuzasidan jazo qo'llash huquqi berilgan.

MOLIYAVIY NAZORAT OBYEKTI

Soliq, kredit, valyuta, bojxona, budjetdan tashqari fondlar va sug'urta.

MOLIYAVIY NAZORAT SUBYEKTI

Davlat vakolatli organlari, xo'jalik subyekti ichidagi tarmoq, jamoa va auditorlik nazorati kiradi.

MOLIYAVIY REJALASHTIRISH

Moliyaviy rejalarning butun bir tizimini tuzish va ijro etish vositasida amalga oshirilib, ushbu tizim *umumdavlat, tarmoqlar va hududiy moliyaviy rejalarga* bo'linadi. *Umumdavlat moliyaviy rejalari*ga O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va unga kiruvchi maqsadli jamg'armalar (budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ish bilan bandlikka yordam jamg'armasi va boshqalar) kiradi.

MOLIYAVIY FAOLIYAT SHAKLLARI

Davlat organlarining moliyaviy resurslarni tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish borasidagi aniq harakatlarining tashqi amaliy ifodasini tushunish kerak

MOLIYAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR

Moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan bir tomonlama, ya'ni davlat hokimiyati tartibida, o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarga rioya etilgan holda qabul qilingan va yuridik oqibatlarini yuzaga keltiradigan rasmiy qarorlardan iboratdir.

Barcha moliyaviy-huquqiy hujjatlar bir necha belgilariga qarab tasniflanadi: birinchi navbatda, ular yuridik xususiyatlari bo'yicha ajratiladi. Ushbu belgi bo'yicha normativ va individual moliyaviy-huquqiy hujjatlar farqlanadi.

MOLIYA YILI

Asosan birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr. Lekin har doim ham kalendar yili bilan mos tushmaydi. Masalan, Buyuk Britaniyada Moliya yili 1-apreldan boshlanib, keyingi yilning 31- martida, AQShda 1-oktabrdan boshlanib 30-sentabrda tugaydi. Qisqacha qilib aytganda, davlat budjeti amal qiladigan yoki moliya hisobotlari muddati hisoblanadigan 12 oydan iborat davr hisoblanadi.

MOLIYALASHTIRISH

Qaytarilmasdan va beg'araz ravishda budjetdan mablag'lar ajratish.

MOLIYA MEXANIZMI

Davlat tomonidan jamiyatda moliya munosabatlarini tashkil etishdagi shakl, turlar hamda usullarning yig'indisi hisoblanadi. Moliya mexanizmi moliya amaliyotida yuzaga chiqadigan moliya tarkibidagi elementlarni mujassamlashtirgan. Moliya resurslarining shakllari, ularni shakllantirish usullari, qonunchilik asosidagi me'yor va ularning tizimi, budjet tizimini tashkil etish, xo'jalik subyektlarining moliyasi hamda qimmatli qog'ozlar bozori ushbu elementlarga kiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, moliya mexanizmining elementlari o'zaro bog'liqlikda faoliyat ko'rsatadi. Moliya mexanizmi moliya siyosatining aksari hollarda o'zgarib turuvchi qismi.

Moliya mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra asosan ikkiga bo'linadi:

-Direktiv moliya mexanizmi;

- Tartibga solib turuvchi moliya mexanizmi.

MOLIYA MUNOSABATLARI

Huquqiy asosga ega va tartibga solib turiladigan pul munosabatlaridir.

MOLIYANI BOSHQARISH TIZIMI

Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi davrda moliya tizimi – real iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, dastaklar hamda moliya institutlarining barcha bo‘g‘inlari faoliyatining yig‘indisidan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan moliyani boshqarish oliy qonunchilik organlari hisoblangan Oliy Majlisning ikki palatasiga, ya’ni Senat va Qonunchilik palatasiga yuklatilgan. Bunday boshqaruv eng avvalo davlat budjetini ko‘rib chiqish, uni tasdiqlash hamda budjet ijrosini tasdiqlashda yuzaga chiqadi. Bundan tashqari, Oliy Majlis soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risidagi qonunlarni ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Moliyani boshqarishni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: umumiy boshqaruv va tezkor (operativ) boshqaruv moliya apparati.

MOLIYANING NAZORAT FUNKSIYASI

Jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni tegishli fondlar bo‘yicha taqsimlanishini hamda maqsadli fond mablag‘larining sarflanishini nazorat qilish bilan bog‘liqdir.

Moliya nazorati kim tomonidan olib borilishiga qarab, uning quyidagi shakllari mavjud:

1. Umumdavlat moliya nazorati;
2. Tarmoq moliya nazorati;
3. Xo‘jalik ichidagi moliya nazorati;
4. Jamoat moliya nazorati;
5. Mustaqil (auditorlik) moliya nazorati.

MOLIYANING TARTIBGA SOLIB TURISH FUNKSIYASI

Ushbu funksiyaning mohiyati davlat tomonidan mavjud moliya dastaklari orqali jamiyat uchun zarur alohida olingan korxonalar va ba’zan butun iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirishga ta’sir etilishi hisoblanadi. Shunga ko‘ra mazkur funktsiya mikroiqtsodiy (xo‘jalik subyektlari darajasida) va makroiqtisodiy (davlat) darajalarda yuzaga chiqadi. Davlat moliya dastaklari orqali iqtisodiyotdagi ayrim sohalarni rivojlantirishga va o‘z vaqtida ayrim sohalari faoliyatini

cheklab turishga erishadi. Moliyani tartibga solib turish funksiyasi quyidagi ko'rinishda yuzaga chiqadi:

1. Davlat budjeti orqali. Budget mablag'larining ayrim soha yoki korxonalarni rivojlantirishga (subsidiya) ajratilishi orqali amalga oshiriladi.

2. Soliqlar orqali. Davlat iqtisodiyot faoliyatini tartibga solib turishdagi eng ta'sirli dastak soliqlar hisoblanadi. Xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektlar faoliyati uchun past darajadagi soliqlarning o'rnatilishi ushbu faoliyatni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi va buning aksi, ya'ni yuqori darajadagi soliq stavkalarining o'rnatilishi ushbu faoliyatning rivojlanishini cheklab turadi.

3. Baholar va tariflar orqali. Iqtisodiyotning bozor munosabatlari sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotning ayrim sohalarini narx-navo va tariflarning belgilanishida faol ishtirok etadi. Bu omil esa iqtisodiyotning ayrim sohalaridagi xo'jalik subyektlarining moliya holatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

4. Eksport va import bojlari orqali. Ushbu yo'nalishda davlat tomonidan xo'jalik subyektlari olib boradigan eksport-import operatsiyalariga o'rnatilgan past yoki yuqori darajadagi boj stavkalari ushbu faoliyatning rivojlanishi yoki to'xtatib qo'yilishiga olib kelishi mumkin.

MOLIYANING TAQSIMLASH VA QAYTA TAQSIMLASH FUNKSIYASI

Jamiyatning barcha sohalarida: moddiy ishlab chiqarish, nomoddiy ishlab chiqarish va muomala sohalarida amalga oshadi. Ushbu funksiya mamlakatda yaratilayotgan va pul shaklidagi yalpi ijtimoiy mahsulot hamda milliy daromadning shakllanishida namoyon bo'ladi. Taqsimlash va qayta taqsimlash subyektlari mikrodarajada mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlari va aholi hisoblansa, makrodarajada davlat hisoblanadi.

MOLIYA SIYOSATI

Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu siyosatda iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari aniqlashtiriladi, moliya resurslarining umumiy miqdori, uni tashkil etadigan manbalari, shakllangan moliya resurslarining taqsimlanishi va sarflanishi hamda ushbu jarayonda moliya usullaridan foydalanish o'z aksini topadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, moliya siyosati davlatning faoliyat ko'rsatishida nisbatan mustaqil soha hisoblanadi.

Moliya siyosatini ikki yo'nalishdagi siyosatga ajratish mumkin:

1. Strategiya yo'nalishidagi moliya siyosati.

2. Taktik yo'nalishdagi moliya siyosati.

O'zbekistonda bu ikki yo'nalishdagi siyosat o'zaro uyg'un holda olib borilgan.

MOLIYA TIZIMI

Turli moliya munosabatlarining yig'indisi hisoblanib, bu munosabatlar jarayonlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning pul mablag'lari jang'armalari turli shakllar hamda usullar yordamida shakllanadi, taqsimlanadi va sarflanadi.

MONETAR SIYOSAT

Bu davlat siyosati bo'lib, davlat iqtisodiyotini amaldagi pul massasini tartibga solish yo'li bilan rivojlantirish va barqarorlashtirishdir.

MONOPOLIYAGA QARSHI QOIDALAR

Banklarning bank operatsiyalari bozorini monopoliyalash va bank ishida raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlarga erishish maqsadida o'z ittifoqlari, uyushmalari va boshqa birlashmalaridan foydalanishi taqiqlanadi. Monopoliyaga qarshi qoidalarga rioya etilishi Markaziy bank tomonidan, shuningdek, ushbu maqsadlarda qonun hujjatlariga muvofiq tuziladigan boshqa organlar tomonidan nazorat qilinadi.

MUALLIFLIK BITIMI

Asar, kashfiyot mualliflari bilan nashriyot, foydalanuvchilar, bajaruvchilar orasida tuziladigan va mualliflik huquqi himoya qilinuvchi ijodiy mahsulotdan foydalanish shartlari ifodalanadigan bitim.

MUALLIFLIK GUVOHNOMASI

Kashfiyotga nisbatan mualliflik huquqi mavjudligini tasdiqlovchi hujjat. Agar kashfiyot muallifi undan foydalanishga oid alohida huquqlarga ega bo'lsa, unga kashfiyot uchun patent taqdim qilinadi.

MUALLIFLIK NAZORATI

Loyiha mualliflari, loyiha tashkiloti tomonidan qurilayotgan, yaratilayotgan obyektning loyihalash jarayonidagi yoki loyihaning o'zida belgilangan qarorga muvofiqligini nazorat qilish.

MUALLIFLIK HUQUQI

Ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflarining qonunchilikda belgilangan o'zlari tomonidan yaratilgan ijod mahsulidan foydalanishga doir huquqlari.

Mualliflik huquqiga muvofiq faqat muallif uning ijod mahsulidan kim foydalanishi mumkinligini belgilash huquqiga ega. Mualliflik huquqi meros bo'lib qoladi.

Qonun bilan o'rnatilgan tartibda mualliflik huquqi davlatga o'tishi mumkin.

MUDDATLI KREDITLAR

Amal qilish muddati o'tmagan ssudalardir.

MUDDATI KECHIKTIRILGAN KREDITLAR

Ayrim hollarda muddati yetib kelgunga qadar qarz oluvchi tomonidan iqtisodiy jihatdan asoslangan holda bankka taqdim etilgan yozma ariza asosida kreditni qaytarish muddatini kechiktirish to'g'risida qaror qabul qilinadigan ssudalardir.

MUDDATI O'TGAN SSUDALAR

Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan ssuda shartnomasiga ko'ra o'z vaqtida qaytarilmagan suddalar. Bu toifadagi ssudalar muddatsiz hisoblanib, imkoniyat bo'lishi bilan undirib olinadi.

MUDDATLI DEPOZIT HISOBVARAG'I

Bu yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari. Tuzilgan shartnomaga asoslanib foizlar belgilangan muddatda to'lanadi.

MUDDATLI JAMG'ARMALAR

Egalari tomonidan ma'lum muddatga (1, 3, 6, 9 oyga; 1 yoki 1,5 yilga) qo'yiladigan jamg'armalar.

MUDDATLI MARJA

Muddatli bitimlar bo'yicha narxlar va kurslar o'rtasidagi farq.

MUDDATLI OMONATLAR

Mijoz tomonidan bankka ma'lum muddatga qo'yiladigan qo'yilmalar bo'lib, ular orqali mijozga bank tomonidan yuqori foizlar to'lanadi.

Bunda foiz stavkalari qo'yilmalarning muddati va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

MUDDATSIZ JAMG'ARMALAR

Bu jamg'armalarga banklar tomonidan hech qanday muddat belgilanmaydi va ularning sohiblari xohlagan vaqtida jamg'armalarini istalgan miqdorida qaytarib olish huquqiga egadir.

MULK

Ishlab chiqarish vositalari va ular yordamida olingan mahsulotga kishilarning huquqiy munosabatlari bilan belgilangan iqtisodiy munosabatlarning majmuasidir.

MULKDOR

Butun mol-mulk egasi.

MULK OBYEKTALARI

Bu yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, suv havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar, asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar, insonning unumli va ijodiy mehnat qilish qobiliyatidir.

MULK SUBYEKTLARI

Davlat jamoatlari, ularning uyushmalari, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashmalari va h.k.

MULKIY MUNOSABATLAR

Bu ishlab chiqarish vositalari va ularning yordamida yaratilgan mehnat mahsulini o'zlashtirish borasida kishilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlaridir.

MULKIY HUQUQ

Bu huquq bo'yicha iqtisodiy o'zaro munosabatlar, subyektlar tomonidan mol-mulkka, moddiy boyliklarga, pul mablag'lariga da'vogarlik qilish huquqidir.

MUOMALA

Mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi vositasida ayirboshlash munosabati.

MUROSASIZ O'YIN

Qarama-qarshi manfaatlarga ega ikki tomonning raqobat, kurash, ziddiyat kabi iqtisodiy vaziyatlarni modellashtiruvchi, yuzaga chiqaruvchi o'yin.

MUSTAQIL (AUDITORLIK) MOLIYA NAZORATI

Ushbu nazoratning eng asosiy xususiyati shundaki, auditorlik faoliyatini olib boruvchi firma o'z faoliyati uchun maxsus litsenziyaga ega bo'lishi bilan birga unda ishlovchi xizmatchilar ham maxsus shahodatnomaga ega bo'lishi shart.

Auditorlik moliya nazoratining obyekti barcha xo'jalik subyektlarining xo'jalik-moliya faoliyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka asosan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har bir faoliyat yurituvchi xo'jalik subyekti yillik xo'jalik-moliya faoliyatining auditorlik moliya nazoratini o'tkazishi shart.

NAQD PULLI HISOB-KITOBLAR

Fuqarolarning turli guruhлари o'rtasida yoki fuqarolar va tuzilmalar (masalan, xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar) o'rtasida amalga oshiriladi.

Fuqarolar o'rtasidagi hisob-kitoblar va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, fuqarolar ishtirokidagi hisob-kitoblar naqd pullar bilan cheklanmagan summada amalga oshirilishi mumkin.

NAQD PUL MUOMALASI

Mamlakat pul tizimida amaldagi qonunchilik bo'yicha naqd pullarning muomalaga chiqarilishi (kiritilishi), aylanishi (harakati) va muomaladan chiqarilishi tushuniladi.

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR

Yuridik shaxslar o'rtasidagi to'lovlar, shuningdek, amaldagi qonunchilik bilan belgilangan tartib va shakllarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan fuqarolar ishtirokidagi hisob-kitoblar naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi. Naqd pulsiz to'lovlar, xususan, plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan to'lovlar mavjud bo'lishi mumkin, bunday to'lovlar jahonning ko'pgina mamlakatlarida amalda qo'llanmoqda va bizning qonunchiligimizda ham nazarda tutilgan.

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR STATISTIKASI

Bu naqd pulsiz hisob-kitoblarning tarkibi, hajmi va dinamikasini belgilash. Naqd pulsiz hisob-kitoblarda qatnashuvchi ularning o'z majburiyatlarini bajarishlarini tahlil qilishdan, ya'ni to'lov intizomiga rioya qilishlarini tahlil qilishdan iborat.

NAQD PULSIZ OBOROT (AYLANMA)

Pul oborotining bir qismi bo'lib, unda pullar harakati o'zaro talablar hisobiga kredit muassasalaridagi hisobvaraqlar bo'yicha pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi va bunda naqd pullar ishlatilmaydi.

NARX

Tovarning pulda ifodalangan qiymati. Narx tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur ijtimoiy mehnat xarajatlari bilan belgilanadi. Tovarlarning narxi va ularning harakati negizida qiymat qonuni yotadi.

NARXLAR MASSHTABI

Qiyamatiga ko'ra turlicha bo'lgan tovarlarning narxlarini solishtirish uchun ularni bir masshtabga keltirish, ya'ni ularni bir xildagi pul birliklarida ifodalash zarur. Metall pullar muomalasida narxlar masshtabi deb ushbu mamlakatda pul birligi sifatida qabul etilgan va boshqa barcha tovarlarning narxlarini o'lchash uchun xizmat qiladigan pullik metallning vazni miqdoriga aytiladi.

NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISH

Xarajat qilishdan avval amalga oshirilishi kerak bo'lgan xizmatlar miqdori va ularning sifati belgilab olinadi. Belgilangan natijaga erishish uchun kerak bo'lgan barcha resurslarni baholashga asoslangan budjetni rejalashtirish uslubi.

NOEMISSIYAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR

Qonunga muvofiq emissiyaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasiga oid bo'lmagan qimmatli qog'ozlar.

NOLIKVID AKTIVLAR

Korxonada keragidan ortiqcha yoki korxonaga zarur bo'lmagan xom-ashyo aktivlari, shuningdek qiyin sotiladigan tayyor mahsulotlar.

NOMINALLAR

Metall pulning muayyan vaznli standartini ifodalovchi va pullarning nomlari sifatida muqim o'rin olgan tushunchalar. Asrlar qa'ridan bizgacha yetib kelgan tangalarning nomlari – dirxamlar, franklar, markalar, talerlar (muayyan vaznli metall pullar).

NOMITNATIV AKSIYA

Aniq bir shaxs nomiga berilgan va mazkur aksiyadorning nomiga reestr kitobida rasmiylashtirilgan aksiya. Aksiyador mazkur aksiyani boshqa shaxsga sotsa yoki bersa, u bunday aksiyaning orqa tarafiga mazkur aksiyaga nisbatan egalik huquqidan voz kechganligini anglatuvchi imzo qo'yishi kerak. Bunday o'tkazish harakati xalqaro terminlarda indossament, jiro deb ataladi.

NOMLI AKSIYA

Aksiyador egasining nomi yoziladigan qimmatli qog'ozdir.

NOMODDIY AKTIVLAR

Korxonaning uzoq muddatli xarajatlari bo'lib, u uzoq muddat davomida yuqori daromad olish uchun sharoit yaratadi. Nomoddiy aktivlar tarkibiga yer, suv va boshqa tabiat resurslaridan foydalanish huquqi, patentlar, nou-xau, firma bahosi, elektron hisoblash mashinalari va boshqalar kiradi.

NOMULKIY HUQUQ

Aksiyadorlik jamiyatining umumiy yig'ilishida ovoz berish, emitentning faoliyati haqida axborot berilishini talab qilish singari huquqidir.

NOREZIDENTLAR

Chet el davlatlarida ro'yxatdan o'tib, boshqa joyda yashayotgan, masalan, O'zbekiston Respublikasida yashayotgan jismoniy va yuridik shaxslar.

NOREZIDENT BANK

Xorijiy davlatlar hududida ro'yxatga olingan bank.

NORMAL KREDIT

Qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror, rentabellik darajasi yuqori, debitor qarzlari qisqa muddatlarda undiriladi, garovga qo'yilgan mulki tez sotilishi mumkin. Mijozning moliyaviy holati kredit foizlarini to'lash uchun yetarli. Mazkur kreditlar bo'yicha bankning zarar ko'rish ehtimoli juda past darajada bo'ladi.

NORMATIV MOLIYAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR

Bir turdagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solish maqsadida nashr etiladi. Ular ushbu munosabatlar subyektlari xulq-atvorining muayyan qoidalari (huquq me'yorlari)ni o'z ichiga olgan bo'lib, uzoq vaqt qo'llanishga mo'ljallangan va kimga qaratilgani ko'rsatilmagan. Normativ hujjat bilan tartibga solinadigan sohada hamma unda ko'rsatilgan talablarni bajarishi, xulq-atvor qoidalariga rioya etishi shart (masalan, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari).

Shunday qilib, normativ moliyaviy-huquqiy hujjatlar ularda nazarda tutilgan barcha hollarda ko'p martalab qo'llanishi uchun mo'ljallangan. Ushbu hujjatlar belgilangan tartibda bekor qilinguniga qadar yoki ularning o'rniga boshqa yangi hujjatlar chiqqunigacha amal qiladi. Ular bevosita moliyaviy-huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirmaydi, balki bunday munosabatlarning vujudga kelishi uchun yuridik asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Soliq kodeksidagi me'yorlarga asosan, bir tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar, ikkinchi tomondan, soliq organlari o'rtasida soliqlarni to'lash va boshqa majburiy to'lovlarni undirib olish bo'yicha muayyan huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi mumkin. Normativ moliyaviy-huquqiy hujjatlarga, masalan, qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, turli yo'riqnomalar, qoidalar va nizomlar kiradi. Ular budjet qurilishi va jarayoni, soliq tizimi, bank faoliyati, hisob-kitob va valyuta munosabatlari, moliyaviy nazorat va h.k. masalalarni tartibga soladi.

OBLIGATSIYA

Obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

ODDIY AKSIYALAR

Yillik xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha aniqlanadigan dividendlarni olish imkonini hamda aksiyadorlar yig'ilishida ovoz huquqini beruvchi aksiyalar.

ODDIY HUJJATLAR

Bu hujjatlarda faqat bitta operatsiya aks ettiriladi. Bu hujjatlarga to'lov talabnomasi, to'lov topshiriqnomasi, akkreditiv ochish uchun ariza, kirim orderi, pul cheki va boshqalar kiradi.

ODDIY SSUDA HISOBVARAG'I

Ssuda bir maromda mijozning hisobvarag'iga o'tkaziladi, shu hisobvaraqa foizlar hisoblanadi va to'lanadi.

OLTINNING DENOMINALLASHUVI

XX asrning 70-yillarida oltinning denominallashuvi yuz berib, buning natijasida oltin avvaliga mamlakatning ichki aylanishida muomala va to'lov vositasi funksiyalarini, so'ngra 1976-yildan boshlab jahon pullari funksiyasini ham bajarmay qo'ydi. Ichki aylanishda va jahon bozorida ham qog'oz va kredit pullari oltinni siqib chiqarib tashladi.

OMONAT

Omonat (depozit) — talab qilinishi bilanoq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yoki bunday to'lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi.

OMONATCHI

O'zining kundalik ehtiyojidan ortiq pul mablag'larini jamg'arish uchun bankdagi hisobvaraqaqqa omonat sifatida pul mablag'larini jamg'arish uchun qo'yib, bankdan omonat daftarchasini olgan shaxsdir.

OPERATIV HISOB

Ma'lum xo'jalik jarayoni va operatsiyalarini ular yuz bergan joyning o'zida kechiktirmay nazorat qilib boradi. Xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda bu hisob yordamida rejalashtiriladigan ko'rsatkichlar bilan ham son, ham sifat jihatidan solishtiriladi.

OPERATIV LIZING

Bu shunday ijara munosabatlariki, bunda lizing obyektlari (mulk) amortizatsiya muddatidan kamroq muddatga ijaraga olinadi. Ijarachi (arendator) mulkni o'z ixtiyoriga ma'lum muddatga yoki bir ishlab chiqarish davriga oladi; odatda shartnoma 5 yilga tuziladi.

Bu muddat tugaganidan so'ng ijarachi to'lovni to'lashni to'xtatishga va mulkni ijaraga bergan egasiga topshirishga haqli, yoki shartnomani yangidan tiklash, yoxud shartnomani tuzish vaqtidagi kelishilgan bahoda lizing obyektini sotib olishi mumkin.

OPSION

Nemischa «option» so'zidan olingan bo'lib, bu bitimda ishtirok etayotgan tomonlarning biriga qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini muayyan vaqt mobaynida belgilangan narxda sotib olish yoki kontragentga sotish huquqini beruvchi shartnomadir.

Kontragent esa mukofot evaziga ushbu huquqni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

OVERDRAFT

1. Chek bo'yicha olingan joriy hisobraqamdagi qoldiqdan ortiqcha summa.

2. Bankdagi kreditning oshib ketishi.

3. Bank mijozning hisobraqamidagi qoldiqdan ortiq mablag'ni hisobdan chiqarish yo'li bilan beriladigan qisqa muddatli kredit.

OVERDRAFT HISOBVARAG'I

Uning xususiyati shundan iboratki, mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i bo'yicha qisqa muddat ichida debetli qoldiq bo'lishiga ruxsat beriladi.

OCHIQ BOZORDAGI OPERATSIYALAR

Markaziy bank tomonidan pul bozoriga ta'sir ko'rsatish maqsadida qimmatli qog'ozlarning sotib olinishi va sotilishidir.

OCHIQ FAKTORING OPERATSIYALARI

Faktoring kompaniyasining bitimdagi ishtiroki haqida qarzdorni xabardor qilgan holda to'lanmagan qarz talabnomalarini boshqaga o'tkazish.

OCHIQ TURDAGI AKSIYA

Egasi hissadorlik jamiyati hissadorlarining roziligisiz qo'ldan qo'lga o'tishi mumkin bo'lgan aksiyalarga aytiladi.

P

PARITET (lot. paritas so'zidan olingan – rus. равенство; o'zb. tenglik, barobarlik)

1. Tenglik, teng munosabat, bir xil mavqe'.
2. Turli mamlakatlar pul birliklari o'rtasidagi qonuniy tartibda o'rnatiladigan qiymat nisbati – valyuta pariteti.
3. Tomonlarning teng vakillik tamoyili.

PASSIV

Buxgalteriya balansining bir (o'ng) qismi, to'lov balansidagi kamomad.

PASSIV OPERATSIYALARI

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar.

PASSIV PUL OBOROTI (AYLANMASI)

Ma'lum bir davr ichida, vaqtincha muomalada ishtirok etayotgan pul massasi. Bularga xo'jalik subyektlari va boshqa turli korxonalar, muassasalardagi vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari, shuningdek aholining jamg'armalari kiradi.

PLASTIK KARTALAR (KARTOCHKALAR)

Hisob-kitoblarning naqd pullar va cheklarning o'rnini bosadigan, shuningdek, uning egasiga bankdan qisqa muddatli ssuda olishga imkon beradigan vositadir.

Plastik kartalar (kartochkalar) chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida eng ko'p qo'llanilmoqda.

PLYURAL AKSIYA

Aksiyadorga aksiyadorlar yig'ilishida bir nechta ovoz huquqini beruvchi aksiya.

PRINSIPAL (lot. principalis so'zidan olingan – rus. главный; o'zb. asosiy, muhim)

1. Majburiyatga ko'ra asosiy, bosh qarzdor.
2. Agent, vakilni o'z nomidan ishga oluvchi shaxs.

PUL

Umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul ayrboshlash, to'lov qiymatini o'lchash, boylikni to'plash vositasi funksiyalarini bajaradigan noyob tovardir.

Pul bu mutlaqo likvidlikka ega bo'lgan ne'matdir.

Ma'lumki, turli davrlarda metallar: bronza, temir, mis, kumush, oltin tovar ayrboshlash uchun ekvivalent vazifasini bajargan. Universal hisob-kitob ekvivalentiga bo'lgan ehtiyoj eramizdan oldingi VIII asrdayoq kafolatlangan vaznli va tarkibli standartlashtirilgan yombilar paydo bo'lishiga olib keldi.

Birmuncha keyingi davrdagi yombilarning ayrim turlari ularni bo'laklarga bo'lishda qulay bo'lishi uchun belgili kertiklar bilan yasalgan. Yombilardan tarozida tortish orqali foydalanilgan.

Tovar ishlab chiqarishining o'sishi va tovar ayrboshlashning kengayishi, bunday jarayonlarga ko'p sonli hunarmandlar va boshqa qatnashchilarning jalb etilishiga, metall pullarning keyingi standartlashtirilishiga va ular miqdorlarining chakana savdo ehtiyojlariga moslashtirilishiga olib keldi.

Taxminan milloddan oldingi XII asrda Xitoyda, VII asrda esa O'rta Yer dengizi davlatlari – Lidiya va Eginada vazni, miqdori va qotishmalarining tarkibiga ko'ra bir xildagi metall pullar paydo bo'ldi.

PUL AGREGATI

Jamg'arib borilayotgan va xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalari. Bunga naqd pullar, ma'lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo'yilgan pullar, sertifikatlar va boshqalar.

PUL AYLANISHI

Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat jarayonidir. Qiymatning o'zidan ajralganlik hozirgi pul aylanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hozirgi pul aylanishi metall pullar sharoitidagi kabi qiymatli emas, chunki pul belgisining qiymati nominaldan ancha kam va uning ahamiyati bo'lmasligi mumkin.

Pul aylanishi pul mablag'lari harakatining muayyan yo'llaridan tarkib topadi:

1. Mablag'larning markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasidagi harakati.

2. Pul mablag'larining tijorat banklari o'rtasidagi harakati.

3. Firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat.

4. Banklar, firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat.

5. Banklar va aholi o'rtasidagi harakat.

6. Firmalar, tashkilotlar va aholi o'rtasidagi harakat.

7. Banklar va moliya institutlari o'rtasidagi harakat.

8. Moliya institutlari va aholi o'rtasidagi harakat.

9. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi harakat.

O'z navbatida pul aylanishi to'lov vositalari muomalasining ikki shakliga: pul muomalasi (yoki naqd pullar aylanishi) va pul-to'lov aylanishiga bo'linadi.

PUL BIRLIGI

Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan ma'lum bir davlatning davlat pul belgisi. Mamlakatdagi to'lov vositasi birligi bo'lib, asosan tovarlar qiymatini o'lchash rolida va muomala vositasi sifatida xizmat qiladi. O'zbekistonda 1994-yilning 1-iyulidan davlat pul birligi – «so'm» muomalaga kiritilgan.

PUL EMISSIYASI

Ma'lum bir davlatning o'z pul birligini ishlab chiqishi va muomalaga kiritishi. O'zbekiston Respublikasi pul birligi – so'mni ishlab chiqish va muomalaga kiritish Markaziy Bank tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, pul emissiyasi eskirgan qog'oz pullar o'rniga yangilarini chiqarishdir.

PULLAR

Muomala (yoki ayrboshlash) vositasi sifatida jamiyatni barterli (muvozal) ayrboshlashning noqulayliklaridan xolos qiladi.

Hozirgi vaqtda kredit pullar deb ataladigan pullar: veksellar, banknotalar, cheklar, banklarning kredit kartalari (kartochkalari) pul muomalasida yetakchi vaziyatni egallab turibdi.

“PULLARNI YUVISH”

Kriminal usullar bilan qo'lga kiritilgan mol-mulkning o'zi bilan emas, balki bunday mol-mulkdan olingan daromadlar bilan bog'liq.

“Pullarni yuvish” (yoki jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish) tushunchasining bir necha turli ta'rifi mavjud. Ko'plab mamlakatlar BMTning “Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanuviga qarshi kurash to'g'risida”gi Konvensiyasida

(1988-yilgi Vena konvensiyasi) va "Transnatsional uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMTning konvensiyasi"da (2000-yilgi Palermo konvensiyasi) qabul qilingan ta'rifdan foydalanishadi: istagan turdagi (narkotiklarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq bo'lgan) huquqbuzarliklar natijasida, huquqbuzarliklarda ishtirok etish natijasida qo'lga kiritilgan mol-mulkning noqonuniy manbayini yashirish yoki sir saqlash maqsadida yoki shunday huquqbuzarliklarni sodir etishda ishtirok etayotgan har qanday boshqa shaxsга (u o'z harakatlari uchun javobgarlikdan qutulib qolishi uchun) yordam ko'rsatish maqsadida mol-mulkni o'tkazish yoki konversiya qilish.

PUL MABLAG'LARI JAMG'ARMALARINI TASHKIL ETISH

Turli usullar, xususan, majburiy va ixtiyoriy to'lovlar tizimini belgilash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular davlat pul jamg'armalariga mablag'larni jalb etish usulining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

PUL MASSASI

Tijorat banklari tizimidagi pul bazasining oshishi natijasida vujudga keladi va muomaladagi naqd pullardan va mijoz hisobvaraqalaridan pullar qoldiqlaridan iborat bo'ladi.

PUL MUOMALASI

Muayyan davlat hududida mazkur davlat pul birligining, shuningdek, chet davlatlar valyutalarining muomalada bo'lishi.

Pul muomalasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishida, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida, tovarlar va xizmatlarning sotilishida, shuningdek uy xo'jaligidagi tovarsiz to'lovlarga xizmat ko'rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir.

Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining obyektiv negizi bo'lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o'ziga va tovar-pullarga bo'linadi.

Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar yordamida tovarlar, shuningdek ssuda va fiktiv (soxta) kapitallarning muomalasi jarayoni amalga oshiriladi.

PUL MUOMALASI QONUNI

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilaydigan, tovar-pul munosabatlarini o'zida aks ettiradigan qonundir.

PUL MUOMALASI STATISTIKASI

Naqd pul muomalasi bilan bog'liq operatsiyalar statistikasini tashkil qilish, shular bilan bog'liq barcha operatsiyalar to'g'risida ma'lumot yig'ib borishdir.

PULNING QIYMATI

Pul birligining xarid etish qurbi-qobiliyati, ya'ni unga qancha tovar va xizmatlar xarid qilish mumkinligi tushuniladi.

PULNING METALLISTIK NAZARIYASI

G'arbiy Yevropada boshlang'ich kapital jamg'arish davrida savdo burjuaziyasining manfaatlarini obyektiv aks ettiradigan pullarning metallistik nazariyasi vujudga keldi. Metallistik nazariya tarafdorlari: U.Stafford (1554-1612), T.Men (1571-1641), D.Nors (1641-1691) va boshqalar tangalarning ishdan chiqishiga qarshi bo'lib, metallarning barqaror muomalada bo'lishini yoqlab chiqishdi. Ularning nazariyasi uchun davlatning boyligini pullar bilan, pullarning o'zini esa asl metallar bilan bir xil deb tushunish xarakterli edi.

PULNING NAZARIYALARI

XX asr boshigacha pullarning iqtisodiy nazariyasida quyidagicha ikki masala: 1) pullarning kelib chiqishi va mohiyati haqidagi hamda 2) pullarning qiymati va xarid qilish kuchi haqidagi masalalar markaziy o'rin egallab kelgan. Birinchi masala bo'yicha siyosiy iqtisodda ikkita yo'nalish: pullarning metallistik va nominalistik nazariyalari amal qilib kelgan.

PULNING NOMINALISTIK NAZARIYASI

Rimlik va o'rta asrlik yuristlar klassik nominalizmning yaratuvchilari edi. Nominalistlar shunga asoslanadiki, ularning fikricha, pullar – bu faqat tovar ayrboshlashiga xizmat qiladigan ideal hisob birliklari, mahsulot, davlat hokimiyatining natijasi hisoblanadi. XVII–XVIII asrlarda amal qilgan o'lchovning ideal pul birligi nazariyalari o'z mohiyatiga ko'ra nominalistik tusda bo'lgan. Bu nazariya tarafdorlari J.Lokk (1632-1704), J.Berkli (1685-1753), J.Styuart (1712-1780) pul birliklarining nomlari (funt sterling, taler, frank) "qiymatning ideal atomlari"ni ifodalaydi, deb faraz qilishgan.

PULNING MIQDORIY NAZARIYASI

Tovarlarning nisbiy qiymati, pullarning xaridchilik qobiliyati va uning o'zgarishi sabablari haqidagi savolga javob berishga harakat qiladi. Ushbu konsepsiyaning asoslarini J.Lokk asarlarida, lekin yanada tugallangan shaklda J.Vanderlint (1740-yilda vafot etgan),

Sh.Monteske (1689-1755) va D.Yum (1711-1776) asarlarida topish mumkin. D.Rikardo (1772-1823) ham pullarning miqdoriy nazariyasi tarafdori bo'lgan. Irving Fisher (1867-1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo'shdi.

PUL TAKLIFI

Muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir.

PUL TIZIMI

Ma'lum bir mamlakatda pul muomalasini qonuniy va mutanosib ravishda tashkil qilishda qo'llanadigan uslublar majmuasi tushuniladi.

PUL VOSITALARI AKKUMULYATSIYASI

Shaxs, firma, davlat tomonidan pul resurslarining asta-sekinlik bilan jamg'arilish jarayoni.

PUL-TO'LOV AYLANISHI

Pul aylanishining bir qismi bo'lib, unda pullar qanday shaklda taqdim etilganidan qat'iy nazar to'lov vositasi sifatida faoliyat yuritadi

Q

QARZ

1. Tashkilotlarning xo'jalik faoliyatlarni yuritish natijasida vujudga kelgan, tegishli huquqiy va jismoniy shaxslarga to'lanishi lozim bo'lgan qarz summasi.

2. Qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan pul, tovar kabilar.

3. Zimmadagi vazifa, burch.

QARZ VARAQASI

Bank yoki maxsus muassasalar tomonidan chiqarilgan yozma pul hujjati. Mijoz qarz varaqasini ko'rsatib, savdo va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisobvarag'iga qo'l qo'yadi. Hisob-kitoblar esa o'sha qarz varaqasini chiqargan muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

QARZDORLIK

Korxonalar, tashkilot va muassasalarga taalluqli yuridik va jismoniy shaxslarning qarz summasi.

QARZ MAJBURIYATLARI

Qarz oluvchiga zayom mablag'larni olganligi haqida zayom egasiga guvohlik beruvchi hujjatdir.

QARZ, BUYURTMA, SHARTNOMANI BEKOR QILISH, YO'Q QILISH, YOPISH

Shartnomani buzish, buyurtmani bekor qilish, avval tuzilgan bitim, qabul qilingan majburiyatlarni haqiqiy emas deb topish, ulardan voz kechish kabilar.

QARZ OLUVCHI

Xorijdan mablag' jalb qilgan yoxud xorijdan mablag' jalb qilish niyatini hujjat bilan tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'ruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki rezident.

QAYTA MOLIYALASH SIYOSATI

Markaziy Bankning o'zi belgilangan shartlarda tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatga beradigan kreditlarni tartibga solish siyosati. Markaziy bank o'zining qayta moliyalash tizimida banklarning ishtirok etish shartlarini e'lon qiladi.

QAYTA SANASH KASSASI

Kechki kassadan kelib tushgan pullarni qayta sanashdan iborat. Qayta sanalgandan keyin pullar bankning oborot kassasiga topshiriladi.

QIMMATLI QOG'OZLAR

Hujjatlar bo'lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.

QIMMATBAHO QOG'OZLAR ADMINISTRATSIYASI

Qimmatbaho qog'ozlarni boshqarish bilan bog'liq barcha muammolar.

Bankning muvofiq keluvchi bo'limi aynan ushbu termin bilan nomlanadi.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI

Yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi.

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI ISHTIROKCHILARI

Qimmatli qog‘ozlar emitentlari, qimmatli qog‘ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda birjalar.

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING PROFESSIONAL ISHTIROKCHISI

Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI PROFESSIONAL ISHTIROKCHISINING MIJOZI (MIJOZ)

Deponent yoki qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs.

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA PROFESSIONAL FAOLIYAT

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi.

QIMMATLI QOG‘OZLAR EGASI

Qimmatli qog‘ozlar o‘ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

QIMMATLI QOG‘OZLAR EGALARI REESTRI

Ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar egalari egalarining belgilangan sanadagi holatga ko‘ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlarning nomi, miqdori, nominal qiymati va toifasi, shuningdek reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxslarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan ro‘yxati.

QIMMATLI QOG‘OZLAR EMISSIYASI

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish.

QIMMATLI QOG‘OZLAR EMISSIYA RISOLASI

Emitent va u chiqaradigan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, investorning qimmatli qog‘ozlar olish to‘g‘risidagi qaroriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat.

QIMMATLI QOG‘OZLARGA DOIR BITIMLAR

Qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, meros qilib olish, ularni ustav fondiga kiritish va qimmatli qog‘ozlarning egasi

almashuviga olib keladigan boshqa aktlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar garovi.

QIMMATLI QOG'OZLARGA DOIR FYUCHERS

O'zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

QIMMATLI QOG'OZLARNI JOYLASHTIRISH

Qimmatli qog'ozlarni bitimlar tuzish orqali ularning dastlabki egalariga berish.

QIMMATLI QOG'OZLARNING BIRLAMCHI BOZORI

Qimmatli qog'ozlar emissiyasini va birlamchi joylashtirilishini amalga oshirish, ya'ni qimmatli qog'ozlarni emitent yoki uning vakili tomonidan dastlabki sarmoyaga sotish bozoridir.

QIMMATLI QOG'OZLARNING IKKILAMCHI BOZORI

Ilgari chiqarilgan va hech bo'lmaganda bir marta xarid qilingan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi (muomalasi), amalga oshiriladigan bozordir.

QIMMATLI QOG'OZLARNING MILLIY BOZORI

Fond boylıkları bilan davlat doirasida oldi-sotdi qilish sohasi tushuniladi. Mazkur bozorda rezidentlarning qimmatli qog'ozlar bilan (rezidentlar hamda nerezidentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan) o'zaro savdosini qamrab oladi.

QIMMATLI QOG'OZLAR MARKAZIY DEPOZITARIYSI

Depozitariylarda depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlash, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi.

QIMMATLI QOG'OZLARNING HOSILALARI

O'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsiolari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

QIMMATLI QOG'OZLARNING MUOMALASI

Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar.

QIMMATLI QOG'OZLARNING XALQARO BOZORI

Jahon miqyosida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish (norezidentlar o'rtasida qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalar bajarish) sohasidir.

QIMMATLI QOG'OZLARNI NOMINAL SAQLOVCHI

Qimmatli qog'ozlar egalarining reestrída ro'yxatdan o'tkazilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda boshqa shaxsning (qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning) topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlarni saqlash, hisobga olish va ularga bo'lgan huquqlarni tasdiqlashni amalga oshiruvchi depozitariy.

QIMMATLI QOG'OZLARNI CHIQARISH

Yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining obyektí sifatida qimmatli qog'ozlar paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlari.

QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELI

Investor tasarrufidagi barcha qimmatli qog'ozlar.

QISQA MUDDATLI KREDITLAR

Amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan ssuda bo'lib, uning uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o'tkazish muddati, ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli ssudalar kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi.

QIYMAT

Tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnat sarfidir. Faqatgina ijtimoiy zaruriy ish vaqti jamiyat ehtiyojini qondirish uchun kerak bo'lgan vaqtdir. Shu sababli, bu vaqtni anglatuvchi qiymatni bozor tan oladi.

QOLDIQ QIYMAT

Aktivning boshlang'ich qiymatidan yig'ilgan eskirish summasini ayirish orqali aniqlanadigan qiymatdir.

QONIQARLI KREDITLAR

Mijozning moliyaviy yoki kreditga layoqatliligi zaifligining aniqligi.

QOPLANGAN VEKSEL

Aniq bitimlarga asoslangan veksel.

QOPLANMAGAN AKKREDITIV

Bank emitent bilan to'g'ridan-to'g'ri vakillik munosabatlari mavjud bo'lganda ijrochi bankka bank-emitentning unda yuritilayotgan vakillik hisobvarag'idan (mol yetkazib beruvchi tomonidan akkreditivning barcha shartlari bajarilgan holda)

akkreditivning butun summasini hisobidan chiqarish huquqini berish yo'li bilan ijro bankka ochiladi.

QOPLASH FONDI

Moddiy jihatdan ilgari sarflanib ketgan vositalar o'rmini qoplashga yaraydigan tovarlar va xizmatlardan iborat.

QOG'UZ PULLAR

To'laqonli pullarni taqdim etuvchi pul belgilaridir. Tarixiy jihatdan olganda, qog'oz pullar metall pullar muomalasi asosida kelib chiqqan. Ilk qog'oz pullar eramizning XII asrida Xitoyda, Yevropa va Amerikada esa faqat XII–XIII asrlarda paydo bo'ldi. Rossiyada qog'oz pullar (assignatsiyalar) 1769-yilda joriy etilgan.

Davlatning moliya muassasasi yoki markaziy banklar qog'oz pullarning emitentlari bo'lishadi.

Qog'oz pullar emissiyasi miqdorlari, afsuski, tovar va to'lov aylanishinishlarining pullarga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq emas. Ular odatda davlat xarajatlarini moliyalashtirish, budget taqchilligini qoplash uchun chiqariladi.

Qog'oz pullar massasining ko'payishi qog'oz pullarning haddan ortiq chiqarilganligini bildiradi, bu pullarning qadrsizlanishiga olib keladi. Qog'oz pullarning haddan tashqari ko'p emissiyasi bilan bog'liq bo'lgan bunday pullarning inflyatsion qadrsizlanishi buning tipik ko'rinishidir.

Qog'oz pullarning qadrsizlanishi, to'lov balansining yaxshi emasligi (mamlakat chet ellardan o'zi amalga oshirgan to'lovlarga nisbatan kamroq to'lovlarni olgan) milliy valyuta kursining pasayishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Buning oqibatida qog'oz pullarga ularning tabiatiga ko'ra beqarorlik xos bo'ladi. Bunday sharoitda qog'oz pullar, shubhasiz, xazina funksiyasini bajarishga yaroqsiz bo'ladi.

QOG'UZ-PUL STANDARTI

Oltin bilan ta'minlanmagan qog'oz pul muomalasiga asoslangan pul munosabatlari shakli.

QUYI BUDJET

Quyida darajadagi budjet.

QO'SH AKSIYALAR

Egalari aynan bir xil shaxslar bo'lgan ikkita yuridik jihatdan mustaqil bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari. Bunday jamiyatlar aksiyadorlarining yig'ilishi bir vaqtda o'tkazilishi kerak.

QO'SHMA TADBIRKORLIK

Ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslar mulkini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadigan faoliyat.

QO'SHILGAN KAPITAL

Birlamchi aksiyalarni tannarxdan yuqori sotishdan olingan emissiya daromadi aks ettiriladi.

QO'SHMA KORXONALAR

MDH hududida o'z mamlakatimiz va xorijiy firmalar ishtirokida yaratiladigan korxonalar.

R

RAG'BAT AKSIYALARI

Oddiy aksiyalardan farqli o'laroq kapital va daromadlarning bir qismigagina egalik huquqini beruvchi aksiyalar bo'lib, odatda ular ish haqiga qo'shimcha tariqasida taqsimlanadi.

REAL QIYMAT

Aktivning joriy bozor qiymati yoki qonunchilikka muvofiq holda baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan, mustaqil ekspertlar tomonidan aniqlangan qiymatdir.

RESPUBLIKA BUDJETI

Davlat budjetining mamlakat miqyosidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi.

Davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

REVALVATSIYA

Lotincha so'zdan olingan bo'lib, «ahamiyatga egaman», «arziyman» degan ma'noni anglatadi. Mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan o'sishi.

Revalvatsiya mamlakat iqtisodini izga solish vositalaridan biri bo'lib, mamlakat pul tizimini muvofiqlashtiradi, pulninig xarid qobiliyatini mustahkamlaydi.

REZIDENTLAR

O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar.

REZIDENT BANK

Muayyan mamlakatda doimiy manzilga ega bo'lgan va uning qonunlariga bo'ysunuvchi bank.

REZIDENTLIK HISOBRAQAMI

Muayyan mamlakatda doimiy turar joyga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxsga ochilgan hisobraqam.

REZIDENTNING TASHQI QARZI

Rezidentning xorijdan mablag' jalb qilishi natijasida yuzaga kelgan majburiyatlari yig'indisi.

S

SALDO

Qoldiq.

SANATSIYA

Korxonalarining bankrotga chidamliligi yoki raqobatbardosh bo'lishini oshirish maqsadida moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar tizimidir.

SARMOYA

Asosiy savdo mablag'i. Kichik savdoda harakat qiluvchi mablag' dastmoya deb yuritilgan.

SARMOYADOR

Qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan sotib oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir (davlatdir).

SARROF

Pul almashtiruvchi, pulni maydalovchi.

Savdo rastalari va ko'chalarda o'tirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs.

Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish; qimmabaho toshlar, oltin, kumush va boshqalarning bahosini belgilash, pul va buyumlarni ma'lum vaqtgacha omonatga saqlash bilan ham shug'ullangan.

SEKYURITIZATSIYA

Qimmatli qog'ozlar sifatida rasmiylashtirilgan va aynan shu turishda sarmoyadorlarga sotilgan ssudalarning sotilishini anglatadi. Bunday qimmatli qog'ozlar investorlar uchun ahamiyatli, chunki ular odatda qayta nominallashtirishni, yillik daromadni, likvidlilikni va shaxsiy aktivlarning oddiy egasi ega bo'lishi mumkin bo'lganiga qaraganda ancha qulayroq shartlardagi tavakkalni nazarda tutadi.

SOLIQ INSPEKSIYASI

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarining quyi tizimidagi (tuman, shahar, shahardagi tuman) tuzilma. O'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmat to'g'risida»gi qonuni (29.08.1997-yil.), O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (24.04.1997-yil), shuningdek davlat soliq inspeksiyalari to'g'risidagi nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib boradi. Soliq inspeksiyasi maxsus nazorat-taftish bo'limi, savdo va xizmat ko'rsatish sohasini nazorat qilish bo'limi, yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi, tushumlarni hisobga olish va hisobotlarni qabul qilish kabi bo'limlaridan tashkil topgan. Soliq inspeksiyasi boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bugungi kunda Davlat soliq inspeksiyalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va amaldagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilardan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar (soliqlar) undirish yo'li bilan davlat budjetiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga daromadlar to'liq hajmda tushishini ta'minlash; soliq to'lovchilar tomonidan soliq haqidagi qonunlarga rioya etilishi, soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish; soliq solish subyektlari va obyektlari to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash, soliq to'lovchilarni to'liq qamrab olish va hisobga olish mexanizmini takomillashtirish; soliq sohasida huquq buzilishlarni aniqlash, ularga barham berish va ularning oldini olish bo'yicha kompleks tadbirlar o'tkazish yo'li bilan soliqlar yig'ilishini ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; soliq haqidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishda soliq to'lovchilarga yordam ko'rsatish; soliq to'lovchilar bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqilgan va amalda tushgan soliqlarning hisobini yuritish, hujjatlar asosida tekshirish davomida hisobot ma'lumotlarining to'g'riligini aniqlash, soliq organlariga taqdim etilgan hisob-kitoblarni buzib ko'rsatuvchi qo'shib yozishlar va har xil xatolarni aniqlash va bartaraf etish uchun buxgalteriya hisobotlari va balanslarini schyotlar bo'yicha tekshirish; soliq haqidagi qonunlar buzilishi hollarini tahlil qilish va tegishli organlarga soliq sohasida

huquq buzilishlarga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritish; ma'muriy huquq buzilishlar bo'yicha ishlarni yuritish kabi vazifalar yuklatilgan. Bunday vazifalar qonun hujjatlariga mivofiq o'zgarib turishi mumkin.

SOLIQLAR

Davlatning markazlashgan pul mablag'i fondlarini tashkil etishda soliqlarning ahamiyati kattadir. Soliqlar yordamida esa davlat jamiyatda yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliqlar davlatning qaysi tuzumiga ega bo'lishidan qat'iy nazar mavjud bo'ladi.

Chunki, davlat jamiyatni boshqarish uchun o'zining oldida turgan vazifalarni bajarish maqsadida zarur bo'lgan moliya mablag'larini aynan soliqlar hamda soliq funksiyalarini bajaruvchi boshqa majburiy to'lovlar yordamida shakllantiradi.

SOLIQ NAZORATI

Davlat soliq qo'mitasi va uning joylardagi organlari bilan amalga oshiriladi.

Bu nazorat soliq qonunchiligini, davlat va mahalliy budjetlarga barcha soliq to'lovchilar (tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va jismoniy shaxslar) tomonidan tushumlarning o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

SOLIQ TIZIMI

Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan tartibda yig'ish, bunda qatnashuvchi muassasalar, soliq ma'murchiligi, me'yoriy-huquqiy ta'minoti va barcha qatnashuvchilarni o'zida aks ettiradi.

SSUDA

Odatda, zaxiralarning muayyan turlari ta'minot bo'lib xizmat qiladigan ta'minot asosida beriladi. Bu qarzdorlarga beriladigan to'lov vositalarining hajmini muomalaning pullarga bo'lgan haqiqiy ehtiyoji bilan bog'lashga imkon beradi. Ayni shu xususiyat kredit pullarning eng muhim afzalligidir.

SSUDA KAPITALI

Bu faoliyat ko'rsatuvchi kapital aylanishiga xizmat qiluvchi va foiz keltiruvchi ssudaga (qarzga) beriladigan pul kapitalidir.

SSUDA KAPITALINING MANBALARI

Bu sanoat va savdo kapitalari aylanishi jarayonida bo'sh qoladigan pul kapitalidir.

SUBVENSIYA

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'laridir.

SUBSIDIYA

Boshqa darajadagi budjet, jismoniy va yuridik shaxslarga maqsadli xarajatlarni birgalikda moliyalashtirish (paychilik) sharti bilan beriladigan budjet mablag'lari.

SUDXO'RLIK KREDITI

Bu qarz oluvchiga ma'lum foiz asosida qaytarib berish sharti asosida beriladigan pullik ssudadir. Sudxo'rlik kreditining obyekti sudxo'rlik kapitalidir.

T

TAFTISH

Xo'jalik va moliyaviy operatsiyalarining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samaraliligini tekshirish jarayoni, shuningdek tekshirilayotgan tashkilot, korxonalar va muassasalar mas'ul xodimlarining harakatlari qonuniyligi va to'g'riligini tekshirish bo'yicha o'tkaziladigan majburiy nazorat harakatlari tizimidir.

TAHLILCHI (ANALITIK)

Korxonalar yoki bankning iqtisodiy tahlil metodikasiga ega bo'lgan va uni o'tkazuvchi mutaxassisi, ishchisi.

TANGA

Metaldan yasalgan pul birligi, muomala va to'lov vositasi. O'rta Osiyoda tangalar miloddan avvalgi III asrda muomalaga chiqarilgan. Amir Temur tomonidan XIV asrning 80-yillarida o'tkazilgan pul islohotida to'la qiymatli kumush tangalar zarb qilingan.

TANLOV TEKSHIRISH

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ba'zi bir masalalari yoki buxgalteriya hisobining bo'limlari tekshiriladi.

U mustaqil tarzda tekshirish yoki kompleks (majmuaviy) tekshirishning asosiy qismi bo'lishi mumkin. Tanlov tekshirish natijalari ba'zi bir yig'ma hujjatlarda aks ettirilishi yoki majmuaviy

(kompleks) tekshirishning yig'ma hujjatlarning jamlanmasiga kiritishi mumkin.

TARMOQLAR MOLIYAVIY REJALARI TIZIMI

Vazirliklar, kompaniyalar, korporatsiyalar, ishlab chiqarish sohasi tarmoqlari uyushmalarining daromadlari va xarajatlari balanslari, shuningdek noishlab chiqarish tarmoqlari vazirliklari yig'ma smetalarini o'z ichiga oladi.

TARRAQIYOT BUDJETI

Davlat va mahalliy boshqaruvi organlarining sarmoyaviy faoliyatlarini amalga oshirish uchun shakllanadigan pul-moliya mablag'lari.

TARTIBGA SOLIB TURUVCHI MOLIYA MEXANIZMI

Tartibga solib turuvchi moliya mexanizmi davlat manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydigan moliya munosabatlarining aniq segmentida faoliyatni tartibga solib turadi.

TARTIBGA SOLUVCHI DAROMADLAR

Bu birlashtirilgan daromadlardan oshgan xarajatlarini qoplash uchun budjet tizimining yuqori bo'g'inidan quyi bo'g'iniga o'tkazib beriladigan mablag'lardir.

TARMOQ MOLIYA NAZORATI

Iqtisodiyotning ma'lum tarmoq miqyosidagi (vazirlik, konsern, kompaniya, xolding) nazoratini o'z ichiga oladi.

Ushbu nazorat muayyan tarmoq boshqaruvida tashkil etilgan maxsus moliya boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bu boshqarma tarmoq tarkibiga kiruvchi xo'jalik subyektlarining amaldagi budjet-soliq qonunchiligiga va ichki me'yoriy nizomlarga rioya etilganligini nazorat qilib boradi.

TASHQI AUDIT

Korxonaning tashqi foydalanuvchilari, aksiyadorlar, investorlar, banklar, sheriklar uchun korxonaning moliyaviy holatiga xolisona xulosa tayyorlashdir.

TASHQI (MAJBURIY) MOLIYAVIY NAZORAT

Amaldagi qonunchilikka muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati muayyan muddatlarda auditor firmalari va soliq organlari tomonidan amalga oshirilib boriladi.

TASHQI QARZ

Muayyan bir davlatning xorijiy mamlakatlar hukumatlari, bank va moliya muassasalaridan kredit olishi natijasida paydo bo'lgan qarzi.

TEKSHIRISH

Tekshirish deganda, nazorat obyektining muayyan faoliyat qismidagi holatini o'rganish, nazoratning haqiqiy natijasi bilan hisob hujjat va registrlarda aks ettirilgan ma'lumotlar (soliq, hisobot, balans, chiqim) bilan solishtirish ko'rinishidagi ayrim olingan nazorat jarayoni tushuniladi.

TRANSFERT (lot. transferre – ing. transfer; rus. переводит, переносить; o'zb. o'tkazish, olib o'tish)

1. Chet el valyutasi yoki oltinni bir mamlakatdan ikkinchisiga olib o'tkazish.

2. Nomi yozilgan qimmatli qog'ozni bir kishidan ikkinchisiga o'tkazishga egalik huquqi.

3. Pulni bir moliya muassasasidan boshqasiga o'tkazish huquqi.

TRANSFERT XIZMATLARINING AVTOMATIK HISOBI

To'lov uchun chek mavjud bo'lgan holatda, ikkinchi hisob raqamidan birinchi hisob raqamiga pullarni avtomatik tarzda ko'chirish imkonini beruvchi, foiz keltiruvchi jamg'arma hisob raqamlari va tijorat banklarining chek hisobi kombinatsiyasi.

TIJORAT BANKI

Bo'sh pul mablag'larini jalb qiluvchi, saqlovchi, kredit, hisob-kitob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi muassasa. Bu bank asosan o'z mablag'laridan va jalb qilingan mablag'lar bilan turli xil hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiradi.

TIJORAT KREDITI

Bu faoliyat ko'rsatuvchilar tomonidan bir-birlariga o'zaro to'lovni kechiktirish sharti bilan tovar shaklida beriladigan kreditdir. Tijorat kreditining objekti – tovar kapitalidir. Tijorat kreditida kreditor va qarzdorlar faoliyat ko'rsatuvchilar (ishlab chiqaruvchilar)dir.

TO'LOV TALABNOMASI

Mahsulot yetkazib beruvchi va mablag' oluvchilarning belgilangan summani to'lovchi bank orqali to'lashi to'g'risidagi talabnomani o'z ichiga olgan hisob-kitob hujjatidir.

To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar «aksept» shaklidagi hisob-kitoblar deb ham yuritiladi.

TO'LOV TOPSHIRIQNOMASI

Mijoz o'z hisobvarag'idan unga xizmat ko'rsatuvchi bankka ma'lum bir summani boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'idir.

TRATTA

O'tkazma veksel.

TRANZAKSIYA

Pul mablag'larini har qanday maqsadlarda foydalanish uchun amalga oshiriladigan o'tkazma bank operatsiyasi.

TRANZIT KOMISSION BITIMLAR

Birjada qatnashish huquqiga ega bo'lgan banklarning boshqa, ya'ni bunday operatsiyalarda qatnashishga ruxsat berilmagan banklar va boshqa kredit institutlarining topshirig'iga binoan amalga oshiradigan operatsiyalari tushuniladi.

TRAST

Mijozning qimmatli qog'ozlari portfeli yoki portfelning bir qismini hamda u bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larini ehtimolli boshqarish (dividendlarni, foizlarni inkassatsiya qilish, ularni qayta investitsiyalash, qimmatli qog'ozlar sotuvidan pul tushishi va h.) kiradi.

TRAST OPERATSIYALARI

Bu mijozlarning pul mablag'larini boshqarish; mijozlarning fond portfellarini shakllantirish va qimmatli qog'ozlar paketlarini boshqarish; meroslar va xususiy trastlarni tassaruf etish; agentlik vazifalarini bajarish, obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va to'lov muddati kelganda to'lash, fondlarni boshqarish; qimmatli qog'ozlarni saqlash ularning harakatini hisobga olish, ularni boshqa qimmatli qog'ozlarga almashtirish va h.k. vazifalarni bajarishdir.

U

UMUMDAVLAT NAZORATI

Umudavlat nazorati barcha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va mulkchilik shakli, qaysi vazirlik yoki idoraga bo'ysunishidan qat'iy nazar davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi.

UMUMDAVLAT MOLIYA NAZORATI

Vakolatli davlat organlari amalga oshiradi. Moliya tizimi va soliq xizmati xodimlari davlat budjeti daromadlari hamda xarajatlarining bajarilishi nazoratini olib boradilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi nazorat taftish departamenti va uning viloyatdagi bo'limlariga davlat budjeti mablag'larining maqsadli va to'liq sarflanayotganligini nazorat qilish vakolati berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi va uning joylardagi bo'linmalariga mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi subyektlarda davlat budjetiga undiriladigan soliqlar va tushumlarni nazorat etish vakolati berilgan.

UMUMIY TASHQI QARZ

Rezidentlarning davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarzlari hamda davlat tashqi qarzi summasi.

UMUMIQTISODIY VAZIYAT

Mamlakatdagi joriy va kelajakdagi iqtisodiy holat, siyosiy ahvol, soliqlar, xom-ashyo va kredit qaytarilishiga boshqa ta'sir etuvchi bilvosita omillarni o'rganish tushuniladi.

USTAV FONDI

1. Pul mablag'larining yig'indisi, korxonalar yoki tashkilotlarning o'z ish faoliyatini olib borish uchun o'rnatilgan ma'lum bir summa.

2. Bank faoliyatini tashkil etish uning ustav fondini yaratishdan boshlanadi. Ustav fondi yuridik va jismoniy shaxslarning jamg'armasi hisobidan yaratiladi va majburiyatlarni bajarish uchun xizmat qiladi.

USTAV KAPITALI

Ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pul ifodasidagi) yig'indisidir. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo'shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischi kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organinig qaroriga ko'ra baholanadi va hisobga olinadi.

UYUSHTIRILMAGAN JAMG'ARMALAR

Bu aholi qo'lida saqlanayotgan jamg'armalardir. Bu jamg'armalar turli ko'rinishda saqlanishi mumkin. Masalan: pul ko'rinishida, tovar-moddiy boyliklar shaklida, qimmatbaho metall shaklida, ko'chmas mulk shaklida va boshqa ko'rinishlarda saqlanishi mumkin.

VALYUTA (ital. valuta – rus. буквально цена, стоимость; o‘zb. pul birligi)

1. Muayyan davlatning pul birligi va uning turlari (oltin, kumush, qog‘oz).

2. Xorijiy davlatlarning xalqaro hisob-kitoblarda qo‘llanadigan pul birligi.

Valyuta – davlat hududida muomalada bo‘lib turgan va qonuniy to‘lov vositasi hisoblanuvchi banknotlar, xazina biletlari, tangalar tariqasidagi pul belgilari.

VALYUTA BOZORI

Moliya bozorining bir ko‘rinishidir. Bunday bozorda turli mamlakatlar valyutasi oldi-sotdi qilinadi. Bozorda korxonalar, firma, davlat idoralari va fuqarolar qatnashadi. O‘zbekistonda valyuta oldi-sotdi qilish operatsiyalari bilan Respublika Markaziy banki, Respublika tashqi iqtisodiy milliy banki va shunday faoliyat uchun ruxsat berilgan boshqa banklar shug‘ullanadi.

VALYUTA BROKERI

Valyuta birjalarida bitim tuzish paytida vositachilik bilan shug‘ulanadigan shaxs yoki firma.

VALYUTA DEVALVATSIYASI

Milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan rasmiy tarzda pasaytirish.

VALYUTA KOTIROVKASI

Joriy qonun asoslari va amaliy faoliyatidan kelib chiqqan holda banklarda chet el valyutasi kursininig belgilanishi.

VALYUTA OPERATSIYALARI

Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi: valyuta boyliklariga bo‘lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o‘zga shaxsga o‘tishi hamda valyuta boyliklarini to‘lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog‘liq operatsiyalar; valyuta boyliklarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va jo‘natish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo‘natish; xalqaro pul jo‘natmalarini amalga oshirish; rezidentlar va norezidentlar o‘rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar.

Valyuta operatsiyalari joriy xalqaro operatsiyalarga hamda kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalariga bo‘linadi.

VALYUTA MUNOSABATI

Bir davlat valyutasini boshqasiga ayirboshlashdir. Valyuta munosabati ma'lum valyuta kursi asosida amalga oshiriladi.

VALYUTANI SOTISH KURSI

Bank tomonidan kotirovka qilingan valyutalarini kurs bo'yicha sotish.

VALYUTANI SOTIB OLISH KURSI

Kotirovka qilingan valyutalarni kurs bo'yicha sotib olish.

VALYUTA HISOB-KITOBLAR

Bu banklarda yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi hisob-kitoblar.

VARRANT

1. Tovar omborga topshirilganda beriladigan hujjat.

2. O'z sohibiga qimmatli qog'ozlarni muayyan davr mobaynida belgilangan narxda xarid qilish huquqini beruvchi guvohnoma.

VARRANTLI ZAYOM

Varrant garovi asosida beriladigan bank krediti turi.

VASIQA

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mol-mulk oldi-sotdisi to'g'risida tuzilgan rasmiy hujjat (shartnoma).

VASIYLIKNI TAYINLASH

Bankning muvaqqat ma'muriyatini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Markaziy bank vasiy tayinlaydi va vasiylik qilish haqida farmoyish chiqaradi. Farmoyish matbuotda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bankning oldindan vasiydan rozilik olmay qilgan harakatlari haqiqiy emas.

VASIYNING VAKOLATLARI

Vasiy bankning mansabdor shaxslari va uning aksiyadorlari vakolatlariga, shuningdek bank ahvolini me'yorlashtirish uchun zarur choralar ko'rish, jumladan qonun hujjatlariga muvofiq filiallarni yopish, mansabdor shaxslarni va xizmatchilarni ishdan bo'shatish huquqiga ega bo'ladi. Vasiy istalgan paytda fuqarolarning depozitlari va investitsiyalari bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga qisman yoki to'la to'xtatib qo'yilganligini e'lon qilishi mumkin, bunda depozitlar va investitsiyalarning taxminiy qiymatini saqlab qoladigan choralar ko'rilishi shart. Basharti, vasiylik vaqtida yoki vasiylik davrining oxirida bankni sog'lomlashtirishning iloji yo'qligi Markaziy bank

tomonidan aniqlansa, u litsenziyani chaqirib oladi va belgilangan tartibda bankni tugatadi.

VAUCHERLAR

Sertifikatlar yoki oldindan beriladigan guvohnomalar bo'lib, ular aholi o'rtasida taqsimlanadi va o'z egalariga ular uchun kimoshdi savdosida sotuvga qo'yiladigan davlat korxonalarining aksiyalarini olish yoxud ularni vaucherlardan foydalanish bo'yicha vositachilik vazifalarini bajarishga tayinlangan investisiya fondlariga qo'yish huquqini beradi.

VEKSEL

Qarzdorning yozma majburiyati (oddiy veksels) yoki kreditorning qarzdorga vekselda yozilgan summani muayyan muddatdan keyin to'lash to'g'risidagi buyrug'i (o'tkazma veksels - tratta). Oddiy va o'tkazma veksellars - bular tijorat vekselsi, ya'ni savdo bitimi asosida vujudga keladigan qarzs majburiyatining turlaridir. Shuningdek moliyaviy veksellars, ya'ni muayyan summadagi pullarni qarzsga berishda kelib chiqadigan qarzs majburiyatlari ham amal qiladi. Xazina veksellari ularning bir turidir. Bunday veksels hukumatning qisqa muddatli qog'ozi bo'lib, uning amal qilish muddati bir yildan oshmaydi (odatda 3-6 oy bo'ladi). Bu yerda davlat qarzdor rolini bajaradi. Do'stona veksellars - pulsiz, real tijorat bitimi bilan bog'liq bo'lmagan, kontregentlars tomonidan bunday veksellarni banklarda hisobga olish yo'li bilan pullarni olish maqsadida bir-biriga yozib beradigan veksellardir.

Vekselsning o'ziga xos xususiyatlari:

- A) abstraktililik (vekselda bitimning aniq turi ko'rsatilmagan);
- B) munozarasizlik (notariusning norozilik haqidagi dalolatnomani tuzganidan keyin to majburlovchi choralarni qo'llashgacha qarzsning majburiy ravishda to'lanishi);
- D) aylanishlik (vekselsning to'lov vositasi sifatida uning orqa tomonida berish haqidagi yozuvni yozib (jiro yoki indossament) boshqa shaxslarga berilishi. Bu veksels majburiyatlarining o'zaro hisobga olinish imkoniyatini yaratadi).

VEKSELNI AKSEPTLASH

Veksels qiymatini to'lashga rozilik berish.

VEKSEL PORTFELI

Muayyan davrda bank yoki korxonada ixtiyorida jamlangan veksellars to'plami.

VORIS

Meros olish huquqiga ega bo'lgan shaxs, merosxo'r, bulg'usi meros egasi. Bobolardan meros qolgan moddiy va ma'naviy boyliklarga egalik qiluvchilar.

VORISLIK HUQUQI

Meros qoldirilgan mol-mulkning vorislar qo'liga o'tishini ta'minlaydigan sha'riy va huquqiy me'yorlar majmui.

X

XAZINA VEKSELLARI

Veksellarning bir turidir. Bunday veksel hukumatning qisqa muddatli qog'ozi bo'lib, uning amal qilish muddati bir yildan oshmaydi (odatda 3-6 oy bo'ladi). Bu yerda davlat qarzdor rolini bajaradi.

XALQARO BANK KREDITI

Bir mamlakat tomonidan boshqa bir mamlakatga (davlatga yuridik va jismoniy shaxslarga) qisqa va o'rta uzoq muddatga foydalanishga beriladigan kredit shaklidir.

Bugungi kunda xalqaro bank kreditining biri bu eksport bank krediti. Bundan tashqari xalqaro kreditlarning xalqaro davlat krediti, ko'p tarmoqli xalqaro zayom va kreditlar, yevro kreditlar, yevro bozorlar va xalqaro moliya kredit institutlarining turli kreditlari mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasi teng, mustaqil mamlakat sifatida barcha xalqaro shartnomalarda qatnasha olishi va har qanday davlat bilan xalqaro shartnoma tuzishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyin bir necha ming xalqaro shartnoma tuzildi. Mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa sohalaridagi barcha xalqaro huquqiy munosabatlari 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalar to'g'risida» gi qonunida batafsil ko'rsatilgan.

XALQARO KREDIT

Bu ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi harakatidir. Bunda bir davlat tomonidan ularning banklari, yuridik shaxslari tomonidan boshqa davlat hukumatiga, banklariga yoki boshqa yuridik shaxslariga muddatli beriladigan kreditlar tushuniladi.

XALQARO XUSUSIY VA FIRMA KREDITLARI

Xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi tijorat kreditlarining bir ko'rinishi bo'lib, bir mamlakat firmasi tomonidan ikkinchi mamlakat firmasiga tovarlarni kechiktirib to'lash huquqini beradi.

XALQARO SHARTNOMA

Bu davlatlarning ikki yoki ko'ptomonlama tuzilgan kelishuvlaridir. Xalqaro shartnomalarda davlatlar asosiy tomonlar hisoblanadi. Xalqaro shartnoma (davlatlar) xorijiy davlatlar yoki xalqaro birlashmalarning o'zaro kelishuvi natijasida yozma ravishda tuziladi. Xalqaro shartnomaning asosiy manbai xalqaro huquq hisoblanadi. Xalqaro shartnomada o'zaro kelishuv asosida shartnoma tuzayotgan davlatlarning asosiy huquq va majburiyatlari ko'rsatiladi.

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI VA HOKIMIYATLAR

O'z vakolatlari doirasida tegishli ma'muriy-hududiy birliklar moliyasiga rahbarlik qilinishini ta'minlaydi.

Ushbu organlar, xususan, mahalliy budjetlar loyihalarini ishlab chiqadi, ularni tasdiqlaydi va ijro etadi, shuningdek mazkur budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlaydi, qonunchilikka muvofiq ravishda mahalliy budjetga kelib tushadigan mahalliy soliqlar, yig'implar va to'lovlar miqdori va ular bo'yicha imtiyozlarni belgilaydi.

Bundan tashqari, Xalq deputatlari kengashlari o'zlarining olib qo'yilmaydigan hamda tegishli Kengashlar va hokimiyatlarning qarorlari bo'yicha sarflanadigan budjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etishlari mumkin. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Xalq deputatlari kengashlari valyuta jamg'armalarini ham tashkil etishlari mumkin, ammo budjetdan tashqari jamg'armalardan farqli ravishda, faqat tegishli Kengashlarning ruxsati bilangina ulardan foydalanishlari mumkin.

XARAJAT VA NATIJALAR TAHLILI

Asosiy turdagi iqtisodiy mahsulotlarning ishlab chiqarilishiga sarflangan xarajatlar va mahsulot hajmi ko'rinishidagi natijalar qayd qilingan va hisob-kitob qilingan balans jadvallaridan foydalanish. Bunday tahlil mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan umumiy xarajatlar darajasini aniqlash, iqtisodiyotning turli sektor va tarmoqlararo aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Bu kabi tahlil loyihalarni rejalashtirishda, hisob-kitoblarda tadqiqot quroli sifatida qo'llanadi.

XARAJATLAR SMETASI

Tashkilotlarni saqlashga hamda xo'jalik va madaniy qurilish bo'yicha markazlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishga budjetdan beriladigan mablag'larning hajmini, maqsadli yo'nalishini va choraklar bo'yicha taqsimotini belgilovchi asosiy reja hujjati hisoblanadi.

XUSUSIY KREDIT

Bunda qarz oluvchi va kreditor sifatida xususiy yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadi.

XO'JALIK ICHIDAGI MOLIYA NAZORATI

Alohida olingan xo'jalik subyektlari qoshida tashkil etilgan moliya bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

XO'JALIK SUBYEKTLARI MOLIYASI

Markazlashmagan moliya tizimiga kirib, moliya tizimining asosini tashkil etadi. Chunki xo'jalik subyektlarining moliyasida, ya'ni asosan moddiy ishlab chiqarish sohasida moliya resurslarining asosiy qismi shakllanadi. Xo'jalik subyektlarining moliyasida mamlakatdagi pul mablag'lari jamg'armalarining manbayi hisoblangan milliy daromad yaratiladi. Xo'jalik subyektlari o'ziga xos guruhlardan, ya'ni sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardan tashkil topgan. O'z navbatida xo'jalik subyektlari o'zlarining mulkchilik shakliga asosan davlat korxonalari, davlat unitar korxonalari, ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, xorijiy sarmoya ishtirokidagi qo'shma korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va xususiy korxonalar moliyasidan iborat. Agar xo'jalik subyektlari faoliyatini tijorat asosida yuritishiga ko'ra guruhlasak, bu holatda:

Tijorat asosida faoliyat yuritayotgan subyektlarning moliyasi;

Notijorat asosida faoliyat yuritayotgan subyektlarning moliyasi;

Jamoat (homiyluk asosida) subyektlarining moliyasiga ajratishimiz mumkin.

XO'JALIK FAOLIYATI TAHLILI

Iqtisodiy tahlilning korxonalar, firma, uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish, moliyaviy va oldi-sotdi faoliyatini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy tahlilning bir tarmog'i. Bunday tahlil tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishini, aylanishini, iste'molini, resurslardan foydalanish samaradorligini, ishlab chiqariluvchi mahsulot sifatini xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt

oralig'idagi hajmi va o'zgarishlarini aniqlashga yo'naltirgan. Tahlil vaqtida kuzatiluvchi omillarning sabablari, ehtimoldagi oqibatlari aniqlanadi.

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIVASI

Ijtimoiy ishlab chiqarish dastlabki bo'g'inlarining turli ehtiyojlarini ta'minlash, budget, banklar, yuqori tashkilotlar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun mo'ljallangan markazlashtirilmagan pul jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanishga doir munosabatlarni ifodalaydi.

Y

YAGONA G'AZNA HISOB VARAG'I

G'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i bo'lib, bu hisobvaraqa Davlat budgeti mablag'lari hamda budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisobvarag'idan Davlat budgetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi, Yagona g'azna hisobvarag'i belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida G'aznachilik tomonidan ochiladi, G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va o'zga banklarda boshqa bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega. G'aznachilikning bank hisobvaraqlaridan mablag'larning so'zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

YIL BOSHIGA QOLGAN ERKIN QOLDIQ

Respublika budgeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar budgetlari hisobvaraqlarida moliya yili boshiga mavjud bo'lgan mablag' qoldiqlaridan yangi moliya yilidagi tegishli budget uchun tasdiqlangan aylanma kassa mablag'lari miqdoridan ortgan qismi.

YILLIK HISOBOT

Bir yillik davlat budgeti, xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadlari va xarajatlarini aks ettirgan hujjat.

YIG'MA VARAQLAR

Har kuni tegishli balans hisob raqamlarida ochilgan analitik hisobining shaxsiy varaqlari bo'yicha, kunlik debet va kredit bo'yicha oborotlar va kun oxiridagi qoldiq hisoblab chiqiladigan varaq.

YIG'MA HUJJATLAR

Ushbu hujjatlarda bir nechta operatsiyalar amalga oshiriladi. Bu hujjatlarga: yig'ma to'lov topshiriqnomalar, to'lov talabnomalarning ro'yxati, cheklar ro'yxati, kassa kirim jurnallari, kassaning chiqim jurnallari va h.

YUQORI BUDJET

Yuqori darajadagi budjet.

O'

O'TKAZMA AKKREDITIV

Bu akkreditivning xususiyati shundaki, buni boshqa shaxsga o'tkazish mumkin.

O'RTA KORXONALAR

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik hisobida kichik korxonalar uchun belgilanganidan ortiq, biroq sanoat sohasida 100 kishidan yuqori bo'lmagan, qurilishda 50 kishidan, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida, ulgurji savdo 30 kishidan, chakana savdoda, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan ko'p bo'lmagan korxonalar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET TIZIMI

Turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan mamlakatimizda moliyani boshqarishda juda katta vakolatlarga ega bo'lgan organ. Ushbu vakolatli organ tomonidan davlat budjetini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat etish hamda mamlakatimizda moliya, pul, kredit va fond bozorida yagona siyosat olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mamlakatdagi barcha vazirliklar va idoralarning moliya faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat budjetining ishlab chiqilishi va uning ijro etilishini tashkil etadi, davlat pul va kredit siyosatini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashadi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi davlat budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanishga oid masalalarni hal etadi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat budjetining ijrosi bo'yicha boshqa davlat boshqaruv organlarining faoliyatini nazorat qiladi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining majlislarida davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi va O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi qarzlarini oshirish doirasi, soliqqa tortish va davlat bojlari stavkalarini belgilash va o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ XIZMATI

Soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan yagona nazorat tizimi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslari "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunda. (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan) belgilab berilgan. Chunonchi, soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqqa tortilishi lozim bo'lgan subyektlar va obyektlarni hisobga olish, soliqlarga doir tekshiruvlar o'tkazish, soliq to'lovchilar, boshqa shaxslarni so'rab-surishtirish vositasida hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarida amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari, viloyatlar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning davlat soliq inspeksiyalari. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tarkibida hududiy tuzilmalarga ega bo'lgan maxsus nazorat-taftish bo'linmasi tuzilib, u davlat soliq xizmati organlarida soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish sohasida faoliyat olib boradi. Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar. Davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari

doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida (masalan, Kodeksning 87-moddasida) nazarda tutilgan hollarda bojxona organlari soliq organlarining vakolatlariga ega bo'lishi mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO'MITASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 14-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-martda "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish masalalari to'g'risida"gi 114-sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Mazkur Qo'mita mamlakatimizda soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish hamda davlatning iqtisodiy manfaatlarini va mulkiy huquqlari himoyasini ta'minlash sohasidagi davlatning vakolatli organidir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

Davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus vakolatga ega bo'lgan organlardan biri O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidir. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» 1995-yil 21-dekabrda qonuni bilan belgilangan huquqiy maqomida ikki vakolat birlashadi: u davlat boshqaruv organi va yuridik shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi holda Markaziy bank hokimiyat vakolatlari bilan yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimidan iboratdir.

U banklarni ro'yxatga oladi va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun ularga litsenziyalar beradi, banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish qoidalarini belgilaydi, bank nazorati va banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi, valyutani tartibga solish va nazorat qilish organi hisoblanadi.

Bank faoliyati sohasida davlat boshqaruv funksiyalarini bajarish uchun Markaziy bank tegishli xizmatlar va muassasalarni tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ular muayyan hududda pul muomalasi, kredit va valyutani tartibga solish sohalarida yagona siyosat yuritilishi, hisob-kitoblarning samarali tizimi tashkil etilishini ta'minlaydi hamda tijorat banklari va ularning filiallari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Markaziy bank yuridik shaxs sifatida ustav kapitaliga, zaxira jamg'armasi va boshqa maqsadli jamg'armalariga ega bo'lib, o'z ish faoliyati natijasida foyda oladi.

